ZAFAR RAXIMOV

QISHLOQDA SERVIS XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

MONOGRAFIYA



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Z.K. RAXIMOV

QISHLOQDA SERVIS XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

SAMARQAND 2023

UO'K 631:64.069.6
R 29
KBK 65.32

Z.K.Raximov. ***Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish yo‘llari:*** *Monografiya / Samarqand.: SamISI, – “STEP-SEL” MChJ. Nashryot-matbaa bo’limi, 2023 - 178 bet.*

Monografiyada O‘zbekiston Respublikasining qishloq joylarida servis xizmatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, servis xizmatining hozirgi holati tahlili va rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan muammo va yechimlar aks etgan.

Monografiya oliy o‘quv yurtlari talaba va o‘qituvchilariga hamda doktorantlarga mo‘ljallangan. Undan xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi farovonligini yuksaltirish muammolari bilan qiziquvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.S.Sharifov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

L.U.Maxmudov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v.b., PhD.

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 30 - maydagi 10-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9458-3-8

© Z.K.Raximov. 2023.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyot-matbaa bo‘limi. 2023.

MUNDARIJA

KIRISH..... 4
I BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI..... 10
1.1.-§. Qishloqda servis xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ilmiy-nazariy asoslari..... 10
1.2.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi..... 22
1.3.-§.Qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish..... 30
II BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI..... 50
2.1.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va uni rivojlanishining hozirgi holati..... 50
2.2.-§.Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili . 75
2.3.-§. Qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatish strategiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari..... 86
III BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH..... 102
3.1.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni innovatsion va raqamli texnologiyalarga mos rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari..... 102
3.2.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni klaster asosida rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... 121
3.3.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni ekonometrik model asosida prognozlashtirish..... 129
XULOSA..... 141
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 144

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining sifat jihatdan rivojlanib borishi sharoitida qishloq aholisining kambag‘allik darajasi yuqoriligi, ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishda asosiy muammolardan biri hisoblanmoqda. Bugungi kunda “jahon bo‘yicha qishloqlarda qashshoqlik darajasi hozirda 17 foizni tashkil etib, shaharlardagi darajaga nisbatan ikki barobar ko‘pdir”[1]. Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida qishloqdagi mavjud servis xizmatlarini rivojlantirishda unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish hamda servis xizmatlarining innovatsion raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Jahon iqtisodiyotida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, xizmatlar sifat darajasini baholashni takomillashtirish, aholining o‘sib borayotgan bu yo‘nalishdagi ehtiyojlarini qondirish hamda qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutli muammolarini servis hisobiga kamaytirishga asoslanilgan ilmiy-tadqiqot ishlarga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish orqali aholini ish bilan bandligini ta’minlash, qishloq aholisiga servis xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sub’yektlari o‘rtasida integratsiya va kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish, raqamli servisni hamda servis xizmatlarini rivojlantirishning mintaqalarga mos barqaror omillarini tadbiq etish kabi masalalar bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida qishloqda sifatli servisni jadal rivojlantirish, sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni qo‘llab-

[1] https://ebrary.ifpri.org/utils/getfile/collection/p15738coll2/id/133135/filename/133352.pdf

quvvatlash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, yuqori sifatli servis xizmatini ta’minlovchi klasterlash munosabatlarini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish...” muhim maqsad sifatida belgilangan. Shunday ekan, mazkur maqsadning bajarilishi “mamlakatimiz hududlarida xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 mln. yangi ish o‘rinlarini yaratish”[2]ni taqozo etadi. Bu borada qishloqda servis xizmat ko‘rsatish natijalarini baholash uslubiyotini takomillashtirish, servis sohasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish hamda xizmat ko‘rsatish hajmini kelgusi taraqqiyotini prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2020 yil 10 yanvardagi PQ-4565-son “2020-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 16 oktyabrdagi PQ-4864-son “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yilarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni -74 b.

ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 11 mayda “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-son Qarorlari va mazkur sohaga tegishli bo‘lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Monografiya respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy jihatlari ko‘plab taniqli xorijlik olimlar, jumladan: F.Kotler, G.Armsrong, Dj.Sonders, V.Vong, M.Mak-Donald, E.Peyn, O.Y.Goyxman, A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus, McConnell, N.Gregory Mankiw [3] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan, tadqiqot mavzusiga doir chuqur izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar qatoriga: N.A.Konoplyova, P.D.Shimko, V.S.Yeliseyev, I.I.Velento, P.V.Savchenko, E.N.Jilsov, A.N.Tarasov, M.V.Vinogradova, Z.I.Panina, N.A.Voskolovich, O.I.Vapnyarskaya, S.N.Korobkova[4] va boshqalarni kiritish mumkin.

[3]Котлер Ф., Армсронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999.-718 с.; Мак-Дональд М., Пэйн Э.Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию.-М.: КноРус, 2009.-448 с.; Гойхман О.Я. К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. -2007. №1. – С., 31-34.; A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009. – 744 p.; McConnell, Brue. Economics. 19 th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p.

[4] Коноплева Н.А., Карабанова С.Ф. Креативные технологии ва формировании компетентности выпускника бакалавриата «Сервис» // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований.– 2015. №5. – С., 515-519.; Шимко П.Д. Экономика. Учебник и практикум для академического бакалавриата. –М: Юрайт, 2019.

O‘zbekistondagi iqtisodchi olimlardan: Y.A.Abdullyaev, M.M.Muxammedov, M.Q.Pardayev, Q.D.Mirzayev, G.Sh.Xonkeldiyeva, M.T.Aliyeva, R.X.Ergashev, E.Shavqiyev, Sh.O.Kuvandikov, S.B.Boboqulov [5] va boshqalar tomonidan qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusiga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligiga qaramasdan, mavzuga oid masalalar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli ham, mazkur monografiya mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Mazkur monografiyani yozishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va uni aniqlash yo‘llarini asoslab berish;

qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlar faoliyatini tahlil qilish;

qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini tadqiq etish;

– 462 с.; Елисеев В.С., Веленто И.И. Теория экономического права. Теория отраслей права, обеспечивающих экономические отношения. Учебное пособие. –М.: Проспект, 2020. –416 с.; Савченко П.В., Жильцов Е.Н. Экономика общественного сервиса. Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М, 2012. – 763 с.; Тарасов А.Н. Типологизация сельских территорий на основе диверсификации экономики: монография // А.Н.Тарасов, Н.И.Антонова и др. – Ростов н/Д, «АзовПечать». –2016. – 140 с.; Виноградова М.В., Панина З.И. Организация и планирование деятельности предприятий сферы сервиса. Учебное пособие. –М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2012.-448 с.; Восколович Н.А. Экономика платных услуг. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. -399 с.; Современные модели отношений поставщиков и потребителей услуг в секторе B2B [Текст] / Ольга Игоревна Вапнярская, Елена Васильевна Поворина. // Сервис plus: Научный журнал. -- 2010. -- № 4. -- с. 129-134.; Коробкова, С.Н. Сервисная деятельность [Текст] / С.Н. Коробкова, В.И. Кравченко, / Под ред. В.К. Романович. - СПб.: Питер, 2012. --156с.

[5]Абдуллаев Ё.А. Менежмент: дарслик. – Тошкент. «Ўқитувчи», 2001 й; Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.; Пардаев М.Қ. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, 2014. –264; Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, 2022. –251 б.; Хонкелдиева Г.Ш., Муминова Э.А., Мирзаев А.Т., Асрақулов А.А. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси: замонавий ҳолат. муаммолар ва ривожланиш истиқболлари: Монография. – Тошкент: Наврўз, 2020. –162 б.; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. –Самарқанд: СамИСИ, 2019. –287 б.; Эргашев Р.Х. Инновационное развитие инфраструктуры сельского хозяйства: проблемы и пути его достижения. Монография. Лондон, изд. Science Point. –2020. –435 с.; Султонов Ш., Шавқиев Э., Кувандиков Ш. ва б. Хизмат кўрсатиш соҳасини модернизациялаш ва аҳоли фаровонлигини юксалтириш: муаммо ва ечимлар. Монография. –Т.: «Фан ва технология», 2019, 188 бет.; Кувандиков Ш.О. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда оилавий тадбиркорлик ролини оширишнинг методологик масалалари: и.ф.д. (DSc) автореф.–Т.: 2021, 69 б.; Бобоқулов С.Б. Аҳолига коммунал хизмат кўрсатиш тизими самарадорлигини ошириш йўллари: и.ф.ф.д. (PhD) автореф. – Самарқанд.: 2021, 53 б..

qishloqda servis xizmat ko‘rsatishning innovatsion raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish tuzilmasini ishlab chiqish;

qishloqda servis xizmatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sohasini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikni ekonometrik model orqali asoslab berish;

qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu monografiyada qishloqda servis xizmat ko‘rsatish natijalarini baholash uslubiyoti qishloqda aholining tegishli servis xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan ta'minlanishi va qishloqda servis infratuzilmasini chet el tajribasiga ko‘ra takomillashtirilishi samarali ekanligi asoslab berilgan. Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarining asosiy yo‘nalishlari yangi raqamli tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, aholi hamda tijorat banklarining pul mablag‘larini samarali yo‘naltirishga ko‘ra takomillashtirilgan. Qishloqda servis xizmatlarini samarali va kompleks tashkil etish maqsadida hududiy “Qishloqxizmat” klasterini tashkil qilishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan hamda Samarqand viloyatida qishloq servis xizmatlarini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari eksponentsial trend chizig‘i bo‘ylab o‘sishi ishlab chiqilgan.

Ushbu monografiya ma’lumotlari oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalariga, magistrlariga, ilmiy tadqiqotchilarga va servis

xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlar va mutasadi xodimlar faoliyatida qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

I BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1.-§. Qishloqda servis xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ilmiy-nazariy asoslari

Mamlakat aholisining ko‘payib borishi bilan birga aholi turmush darajasini yaxshilash, servis xizmat ko‘rsatish sohalarini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Har bir rivojlanayotgan mamlakat servis xizmat ko‘rsatish sohalarini takomillashtirishga katta e'tibor beradi hamda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan tajriba o‘rganishga harakat qiladi.

Ma'lumki, servis va xizmat ko‘rsatish o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lib, ular xususiy yoki davlat sektorlarida ko‘p qo‘llaniladi hamda insonlarning korxona yoki tashkilot o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritib berish davomida, “servis” va “xizmat ko‘rsatish” tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tish hamda uning mazmunini tushunib olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh olimlar “xizmat ko‘rsatish” va “servis” tushunchalari bo‘yicha bir qator ilmiy qarashlarini bayon qilishgan. Ularning ta'kidlashicha, bir qator soha olimlari mazkur tushunchalarni har birini alohida deb hisoblasa, boshqalari esa sinonim tushunchalar sifatida talqin qiladilar.

Amerikalik iqtisodchi F.Kotler “xizmat” tushunchasiga quyidagi ta'rifni bergan: – “xizmat – bu, bir tomon boshqa tomonga taklif qila oladigan har qanday faoliyat. U biror narsaga egalik qilishga olib kelmaydigan nomoddiy harakatdir. Uning taklif etilishi moddiy mahsulot bilan bog‘liq

bo‘lishi mumkin”[6]. Ta'kidlash joizki, F.Kotler bir xil qarashga ega bo‘lgan hammualiflari bilan birga “Servis”ni kengroq tushuncha hisoblagan, ya'ni: – “Xizmat (Service) bir tomonning boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyat yoki qulaylikdir. Servis nomoddiy xarakterga ega va mulkka ega bo‘lishga olib kelmaydi”[7].

Boshqa bir iqtisodchi professor I.V.Xristoforovaning fikriga ko‘ra “servis – bu, kundalik ehtiyojlarni qoniqtiradigan xizmatlarni ko‘rsatishdir”[8].

Shuningdek, iqtisodchi olimlardan M.Mak-Donald va E.Peynlar fikricha “Servis moddiy mahsulotni sotish natijasida sotishdan keyingi xizmatlar yig‘indisidir. Ya'ni, servis – bu, moddiy mahsulotni ishlab chiqarish va sotishdan keyingi hayotiy tsikl bosqichlarida bozor ishtirokchilarining o‘zaro ta'sirining tarkibiy qismlaridan biri. Shuningdek, servis – ishlab chiqaruvchi yoki vositachi tomonidan xaridorga mahsulotni sotib olgandan keyin maksimal darajada qoniqish hosil qilish imkonini beradigan amalga oshiriladigan xizmatlardir”[9].

Aksariyat iqtisodchi “olimlar”[10] o‘z qarashlarida ““xizmatlar” statik (narsa) sifatida taqdim etiladi, “servis” (ishlab chiqarish) bilan bog‘liq dinamik (faoliyat) toifasi sifatida ishlaydi. Servis iste'molchilarning har biriga xos xususiyati (moddiylik, sifat o‘zgaruvchanligi, shaxsiy yo‘nalish va boshqalar) bilan tovarlar qatoridan ajralib turuvchi mahsulot-xizmatlarni

[6] Котлер Ф. Маркетинг менеджмент: анализ, планирование, внедрение, контроль. — СПб.: Питер, 1998.с 541.
[7]Котлер Ф., Армсронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999. 718 с.
[8] Христофорова И.В. Современные подходы к маркетингу услуг // Сервис Plus. 2008. №1.-С. 83-87.
[9]Мак-Дональд М., Пэйн Э. Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию.- М.: КноРус, 2009.-448 с.
[10]Гойхман О. Я. К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. 2007. №1.-С. 31-34.
Коноплева В.А., Карабанова С. Ф. Креативные технологии в формировании компетентности выпускника бакалавриата «Сервис» // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. №5.-С. 515-519.
Фролова Т.А. Экономика и управление в сфере социально-культурного сервиса и туризма. – Таган рог: ТТИ ЮФУ, 2010. – 74 с.

iste'molchilarga taqdim etilishi bilan bog‘liq faoliyat turi deb ta'kidlashadilar”[11].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham servis sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, ular muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olim professor M.Q.Pardayev “Servis” tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan, “servis deganda insonlarning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, kishilarning naf keltiradigan, ma'lum sertifikat va andozalarga ega, sifat jihatidan yuqori bo‘lgan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyat tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, xizmat nafaqat insonlarga, balki korxonalarga, jamiyatga, davlatga ko‘rsatilsa, servis asosan aholiga, odamlarga ko‘rsatiladigan sifatli xizmat bo‘lib hisoblanadi”[12].

Iqtisodchi olim I.Ochilov ushbu tushunchaga alohida yondashib “xizmat deyilganda insonning, xo‘jalik yurituvchi sub'yektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyat tushuniladi”[13] deb e'tirof etgan.

Professor M.M.Muxammedov va dotsent B.B.Mardonovlar ham ushbu tushuncha bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon qilgan, “inson omili mamlakat taraqqiyoti uchun katta rol o‘ynasa-da, u xizmat ko‘rsatish sohasining rivojisiz uning faol ishtirokisiz kuchli va qudratli omil sifatida

[11] Мозокина С.Л.Тенденции развития лечебно-оздоровительного и медицинского туризма // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. 2014. № 5. – С. 42-46.;
Петров А.Н., Карпова Г.А., Хорева Л.В.Концептуализация подходов к формированию целостной теории услуг // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. 2012. № 1. – С. 40-50.

[12] Пардаев М.Қ. «Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари» (назарий жиҳатлар) // Сервис. – Сам., 2009. – № 1. – Б. 37-44.

[13] Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. // Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларнинг ривожлантириш: муаммолари ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2008. – Б. 37.

shakllanmaydi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish sohasini, uning tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etadi”[14].

Professor Q.D.Mirzayevning ta'kidlashicha “xizmat ko‘rsatish deyilganda – insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sub'yektlarida yuzaga keladigan, o‘z iste'mol ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat tushuniladi”[15] deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, “servis esa umumiylik va uyg‘unlik tamoyillariga bo‘ysungan holda, u zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soha va sub'yektlarida insonlarning yuzaga keladigan iste'mol talablarini ta'minlash maqsadida ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar majmuini ifodalovchi tushunchadir”[16].

Respublikamizning boshqa bir iqtisodchi olimi I.S.Tuxliyev: “xizmat” va “xizmat ko‘rsatish” tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Unda, “xizmat (usluga – service) - ijrochi bilan iste'molchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaning natijasi, shuningdek iste'molchining ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha ijrochining faoliyati” deya, “xizmat ko‘rsatish – obslujivanie – service – mijoz va hizmat ko‘rsatuvchi o‘rtasidagi aloqa (muomala)”[17] deb ta'riflagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha xizmat ko‘rsatish – bu, maqsadga erishish uchun iste'molchilarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligidan iboratdir. Servis – bu, iste'molchining

[14] Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.
[15] Мирзаев Қ.Д. Агросаноат иқтисодиёти. Монография. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. СамИСИ. –Т.: Иқтисод-Молия, 2013. – 212 б.
[16] O‘sha joyda.
[17] И.С.Тухлиев, М.Э.Пўлатов, А.Ш.Бердимуродов «Туризм атамаларининг изоҳли луғати». – Самарқанд: МЧЖ НАВРЎЗ ПОЛИГРАФ. –2021, 252 бет.

ehtiyojini qondirishga qaratilgan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan, arzon, sifatli hamda tez bajariladigan harakatlar ketma-ketligidir.

Ta'kidlash joizki, yaqin vaqtgacha servis xizmati moddiy ishlab chiqarish sohasida marketing nuqtai nazaridan ancha quyi darajada hisoblangan. Hozirgi vaqtda jahon tajribasiga koʻra, iqtisodiyotda tobora koʻproq servis xizmatiga ustuvorlik berilmoqda. Bozor iqdisodiyoti sharoitida servis xizmati koʻrsatishda marketing muammolariga qiziqishi yanada ortmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlardan ma'lumki xizmatlar moddiy hamda nomoddiy koʻrinishga ega ekanligi sababli oʻziga xos yondashuvni talab etadi. Moddiy xizmatlardan farqli ravishda, nomoddiy xizmatlar – ajralmas, oʻzgaruvchan va saqlanmaydigan belgilarga ega. Nomoddiy xizmatlarning bu belgilari oʻziga xos muammolar tegishli marketing strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Moddiy boʻlmagan xizmat koʻrsatish usullarini topish, samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifati va standartlashtirishni yaxshilash, talab oʻsib borayotgan va pasayib borayotgan davrda xizmatlarni taqdim etishni boshqarish mahoratini oshirish har bir xizmat koʻrsatuvchi korxonaning oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday ekan, bugungi kunda servis xizmati korxonalarning eng samarali va yuqori iqtisodiy natijadorlikka erishish usullaridan biri sifatida doimiy ravishda oʻz raqobatchilariga qaraganda yaxshiroq servis xizmatni taklif qilish imkoniyatiga egalidir. Buning uchun, servis xizmat koʻrsatuvchi korxonalar mijozlarining koʻrsatilgan servis xizmati sifatiga bergan bahosiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Tadqiqot natijalariga koʻra, servis xizmati iste'molchilarning tajribalari, reklama jarayonlarini tashkil etganligi va

boshqa bir qator omillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Aksariyat hollarda, iste'molchilar servis xizmati korxonalari haqida o‘zlarining tajriba va taxminlarini xizmat ko‘rsatilganidan so‘ng taqqoslaydilar. Agarda iste'molchiga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari, u kutayotgan darajada bo‘lmasa, uning sotuvchiga nisbatan bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi va aksincha, agarda iste'molchi kutayotgan servis xizmatlari ko‘rsatilsa, uning bunday xizmatlarga talabi ortadi.

Qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatishning bir nechta turlari mavjud (1.1-rasm).



1.1-rasm. Qishloqda servis xizmatlarining turlari[18]

Yuqorida bayon qilingan servis xizmatlari turlari asosida ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Qishloqda mahsulot sotishdan oldingi servis xizmatlari (yoki iste'molchilarning talabini qondirish servis xizmatlari). Ushbu servis xizmatida ishlab chiqaruvchi (o‘zining agentlari, dillerlari orqali) potensial xaridorlarning taklif etilayotgan mahsulotga bo‘lgan talablarini har tomonlama o‘rganadi. Texnik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlari hujjatlarni tayyorlashda, loyihalash va ishlab chiqish, sinov va baholash ishlarida qatnashadi. Tovarlar savdo nuqtalariga yetib kelganidan so‘ng, servis xizmati

[18]Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

xodimlari yuklarni tashishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etib uskunalarni o‘rnatishni amalga oshiradilar va ularni ish holatiga keltiradilar;

2. Qishloqda ishlab chiqaruvchi tomonidan ko‘rsatiladigan servis xizmatlarini amalga oshirishda xarid shartnomasi tuzilganidan (yoki xarid qilinganidan) boshlab tovar yetkazib berilgunga qadar iste'molchiga ko‘rsatiladigan servis to‘plami qamrab olinadi;

3. Qishloqda mahsulotlar sotishdan keyingi servis xizmati – o‘z ichiga mahsulotning butun hayot davomida mavjud sharoitda samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan servis xizmatlar majmuini qamrab oladi. Bunda sotishdan keyingi servis xizmatlari quyidagi asosiy faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi:

-mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida (asosiy iste'molchilar bilan birgalikda) iste'molchilarga servis xizmatlarga bo‘lgan talablarni aniqlash;

-sotilgandan keyin iste'molchiga ko‘rsatiladigan servis xizmatini aniqlash;

-sotishdan keyingi servis xizmat tartibini tovarni iste'molchiga yetkazib berish shartnomasi asosida belgilab olish;

-tovarlarni saqlash omborlari, ta'mirlash va zarur hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xodimlarni o‘qitish;

-iste'molchiga sotishdan keyingi servis xizmatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ehtiyot qismlar va vositalar bilan ta'minlashni tashkil qilish;

-iste'molchiga sotishdan keyingi servis xizmatlari ko‘rsatilishini boshqarish (rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, nazorat, motivatsiya, tartibga solish);

-sotishdan keyingi servis xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani tashkil etish;

-eski tovarlarni yangisiga almashtirib berish va eskisini yo‘q (utilizatsiya) qilish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Sotishdan keyingi servis xizmatlarini ko‘rsatish tovarlarga berilgan kafolat muddatlarida hamda kafolatdan keyingi muddatlarda servis xizmatiga bo‘linadi. Tovarga berilgan kafolat muddatlarida tovarni sotish shartnomasini belgilash jarayonida ko‘rsatilgan (tovarni yangisiga almashtirib berish, uni sozlab berish) shartli nosozliklar tufayli kelib chiqqan muammolar bartaraf etib beriladi. Tovarga berilgan kafolat muddatidan keyingi servislar esa, uskunalarni ishlab chiqaruvchi rejali profilaktika ishlarini olib boradi (ayniqsa tovarning ekspluatatsion muddati qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha tez-tez), joriy ta'mirlash, kapital ta'mirlash, ehtiyot qismlarini yetkazib berish, eng samarali foydalanish bo‘yicha maslahat beradi, uni modernizatsiya qiladi, xaridor xodimlarini uskuna bilan ishlashni o‘rgatadi.

Hozirgi kunda qishloqda sotishdan keyingi servis xizmatining eng jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan turi – bu, tovarning (uskunaning) holatini diagnostika qilishdir.

4. Qishloqda tovar iste'molchilariga axborot berish servis xizmati – ishlab chiqaruvchi tomonidan iste'molchilarga mahsulot va unga xizmat ko‘rsatish, axborot to‘plash, ishlov berish, saqlash va uzatishning texnik vositalari to‘g‘risida iste'molchilarga taqdim etadigan ma'lumotlar to‘plami bilan tavsiflanadi;

5. Iste'molchilarga moliyaviy va kredit servis xizmatlari – bu, iste'molchilarga xaridlar uchun to‘lovlar usullari to‘plami bo‘lib,

iste'molchilarga beriladigan chegirmalar va imtiyozlar tizimidan iborat. Bunga ko‘ra kreditning turli shakllari amalga oshiriladi, bular:

-qarzga berilgan qiymatga qarab: – tovar, naqd pullik va aralash;

-kredit oluvchining kimligiga qarab: – bank, tijorat tashkiloti, davlat, xalqaro, fuqarolik, ishlab chiqaruvchi, iste'molchilar tarkibi;

-kreditning shakllariga qarab: – to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita, aniq, yashirin, yangi va boshqa shakllarda ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, servis xizmatlarining tasniflanish belgilari ham mavjud bo‘lib ular quyidagicha (1.1-jadval).

Yuqorida keltirilgan servis xizmatlari bo‘yicha funksional vazifalardan kelib chiqib, qishloqda servis xizmat ko‘rsatish – bu, qishloqda tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va ularga servis xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida axborot berish, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish, almashtirish, tuzatish, qadoqlash bo‘yicha amalga oshiriladigan vazifalar majmuidir.

1.1-jadval

Qishloqda servis xizmatlarining tasniflanish belgilari[19]

1.	Manfaatdorlik bo‘yicha	- pullik servis xizmatlar; - bepul servis xizmatlar.
2.	Sohalar bo‘yicha	- savdo va umumiy ovqatlanish; - transport va aloqa; - sog‘liqni saqlash; - ta'lim; - mehmonxona servisi xizmatlari; - madaniyat va boshqalar.
3.	Joyiga ko‘ra	- iste'molchi joylashgan joyda; - ishlab chiqaruvchi joylashgan joyda; - vositachilik servis xizmatlari.
4.	Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi aloqa darajasi bo‘yicha	- o‘zaro aloqa darajasi yuqori bo‘lgan xizmatlar; - o‘rta darajadagi o‘zaro aloqa ko‘rsatadigan xizmatlar; - masofaviy xizmatlar.
5.	Istemolga yo‘naltirilganligi bo‘yicha	- ommaviy, jamoaviy xizmatlar; - shaxsiy (yakka shaxsga yo‘naltirilgan) xizmatlar.
6.	Xizmat ko‘rsatuvchining mulkchilik shakliga ko‘ra	- Davlat tashkilotlari xizmatlari; - xususiy korxonalar xizmatlari; - aralash korxona/tashkilot xizmatlari.
7.	Sezuvchanlik darajasi bo‘yicha	- nomoddiy xizmatlar; - moddiy elementlarning ulushi bo‘lgan xizmatlar.
8.	Murojaat davriga ko‘ra	- doimiy talab qilinadigan xizmatlar; - vaziyat talab qiladigan xizmatlar; - mavsumiy talab qilinadigan xizmatlar.
9.	Tabiati bo‘yicha	- asosiy xizmatlar; - qo‘shimcha yoki tegishli xizmatlar.
10.	Xaridorlar turi bo‘yicha	- ishlab chiqarishga ko‘rsatiladigan xizmatlar; - iste'molchiga (aholiga) ko‘rsatiladigan xizmatlar.

[19]Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarining to‘g‘ri tanlanganligi, birinchi navbatda tadbirkorlarga erkinliklarning kafolatlanganligi, iqtisodiyotni doimo modernizatsiya qilinish va tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda eng asosiysi servis xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi uchun qulay zamin yaratishi bilan ifodalanadi.

Respublikamiz aholisining o‘sishi bilan birga ularga servis xizmat ko‘rsatayotgan korxonalar soni ham o‘smoqda. Ayniqsa, qishloqlarda servis xizmat ko‘rsatib kelayotgan korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qishloqlardagi aholining servis xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan servis xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, qishloqda servis xizmatlarini samarali tashkil etish uchun aholining iste'mol qobiliyati va qaysi servis xizmatlariga talab mavjudligini chuqur o‘rganib chiqish muhim hisoblanadi.

Qishloqda servis xizmatlarini kelgusidagi taraqqiyoti uchun ularni ishlab chiqarish va ijtimoiy jihatlari bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir (1.2-rasm).



1.2-rasm. Qishloqda servis xizmatlarining turkumlanish tavsifi[20]

[20]Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida keltirilgan qishloqda servis xizmatlarining turkumlanish tavsifi bo‘yicha aholi yillik daromadlarining 65-70 foiz qismini aholi servis xizmatlarini iste'mol qilishga sarflaydilar. Shuning uchun ham, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sifatida chuqur tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki, respublikamizda mustaqillik davrida servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, 2017 yildan boshlab O‘zbekistonda servis xizmatlarini ko‘rsatish respublika darajasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, inson iste'mol tovarlarining eng asosiy qismini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish tashkil etadi. Bunday mahsulotlarning katta ulushini qishloqda yetishtirilishi va uni asosiy qismini servis xizmtlari asosida tashkil etilishini hisobga olgan holda, mahsulotlarni qayta ishlash va ularga mos servis xizmatlarini tashkil etish hamda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamizda va uning hududlarida servis xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qishloqda yashab kelayotgan aholiga talab doirasida servis xizmat ko‘rsatish imkoniyati yetarli darajada emasligi sababli iste'molchilarga ma'lum darajada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli qishloqda maqsadli servis xizmatlarini samarali tashkil etish va ayniqsa qishloqda aholining servis xizmat turiga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyoj va talabini qondirish uchun servis xizmat ko‘rsatishni markazlashtirilgan holda tashkil etish yuqori samara beradi.

Shuning uchun ham, biz nazariy jihatdan qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etishning mijozlar modelini taklif etdik (1.3-rasm).

Bizning fikrimizcha, ushbu nazariy model qishloqda tadbirkor va mijozlar o‘rtasida sog‘lom muhitni shakllantiradi hamda servis xizmatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi.



1.3-rasm. Qishloqda tadbirkor va mijozlar o‘rtasida servis xizmat ko‘rsatishning mijozlar modeli[21]

Agar tadbirkor yaxshi ishlangan mijozlar modeliga va g‘amxo‘rlik ko‘rsatadigan servis xizmat turiga ega bo‘lsa, servis xizmat ko‘rsatish faoliyati mukammal bo‘ladi. Demak, mazkur mijozlar modeliga ega bo‘lgan tadbirkorlar faoliyati samarali tashkil etiladi.

1.2.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi

Respublikamizda qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilash va turmush darajasini yanada oshirishni ifodalash maqsadida xizmatlar

[21]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzildi.

koʻlamini kengaytirish imkonini beruvchi servis xizmatlari koʻrsatkichlarining mazmun mohiyatini tadqiq etish talab etiladi.

Qishloqda iste'molchi ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalashda servis xizmatining sifat koʻrsatkichi muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, servis xizmat sifati – bu, qishloqda iste'molchining belgilangan yoki nazarda tutilgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini belgilovchi servis xizmatlari toʻplamini ifodalaydi.

Darhaqiqat, qishloqda servis xizmat koʻrsatish koʻp jihatdan iste'molchilarga servis xizmat koʻrsatish sifatiga bevosita bogʻliq hisoblanadi.

Servis xizmatlar iste'molchi bilan servis xizmat koʻrsatuvchi oʻrtasida tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq moddiy servis xizmatlar bilan ijtimoiy-madaniy servis xizmatlari oʻrtasidagi munosabatlarda koʻrsatilishi mumkin. Qishloqda servis xizmatlarining sifati shartnoma shartlari (bajarilgan ishlarning nomenklaturasi, muddatlar, ish sifatiga qoʻyiladigan talablar)ga muvofiqligi bilan baholanadi.

Taklif etilgan barcha servis xizmatlari qishloqda normativ talablarga muvofiq bajarilishi shart. Qishloqda servis xizmat koʻrsatuvchi davlat standartlari, texnologik reglamentlar, sanitariya, yongʻin qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan servis xizmat sifatiga, ularning hayoti, inson salomatligi, atrof-muhit hamda mulk uchun xavfsizligiga doir majburiy talablarga rioya qilinishi kerak.

Qishloqda servis xizmatning xususiyatlari, shuningdek, servis xizmat koʻrsatish sifatining oʻziga xos koʻrsatkichlari davlat organlari, korporativ muhit vakillari va iste'molchilar tomonidan keng qoʻllaniladi.

Alohida ta'kidlash zarurki, qishloqda servis xizmatlarining ishlab chiqarish, funksional va iste'mol xususiyatlari mavjud. Ishlab chiqarish xususiyatlariga ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va aniq jismoniy-texnik xususiyatlarga ega bo‘lganlar kiradi.

Servis xizmatlarning sifati ularning iste'mol xususiyatlari bilan belgilanadi va tovar sifatiga qaraganda ancha murakkab toifadir. Chunki, iste'molchi nafaqat servis xizmat natijasini, balki ba'zi hollarda servis xizmat ko‘rsatishning ishtirokchisini ham his qiladi. Masalan, bunday sharoitda moddiy tovarlarning aksariyati odatiy va standart iste'mol sharoitlari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, servis xizmatlar – iste'molchining shaxsiy holatini hisobga olgan holda individual ravishda taqdim etiladi.

Servis xizmatini baholashda servis xizmat ko‘rsatish quyidagi sifat ko‘rsatkichlarining shartlari tavsifi bilan izohlanadi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Servis xizmatiga qo‘yiladigan talablar[22]

[22]Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Servis xizmat sifati darajasini baholashda xizmat narxini, uni taqdim etish xarajatlarini tavsiflovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olish ham muhimdir.

Bunday iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan iqtisodiy xodisa va jarayonlarni miqdoriy tavsiflarini umumlashtirish kvalimetrik [23] usullar yordamida amalga oshiriladi: – o‘lchash, hisobga olish, baholash, analitik tenglama, analog konstruksiyalar.

Bunday ko‘rsatkichlar muayyan bir faoliyatni baholashda natural va nisbiylikni ifodalaydi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llay olish orqali ko‘rsatilayotgan servis xizmatlarining sifatiga baho berish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ularning ko‘rsatkichlarni ifodalashda bir qator tamoyillarni hisobga olish zarur bo‘ladi. Bunday tamoyillar quyidagilardan iborat:

A.Nomenklatura [24] va miqdor – tahlil qilinayotgan davr uchun qishloqda servis xizmatlarini belgilangan nomdagi va miqdordagi talabiga mos mijozlar sonini ifodalaydi;

B. Sifatli servis xizmat ko‘rsatish – servis xizmatini ko‘rsatishni tegishli standartlarga, bozor talablariga yoki xizmat ko‘rsatish shartnomasiga asosan iste'molchi talabiga javob berish darajasini tavsiflaydi;

[23]Kvalimetriya – (lot.quails-sifat, qadimiy yunonchametros-o‘lchov) ob’yekt, mahsulot, jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o‘zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog‘i. Garry G. Azgaldov. Alexander V. Kostin Alvaro E. Padilla Omiste. The ABC of Qualimetry. Toolkit for measuring theimmeasurable Ridero 2015. Pp 87.

[24]Номенклатура – (лот. nomenclatura – номлар, исмлар рўйхати) Ишлаб чиқариш, фан, техника, санъат ва ш.к. нинг бирор соҳасида қўлланадиган номлар, атамалар, терминлар ва шу номлар билан аталувчи нарсалар рўйхати ёки мажмуи. Ў 16 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – тартибли / Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 55 бет.

V. Belgilangan (normativ) huquqiy hujjatlarga muvofiqligi – qishloqda servis xizmatini ko‘rsatishda huquqiy tomonlarni hisobga olgan holda xizmatlarni belgilangan vaqtda bajarish yoki zarur hollarda uni amalga oshirish darajasini ifodalaydi;

G. Narx talabiga mosligi (ma'lum bir vaqt, miqdor va sifat jihatidan) – qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi va uni iste'mol qiluvchi talab hamda taklif qonuniyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarni (narxlarni) tavsiflaydi;

D. Xizmat ko‘rsatish ishonchliligi (ma'lum bir vaqt, miqdor va sifat jihatidan) – qishloqda servis xizmatini iste'molchi talabi asosida uning kafolatlangan xizmatni amalga oshirish darajasi bilan ifodalaydi.

Bundan tashqari, yuqori sifatli servis xizmatlarni ko‘rsatish belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iste'molchiga yordam berishga intilishi (iste'molchiga yordam berish va tegishli xizmatni ko‘rsatish istagi);

- ishonchlilik (servis xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning malakasi, javobgarligi, o‘ziga ishonch va xushmuomalalik);

- tovarlarni markalash va qadoqlashning sifat darajasi;

- tovar yoki xizmatlar uchun taqdim etilayotgan hujjatlarning to‘liqligi (ishonchliligi).

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda servis xizmat ko‘rsatishni doimo tahlil qilish va uni iste'molchiga mos rivojlantirish maqsadida servis xizmat ko‘rsatishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi ustida doim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Umuman olganda, servis xizmat ko‘rsatishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar – bu, servis xizmat ko‘rsatish jarayonida bo‘lgan,

bulayotgan va bo‘lishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni raqamlarda ifodalashdir.

Bozor iqtisodiyotining ushbu bosqichida ko‘pgina ko‘rsatkichlarda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish mezonlari hisobga olinmagan. Shu sababli, sifatni boshqarish va mijozlarga servis xizmat ko‘rsatish samaradorligi mezonlari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar va eksperemental sinovlarni talab qiladi.

Qishloqda servis xizmatlar sifatiga qo‘yiladigan talab doimiy mutlaq bo‘lmaydi. Aholining, ayniqsa o‘rta sinfga mansub insonlarning, moddiy farovonligi hamda madaniy darajasi o‘sib bormoqda. Bunday sharoitda ularning sifatli tovarlar xarid qilishga va sifatli servis xizmatlariga bo‘lgan talabi ham ortib boradi.

Qishloqda sifat ko‘rsatkichining asosiy vazifalaridan biri sifatida servis xizmat ko‘rsatish jarayonida xodimlarning ish faoliyatini nazorat qilib borish, sifat ko‘rsatkichlariga qo‘yilgan talablar asosida sifat nazoratini joriy qilish va ular faoliyatini baholab borish hisoblanadi. Qishloqda sifatli bo‘lgan servis xizmatlariga mijozlarning qiziqishi ortishini kuzatish mumkin. Ammo, servis xizmatlari sifati nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib u har bir mijoz uchun alohida yondashuvni talab etadi.

Aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatishda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlarning bilimi, professionallik darajasi, individual xususiyatlari, xayrixoxlik va diqqatlilik darajasi, sabrli bo‘lish qobiliyati, chidamlilik hamda zaddiyatli vaziyatlardan chiqib ketish kabi xususiy qobiliyatlar ham juda muhimdir. Bunday qobiliyatlarni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlarni servis xizmat ko‘rsatish jarayonida iste'molchi tomonidan servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yekt bilan o‘zaro munosabat jarayonida xis qiladi.

Shuning uchun, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni sifatli tashkil etishda puhta ishlab chiqilgan indikatorlar[25] tizimidan foydalanish zarur.

Qishloqda servis xizmatlari natijalarini baholash uslubiyati chet el tajribasiga ko‘ra takomillashtirilib, unga asosan respublika darajasida bir qator ko‘rsatkichlar jamlanmasi (indikatorlar) tizimidan foydalanish imkoniyati ilmiy asoslanildi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Qishloqda servis faoliyati samaradorligini baholash uslubiyati va uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi[26]

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Hisoblash yo‘llari	Mazmuni
1.	Qishloqda aholining servis xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan ta'minlanish darajasi (C).	$\mathbf{C}=\frac{\mathbf{10000}}{ck_i}\times\mathbf{100}$ Bunda: 10000 – kishiga to‘g‘ri keladigan xizmat; sk_i – servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalari soni, (i).	10000 kishiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalari soni bilan ta'minlanish darajasi.
2.	Servis korxonasi qishloq aholisining ehtiyojini qondirish koeffitsienti (sk).	$\boldsymbol{sk=\frac{n_i}{nb_i}}$ Bunda: n_i – joriy davrdagi mijozlar soni (i); nb_i – bazaviy davrdagi mijozlar soni (i).	Mijozlarning joriy davrdagi sonining, bazaviy davrdagi soniga nisbati. U 1 ga teng yoki 1 dan ortiq yoki 1 dan kichik bo‘lishi mumkin.
3.	Qishloqda servis infratuzilmasi (chet el tajribasidan kelib chiqib) bilan ta'minlanish darajasi (Sinf).	$\boldsymbol{Sinf=\frac{e_i}{m_i}\times 100}$ Bunda: e_i – qishloqda servis faoliyatidan foydalanayotgan (chet el tajribasi asosida) infratuzilma sub'yektlari soni; m_i – jami infratuzilma sub'yektlari soni.	Qishloqda servis faoliyatidan foydalanayotgan (chet el tajribasi asosida) infratuzilma sub'yektlari sonini jami infratuzilma sub'yektlari soniga nisbatidan iborat.
4.	Servis korxonasi mijozlarining, uning xizmatlaridan qishloq aholisining qoniqish darajasi (Q).	$\boldsymbol{Q=\frac{y_i-g_i}{y_i}\times 100}$ Bunda: y_i – mijozlarning umumiy soni, (i); g_i – xizmatlardan qoniqish hosil qilmagan (ko‘ngli to‘lmagan) mijozlar soni, (i).	Mijozlarning umumiy sonidan xizmatlardan qoniqish hosil qilmagan (ko‘ngli to‘lmagan) mijozlar soni ayriladi va olingan natija mijozlarning umumiy soniga bo‘linadi. Bu ko‘rsatkich servis xizmat ko‘rsatish korxonasidagi xizmatlarning xaridorlar talabiga mos kelgan-kelmaganligini ko‘rsatadi. Uning past yoki yuqori bo‘lishi servis xizmati sifatiga bevosita bog‘liq.

[25]Bu – iqtisodiy jarayon va xodisalarning qiymat va miqdoriy ifodasi.
[26]Tadqiqot natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

			1.2.-jadval davomi
5.	Qishloqda yangi mijozlar hissasining o‘zgarish darajasi (Ym).	$\mathbf{Ym}=\frac{ym_i}{um_i}\times\mathbf{100}$ Bunda: ym_i – yangi mijozlar soni, (i); um_i - umumiy mijozlar soni, (i)	Yangi mijozlarning joriy davrdagi hissasini umumiy mijozlar hissasiga o‘zgarishi.
6.	Qishloqda xizmatlar turlarining o‘zgarish darajasi(Ta).	$\mathbf{Ta}=\frac{tj_i¼}{tb_i¼}\times\mathbf{100}$ Bunda:$tj_i¼$– joriy davrda xizmatlar turlari soni, (i); $tb_i¼$– bazaviy davrda ko‘rsatilgan xizmatlar soni, (i).	Joriy davrda xizmatlar turlari sonining bazaviy davrdagi xizmatlar soniga nisbati.
7.	Qishloqda doimiy mijozlar hissasining o‘zgarish darajasi(Dm).	$\mathbf{Dm}=\frac{jd_i}{bd_i}\times\mathbf{100}$ Bunda: jd_i – joriy davrda doimiy mijozlar soni, (i); bd_i – bazaviy davrdagi mijozlar soni, (i).	Joriy davrdagi mijozlar hissasining bazaviy davrdagi hissasiga o‘zgarishi.
8.	Qishloqda mijozlarni xizmatni rad etish darajasi (Tq).	$\mathbf{Tq}=\frac{\sum x¼}{\sum t¼}\times\mathbf{100}$ Bunda: $\Sigma x¼$ – o‘rganilayotgan davr (yil, chorak, oy)da mijozlar tomonidan qaytarilgan xizmatlar hajmi, (%); $\Sigma t¼$ – sotilgan xizmatlarning umumiy hajmi, (%).	O‘rganilayotgan davr (yil, chorak, oy)da mijozlar tomonidan voz kechilgan xizmatlar hajmi (so‘mda), o‘sha davrda sotilgan xizmatlarning umumiy hajmiga (so‘mda) nisbati.
9.	Qishloqda servis aylanmasining o‘sish darajasi (Pa).	$\mathbf{Pa}=\frac{\Delta_{to}‘}{\Delta l}\times\mathbf{100}$ Bunda: $\Delta$to‘–servis aylanmasining o‘sish hajmi; Δl – servis xizmat ko‘rsatiluvchi aholining o‘sish miqdori.	Servis aylanmasi o‘sish sur'atining xizmat ko‘rsatiluvchi aholining (korxona servis xizmat ko‘rsatadigan hududda) o‘sish sur'atiga nisbati.

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, ta’kidlash joizki qishloqda servis xizmat ko‘rsatish natijalarini baholashda qishloq aholisiga servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning mavjudligi va ehtiyojlar asosida servis infratuzilmasi bilan ta’minlanish darajasi hisobga olindi. Shu sababli, tadqiqot jarayonida qishloq aholisining servis infratuzilmasi bilan ta’minlanishini baholash jarayonida bir qator xorijiy davlatlarning tajribasi chuqur o‘rganilib (Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya kabilar), ulardagi ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash uslubiyati asos qilindi. Natijada, tadqiqot ishida respublikamizdagi ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, qishloqda

servis infratuzilmasini ta’minlanish darajasini aniqlash bo‘yicha o‘ziga xos uslubiyati ishlab chiqildi.

Keltirilgan indikatorlar qishloqlarda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlar faoliyatini tashkillashtirish, servis korxonasining qishloq aholisining ehtiyojini qondirilishi, servis korxonalari xizmatidan foydalanuvchi qishloq aholi sonining ortib borishi, servis korxonasi mijozlarining, uning xizmatlaridan qishloq aholisining qoniqishi, qishloqda mijozlarni xizmatni rad etishi, qishloqda xizmatlar turlarining o‘zgarishi kabi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda keng foydalanish imkoniga ega bo‘linadi. Bundan tashqari, qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlarning faoliyatiga sifat nuqtai nazaridan baho berish imkoni bo‘ladi.

Shu bilan birga qishloqda servis faoliyati samaradorligini baholashni ifodalovchi boshqa indikatorlar tizimi ham mavjudki, ular orqali nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy samaradorlikni ifodalash ham mumkin (1-ilova).

Yuqorida keltirilgan qishloqda servis xizmat ko‘rsatish indikatorlar tizimini tegishli davlat tashkilotlari tomonidan amaliyotda qo‘llash orqali servis xizmatlarini hisobga olish va ulardan kelgusida rivojlantirish bo‘yicha hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalanish imkonini beradi.

1.3.-§.Qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish

Servis xizmatlarini samarali va sifatli tashkil etish, ayniqsa servis xizmatlarini rivojlantirish orqali qishloqda yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rgangan

holda respublikamiz amaliyotiga joriy qilish orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Shu bilan birga, qishloq aholisining ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rgangan holda qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi xorijiy korxonalar tajribasi muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar jarayonida aniqlandiki, iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda servis xizmatlaridan foydalanish uchun qishloq aholisi o‘zlarining yillik umumiy 55-70 foiz [27] daromadlarini servis xizmatlariga sarflaydilar.

Respublikamizda qishloqlarni rivojlantirish uchun chet elda samarali servis xizmatlarining turli sohalarini qo‘llash uchun barcha sharoitlar mavjudligini inobatga olgan holda chet el tajribalarini o‘rganib, qishloq aholisi uchun zarur bo‘lgan servis xizmatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qishloq joylarda va kichik qishloqlarni rivojlantirishning samarali strategiyasi uchun Yevropada[28] va Shimoliy Amerikada[29] 100 dan ortiq muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mamlakatlardan servis xizmati bo‘yicha tadqiqotlar o‘rganildi va quyidagilar aniqlandi:

1. Resurslardan foydalanish imkoniyati: – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va qurilish uchun yerlar, yovvoyi o‘simliklarni yig‘ish, mahalliy foydali qazilmalar (qum, ohaktosh, torf, toza suv manbalari), dam olish imkoniyatlari – noyob tabiiy joylarga yaqin;

Dunyo amaliyotida tabiiy resurslardan noyob foydalanish misollaridan biri, “Estoniya davlatining ishbilarmonlik uchun mutlaqo

[27] https://data.worldbank.org/indicator

[28] Франческо Мантино Сельское развитие в Европе Политика, институты и действующие лица на местах с 1970-х годов до наших дней. Совместное издание Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН и Business Media of the Sole 24 Ore. – FAO, 2010 (издание на русском языке). – 272 с.

[29] https://www.americanprogress.org/article/path-rural-resilience-america/
https://www.aspeninstitute.org/wp-content/uploads/2019/11/CSG-Rural-Devel-Hubs.pdf

yaroqsiz bo‘lgan botqoq, sersuv yerlardan sayyohlik marshrut (taxtali yo‘lakcha)lari yordamida foydalanish yo‘lga qo‘yilgan”[30]. Bu uslub orqali atrofdagi qishloqlarda yashaydigan aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratilib jozibali sayyohlik muxitini hech bir yangilanishsiz tashkil etishga erishilgan.

2. Tarix va madaniyat: – an'analar, milliy hunarmandchilik, unutilmas voqealar sodir bo‘lgan joylar, saqlanib qolgan qadimiy binolar;

Frantsiya va Italiyada qadimiy minoralar madaniy manba bo‘lib xizmat qiladi. “Qadimiy minoralarni ko‘rish maqsadida Frantsiyaga yiliga o‘rtacha miqdorda 89 mln.[31], Italiyaga esa 50 mln.ga”[32] yaqin turistlar keladi.

Germaniyada – “qishloq hayotining o‘ziga xos xususiyatlari, shahar aholisi fermer xo‘jaliklarida an'anaviy ishlarga qo‘shilishlari bilan ajralib turadi”[33].

3. Katta shaharlar yoki magistral yo‘llarning yaqin joylashganligi: – qulay joylashish rivojlanish uchun ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Ularga, birinchidan, ovqatlanish, mahalliy hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qilish; ikkinchidan, bu shaharlardagi aholini ishdan bo‘sh vaqtlarida qishloqlarga ishga jalb etish; uchinchidan, yaxshi logistika, yirik kompaniyalarning xarid qilish infratuzilmasini, saqlash ob'yektlarini, qishloqlardagi aholi yetishtirgan mahsulotlarni o‘sha joylarda qayta ishlashni aniqlash imkoniyatlarini yaratadi.

[30] https://www.visitestonia.com/ru/почему-эстония/рай-для-маленьких-первооткрывателей-туристические-тропы-эстонии – sayyohlik ma’lumotlari uchun rasmiy sayt.
[31] https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономика_Франции
[32] https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономика_Италии
[33] https://ru.wikipedia.org/wiki/Туризм_в_Германии

4. Gumanitar salohiyat: – qishloqlarda aholi punktlari, universitet (institut)larning fakultetlari, universitet (institut)larning filiallarini, qishloq xo‘jaligi bo‘limlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba yer maydonlarini, yirik korxonalari tomonidan tashkil etilgan kasbga o‘rgatish tugaraklarini tashkil etish samaralidir.

Misol qilib aytganda, “Finlyandiyadagi Xelsinki universitetining qishloq va o‘rmon xo‘jaligi fakulteti dars jarayonlarini tashkil etishda shaharlardagi o‘quv binolarida tashkil etilganligi, tadqiqotlar markazlarini esa qishloqlardagi fermer xo‘jaliklarida tashkil etilgan. Keyinchalik, qishloqdagi tadqiqot markazlari uchun ajratilgan qishloqda universitet shaharchasi, fakultet binolari, tadqiqotlar o‘tkazish uchun issiqxonalar, kutubxona, axborot markazi, yangi veterinariya fakulteti va boshqa yangi ta'lim olish uchun moslashtirilgan binolar qurilgan”[34].

Qishloqda ushbu asosiy omillarni rivojlantirish evaziga ijtimoiy servis xizmatlarning rivojlanishiga qulay muhit yaratilgan.

Ijtimoiy servis xizmatlarining asosiy vazifalaridan – ob'yektiv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish asosida sub'yektlar harakati modellarini optimallashtirish hisoblanadi. U insonlarning normal mehnat faoliyati va turmushini, dam olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu chet el tajribalaridan, respublikamiz, shu jumladan, Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqlardagi tabiiy resurslardan samarali foydalanishda qo‘llash mumkin. Ya'ni, qishloqlardagi yerlardan qishloq aholisi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish korxonalarini qurish, boy tabiatimizning manzarali joylarida dam olish oromgohlarini qurish (tog‘li

[34] https://ru.wikipedia.org/wiki/Факультет_сельского_хозяйства_и_лесоводства_Хельсинкского_университета

hududlarda kabel yo‘llar, suvli joylarda chumilish uchun plyaj, hayvonat bog‘lari, parklar va boshqa).

Respublikamizning har bir qishlog‘i o‘ziga xos madaniyat va urf-odatlari bilan bir-biridan keskin ajralib turadi. Bu o‘z navbatida ichki va chet el sayyohlari uchun juda qiziqarli hisoblanadi. An'anaviy bayram tadbirlarini o‘tkazish davomida qishloqlarga sayyohlar oqimini ko‘paytirish mumkin. Buni tashkil etishda, turistik korxonalari faoliyatidan keng foydalanish imkoni mavjud. Shu jumladan, o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlash maqsadida hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarga qiziqish uyg‘otib kelayotgan aholini qishloqlardagi xo‘jaliklarga amaliyotga taklif etish imkonidan foydalanish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholining shaxsiy avtotransport vositalari ko‘payganligini kuzatish mumkin. Ko‘pgina avto qatnov yo‘llarida tirbandliklar sodir bo‘layotganligi bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Aholiga viloyat, shahar, qishloqlararo qatnashda qulayliklarni yaratish maqsadida zamonaviy, katta avtomagistral (tez yurar) yo‘l servis xizmatlarini ko‘rsatish orqali ularning vaqt va avtomobil yoqilg‘ilariga ketadigan xarajatlarini tejash imkoniga ega bo‘lish mumkin. Bunday tranzit yo‘llar nafaqat mahalliy, balki chet el yuklarini tashuvchi, katta avtotransport vositalari uchun qulay bo‘lib, aholi punktlaridan alohidaligi bilan ajralib turadi hamda piyodalar uchun havfsizdir.

Mamlakatimiz gumanitar salohiyatini ko‘tarish maqsadida, oliy ta'lim muassasalarini, ularning filliallarini, tajriba, amaliyot o‘tash joylari va amaliyot o‘tash davomida vaqtincha yashab turish uchun talabalar turar joylarini qurish uchun joylarni ajratish mumkin. Bunday chet el tajribalarini

qishloqlarda qo‘llash servis xizmatlarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratib berishi bilan birga aholining ta'lim olish uchun ketadigan boshqa xarajatlarini tejashga imkon beradi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo‘lishicha, rivojlangan mamlakatlarda qishloqdagi kichik biznes korxonalarini hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish loyihalarini shakllantirish samaralidir. Ularning asosiy vazifalariga muvoffaqiyatli loyihalarga qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tarixiy obidalarni tiklash, iqtisodiy tsiklning qaytarilishi natijasida turizmni rivojlantirish va shu orqali qishloq aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada yaxshilashdan iborat.

Respublikamiz bo‘yicha qishloqda rivojlanishni samarali va intelektual muvoffaqiyatli loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘yidagi 3 ta asosiy yo‘nalishlarni hisobga olinishi kerak bo‘ladi (1.5-rasm).



1.5-rasm. Qishloqda rivojlanishni samarali va intelektual muvoffaqiyatli loyihalarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlar[35]

Qishloqlarni rivojlantirishda chet el tajribalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur: “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – o‘z ichiga, fermerlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va

[35] http://xn--80aplem.xn--p1ai/analytics/Mirovoj-opyt-razvitia-selskih-poselenij/

boshqalarni rivojlantirish, yangi korxonalarni tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash, milliy va chet el korxonalari bilan sherikchilik asosida qo‘shma korxonalarni yirik va o‘rta korxonalar shaklida qishloqda tashkil etishga jalb qilishni oladi. Bunda, faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash loyihalaridan, mahalliy aholining ehtiyojlari va marketing faoliyatining imkoniyatlaridan to‘liq hamda aniq axborotlarga ega bo‘lishi asosiy shart hisoblanadi;

Inson resusrlarini rivojlantirish – bu, qishloqlarni zamonaviy rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish o‘z ichiga kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, biznes va tadbirkorlikni rag‘batlantirishni shakllantirishni, qishloq aholisini marginallashtirishga qarshi kurashishni o‘z ichiga oladi;

Turmush sifatini ta'minlash – bu, muvoffaqiyatli tadbirkorlarni va ularning ishchilarini qishloqda qolishlarini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. U infratuzilma xizmatlari, transport vositalarining mavjudligi kabi ijtimoiy rivojlanishning barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi[36].

Qishloqda servis xizmatlari infratuzilmasini shakllantirishni o‘ziga xos jihatlari dunyoning ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, bu borada, qishloqda servis xizmatlari bo‘yicha yetakchi infratuzilmaga ega bo‘lgan AQSH tajribasi alohida ahamiyatga ega. “2018 yilda AQSHning Prezidenti D.Tramp o‘z oldiga AQSH infratuzilmasini yanada takomillashtirishni maqsad qilib qo‘ydi. D.Tramp AQSHda yangi pullarning 25 foizini, ya'ni 50 milliard dollar mablag‘ni qishloqlarda infratuzilmani foizsiz rivojlantirishga

[36]http://xn--80aplem.xn--p1ai/analytics/Mirovoj-opyt-razvitia-selskih-poselenij/

ajratishni taklif etdi. Bu misli ko‘rilmagan taklif. Uning taklifi kelgusi 10 yil ichida qishloqda infratuzilmani rivojlantirish uchun kamida 1,5 trillion dollarlik mablag‘ni sarflashni rag‘batlantiradi”[37].

AQSHning Kongressi Prezident D.Trampning taklifini qabul qildi. “Kongress tomonidan qabul qilingan taklif 2018 yilning mart oyida D.Tramp tomonidan tasdiqlanib, 2018 yilning byudjet rejasiga kiritildi va bu keng tarmoqli, mustahkam 600 million dollarlik investitsiyalardandir. Bu mablag‘lar Prezident tomonidan berilgan taklifning boshlang‘ich sarmoyasi sifatida xizmat qilib kelgusi oylar davomida uni takomillashtirish yuzasidan yana ko‘rib chiqiladi.

AQSHning qishloq xo‘jaligi vazirligi yuqorida qayd etilgan investitsiyalarni qishloq, shahar hamda qabilalarni elektron ulanish orqali boshqarishda keng tarmoqli aloqa xizmatlarni takomillashtirish maqsadida xarajat qiladi. Bugungi kunda AQSHning Federal aloqa xizmatlari komissiyasi ma'lumotlariga ko‘ra qishloqda yashaydigan 24 million AQSHlik oilalarning 80 foizi XXI asrning yuqori tezlikdagi internet aloqalariga ega emas. Bu AQSH uchun yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. AQSH qishloqdagi sanoat zonalarini va aholi punktlarini yuqori tezlikdagi elektron aloqalarni takomillashtirish orqali bundanda ham ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlarini, ipak, minerallar va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan o‘z davlatini hamda chet el mamlakatlarini tovarlar bilan ta'minlashga erishishi mumkin”[38].

AQSHda bunday turdagi keng tarmoqli elektron aloqalar dasturi qabul qilingandan so‘ng AQSHning qishloqlardagi korxonalari, fermer

[37] https://d-russia.ru/bajden-planiruet-podkljuchit-kazhdogo-amerikanca-k-shpd-k-koncu-desjatiletija-smi.html https://d-russia.ru/infrastrukturnyj-plan-trampa-vklyuchaet-razvitie-shpd-v-strane.html

[38] https://www.usda.gov/media/press-releases/2018/03/23/secretary-perdue-applauds-broadband-investment-included-omnibus

xo‘jaliklari, maktab va sog‘liqni saqlash idoralaridan yanada ko‘proq samaraga erishish imkoni tug‘iladi. Chunki, AQSH mavjud servis xizmat ko‘rsatish sohalarini an'anaviy usullaridan tashqari, masofaviy tarzda ham ko‘rsatib keladi. Bu, aholi va korxonalar uchun juda qulay bo‘lib, ular servis xizmatlaridan foydalanishda onlayn murojaat qilish yoki buyurtma berish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda “AQSH qishloqda faoliyat yuritib kelayotgan hamda istiqomat qilayotgan aholi qatlami uchun elektron aloqa vositalarini zamonaviy ko‘rinishlarini joriy etishga katta mablag‘ sarf etib, xizmat ko‘rsatish va axborot almashish sifatlarini yanada yaxshilashga erishishni maqsad qilib qo‘ygan”[39].

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishda va korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun sug‘urta xizmatlari alohida o‘rinni egallab kelmoqda. Ayniqsa, kichik biznesni turli xavf-xatarlardan sug‘urtalash ishlarini takomillashtirish zarur bo‘ladi. Biroq, tadqiqotlar natijasida kichik biznes sub'yektlari faoliyatini sug‘urtalash xavf-xatarning yuqoriligi sababli foydali emasligi ma'lum bo‘ldi. Shunga ko‘ra, minimal darajadagi tarif va soliq imtiyozlari yaratilgan kichik biznesni himoyalashga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan sug‘urta kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kichik biznesni ma'lum xavf-xatarlardan sug‘urtalashni ta'minlashning o‘ta muhim yo‘li bo‘lib notijorat asosida amal qiluvchi o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarini barpo etish hisoblanishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan ma'lum bo‘lishicha tadbirkorlar o‘z korxona (biznes)larini sug‘urtalash uchun o‘zlari intiladilar.

[39] O‘sha joyda.

Ular asosan “O‘zaro sug‘urtalash” tizimidan keng foydalanmoqdalar. Bunday sug‘urtalash jamiyatlari hozirda G‘arbiy Yevropada [40] keng tarqalgan.

O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari – bu, o‘z faoliyatini sug‘urtalash yo‘li orqali muhofazalash maqsadida tuzilgan huquqiy yoki jismoniy shaxslarning birlashmasidir. Bunday jamiyatni ta'sis etishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar bir vaqtning o‘zida uning egalari va sug‘urtalovchilari hisoblanadilar. Ular birgalikda mablag‘larni shakllantirish va foydalanish tartibini belgilaydilar. Zahira (kafolat) jamg‘armalari jamiyat a'zolari uchun investitsiya manbaiga aylanishi mumkin.

Sug‘urtalash kompaniyalari O‘zbekiston moliya tizimida ajralib turuvchi alohida, o‘ziga xos tuzilma hisoblanadi. O‘zbekistonda sug‘urta bozori rivojlanishining huquqiy asosi “Sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi. U, dastlab 1993 yil 6 mayda[41] qabul qilingan bo‘lib, uning yangi tahrirdagisi 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan[42].

2019 yil 2 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412 son Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

Respublikamizda sug‘urta tashkilotlariga davlat aktsiyadorlik sug‘urta kompaniyalari, xususiy sug‘urta kompaniyalari va respublika sug‘urta nazorati tashkilotlarini kiritish mumkin.

[40] https://ru.wikipedia.org/wiki/Взаимное_страхование
[41] https://lex.uz/docs/106047
[42] https://lex.uz/docs/40253

Mamlakatimizda servis xizmat ko‘rsatishni kafolatlash uchun sug‘urtalash xizmatlarini taklif etish yo‘li bilan aholi ishonchi qozoniladi. Jumladan, ayrim turdagi doimiy servis xizmatlarini ko‘rsatishda tuziladigan shartnomalarda sug‘urtalash xizmatlarini joriy qilish yo‘li bilan arzonlashtirilgan servis xizmatlaridan foydalanish imkoni mavjud.

Yevropa mamlakatlarida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish masalasi juda munozarali mavzu hisoblanadi. “Mamlakatlar, Yevropa komissiyasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qishloq aholisi, ekologik uyushmalar, siyosiy kuchlar va boshqalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi” [43] . Ushbu holatning asosiy sababi quyidagicha izohlanadi: – har xil sharoitlar tufayli yagona qishloq xo‘jaligi siyosati o‘ta noqulay muammoga aylandi. Bu holat Yevropa mamlakatlari uchun ikkita asosiy muammoni keltirib chiqardi: “Birinchidan, jamiyat byudjetining katta qismi sarflanishi (ayniqsa, turli mamlakatlarda asta-sekin kamayib borayotgan iqtisodiy faol aholi tarkibidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi aholining ulushi bilan solishtirganda). Ikkinchidan, asosiy raqobatchilarning fikriga ko‘ra, bunday siyosat oldiga qo‘yilgan maqsadlarga javob bermasligi”[44]. Raqobatchilarning fikriga ko‘ra yagona qishloq xo‘jaligi siyosatining asosiy maqsadi – bu, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini, ayniqsa kambag‘al va himoyasiz aholini himoya qilish uchun yaratilgan, ammo qo‘llab-quvvatlash asosan badavlat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari (yer va kapital) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Biroq, muammo nafaqat vaqt o‘tishi bilan yagona qishloq xo‘jaligi siyosatining atrof-muhit va iste'molchilar sog‘lig‘iga salbiy

[43]Франческо Мантино Сельское развитие в Европе Политика, институты и действующие лица на местах с 1970-х годов до наших дней. Совместное издание Продовольвственной и сельскохозяйственной организации ООН и BusinessMediaoftheSole 24 Ore. – FAO, 2010 (издание на русском язқке).-272 с.
[44] O‘sha joyda.

ta'siri paydo bo‘lishida, balki, bunga ma'muriy va byurokratik mexanizmlarning tobora ortib borayotgan ulushini qo‘shish mumkin.

Boshqarish funksiyalarini amalga oshirish uchun yuqori ma'muriy xarajatlarni keltirib chiqaradigan agrotexnika siyosati (kvotalar, ishlab chiqarishni cheklash, qishloq xo‘jaligini qisqartirish va boshqalar).

Ushbu muammolar vaqt o‘tishi bilan Yevropa mamlakatlari oldida turgan asosiy muammolardan biriga aylandi. Aynan shu sababli, “Yevropa mamlakatlari yagona qishloq xo‘jaligi siyosatining islohotlanishiga olib keldi”[45]. Shuni ta'kidlash joizki, islohotlarning eng muhim jihati – aynan o‘sha yagona qishloq xo‘jaligi siyosati doirasida qishloqni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan mahsulotlar bozorlarini va narxlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishdan iborat.

Yevropa mamlakatlari ichida Germaniya, Niderlandiya (Gollandiya) va Italiya davlatlari qishloqda servis xizmatlarini rivojlanishiga alohida e'tibor beradi.

Germaniya servis xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. “Dunyodagi eng yirik eksportyorlardan biri bo‘lib, 2017 yilda 1,448,17 milliard dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilgan. Servis xizmat ko‘rsatish sohasi yalpi ichki mahsulotning qariyb 70 foizini, sanoat 29,1 foizini, qishloq xo‘jaligi esa 0,9 foizni tashkil etadi”[46].

“Germaniya yuqori mahsuldor qishloq xo‘jaligiga ega, mamlakat undan unumli foydalanish maqsadida katta maydonlardan foydalanadi.

[45]Франческо Мантино Сельское развитие в Европе Политика, институты и действующие лица на местах с 1970-х годов до наших дней. Совместное издание Продовольвственной и сельскохозяйственной организации ООН и BusinessMediaoftheSole 24 Ore.–FAO, 2010 (издание на русском языке).-272 с.

[46] The world bank Group (jahon banki ma’lumotlari) – https://www.worldbank.org/

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (don va chorvachilik)ni ishlab chiqarishda Germaniya Fransiyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi va sut ishlab chiqarish bo‘yicha u Yevropa ittifoqida birinchi o‘rinda turadi. Agrosanoat majmuasida qishloq xo‘jaligi ajralmas qisimni egallaydi”[47].

“Germaniyada qishloq xo‘jaligining an'anaviy yondashuvi texnologik taraqqiyotni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining atigi 1-2 foizi mehnat qilishiga qaramay zamonaviy agrosanoat texnika va texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lib, Germaniya Federal Respublikasining ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichi boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga qaraganda ancha yuqori”[48].

“Germaniya hukumati Sharqiy Germaniya qishloq xo‘jaligini Yevropa hamjamiyatiga moslashtirish va integratsiyalashtirishning qiyin jarayonida moliyaviy yordam ko‘rsatmoqda. Jumladan, sobiq qishloq xo‘jaligi kooperativlarini raqobatbardosh firmalarga aylantirishda ham o‘z samarasini berishda ko‘mak ko‘rsatilmoqda: ayniqsa unumdor tuproqlarni qayta ishlash servis xizmatlarining yo‘lga qo‘yilganligi tufayli ko‘plab shaxsiy firmalar katta ekin maydonlari evaziga katta foyda olishlariga imkon berdi”[49].

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi qishloq aholisini qo‘llab-quvvatlash, qishloq aholisi o‘z tomorqa yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun ularning imkoniyatlarini hisobga olib o‘simlik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish mumkin. Buning uchun, mahalliy davlat

[47] https://ru.wikipedia.org/wiki/Сельское_хозяйство_Германии
[48] https://ru.wikipedia.org/wiki/Сельское_хозяйство_Германии
[49] https://ru.wikipedia.org/wiki/Сельское_хозяйство_Германии

organlarini jalb qilgan holda qishloq aholisiga kreditlarni taklif etgan holda ma'lum mahsulotni yetishtirishda ko‘maklashish maqsadga muvofiq.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tashqari, mamlakatda qishloq xo‘jaligi qo‘shimcha vazifalarni bajardi, ularning ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda. Bularga hayotning tabiiy asoslarini saqlab qolish va himoya qilish servis xizmatlari, turar-joy va massivlar uchun jozibali landshaftlarni muhofaza qilish servis xizmatlari, turar-joylarni joylashtirish (qurilish) servis xizmatlari, iqtisodiy joylashtirish va dam olish servis xizmatlari, sohaga qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetkazib berish servis xizmatlari kiradi.

“Yevropa Ittifoqi davlatlarining ichida Niderlandiya (Gollandiya)ning iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosan tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mamlakat eksportining 24 foizini tashkil qiladi. 2017 yilda Niderlandiya (Gollandiya)ning qishloq xo‘jaligi eksporti rekord darajaga – 91,7 milliard yevroga yetdi”[50].

Zamonaviy texnologiyalar va servis xizmat ko‘rsatishning yaxshi rivojlanganligi, mexanizatsiyalashganligi va yuqori mahsuldorligi sababli “Niderlandiya (Gollandiya) maydoni jihatidan dunyoda 131-o‘rinda turishiga hamda mamlakatdagi ish bilan band aholining atigi 2 foizi mehnat qilishiga qaramay oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda AQSHdan keyin 2 o‘rinda turadi”[51].

“Niderlandiya (Gollandiya) hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan “ikki barobar kam resurslar – ikki

[50] https://isrs.uz/ru/maqolalar/opyt-niderlandov-v-sfere-razvitia-selskogo-hozajstva
[51] O‘sha joyda.

barobar ko‘p oziq-ovqat” tamoyili, shuningdek punktli dehqonchilik (GPS va uchuvchisiz uchish apparatlari orqali) kabi dasturlari tufayli yaxshi natijalarga erishildi”[52].

“Niderlandiya (Gollandiya) hukumati organik qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik sohasidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, davlat subsidiyalari yordamida chiqindilarni qayta ishlash servis xizmatlari va tabiiy resurslarni tiklash bilan shug‘ullanadigan ko‘p funksiyali qishloq korxonalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Mamlakat agrosanoat majmuasidagi asosiy afzalliklardan biri – bu, bilim va texnologiyalarning joriy etilishidir”[53].

“Niderlandiya (Gollandiya)ning agrosanoat majmui asosan ushbu sohadagi barcha sub'yektlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadilar. Bunday sub'yektlarga – fermer xo‘jaliklari, ishlab chiqarish korxonalari, asbob-uskuna ishlab chiqaruvchi korxonalar, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi kichik, o‘rta va yirik korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalar hamda hukumat idoralari kiradi”[54].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ichida Italiya turizm servisi bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallaydi. “Qishloqda servis xizmatlarining yaxshi rivojlanganligi bilan mamlakat o‘z manzarali tabiati va tarixi bilan chet el fuqarolarini man etadi. Bundan tashqari, Italiyada qishloqdagi aholi o‘zini-o‘zi doimiy ish bilan band etish imkoniyatiga ega. Ular, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tashqari o‘zlariga tegishli hududlarni chet eldan tashrif buyurgan turistlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalarini ko‘rsatish, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish

[52] https://isrs.uz/ru/maqolalar/opyt-niderlandov-v-sfere-razvitia-selskogo-hozajstva
[53] O‘sha joyda.
[54] O‘sha joyda.

kabi servis xizmatlarni ham yil davomida ko‘rsatish bilan shug‘ullanishadi. Turistlar oqimining yillik yarmidan ko‘p qismini AQSH va Buyuk Britaniyaliklar tashkil etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, AQSH va Buyuk Britaniyalik turistlarni Italiyaning madaniyati, san'ati va ekologiyasi qiziqtiradi”[55].

“Italiyaning barcha hududlari, shu jumladan qishloqlar bo‘yicha ham temir yo‘l transporti yaxshi rivojlangan bo‘lib, temir yo‘ldan foydalanish uchun barcha qulayliklar va sharoitlar mavjud. Mamlakatda agrosanoat texnikalarini ta'mirlash servis xizmatlari, agrotexnikalarni xarid qilish dillerlik kompaniyalari yaxshi rivojlangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda qayta ishlab chiqarish bevosita ular orqali amalga oshiriladi”[56].

Hozirgi kunda “Italiyada turizmning quyidagi ko‘rinishlari yaxshi rivojlangan: - Ekskursiya xizmatlari, dengiz, ko‘llar va tog‘li hududlarda dam olish, chang‘i uchish turizmi, sog‘liqni tiklash, bolalar, voqeali (voqea sodir bo‘lgan holatlarni takrorlab beruvchi turizm ko‘rinishi), biznes, agroturizm, gastronomik, sport turizmi, diniy-ziyoratli”[57].

“Italiyada “Agroturizm” xizmatlari dasturi mavjud bo‘lib u o‘ziga nafaqat chet el, balki ichki turistlarni ham jalb qiladi. Ushbu dastur bo‘yicha turistik kompaniyalar oldin fermer xo‘jaligi bilan shug‘ullangan korxonalar bilan shartnomalar tuzishadi va turistlarni ularga olib kelishadi. Turistlar ushbu fermer xo‘jaliklarida pishloq va vino ishlab chiqarish jarayonida

[55]https://ru.wikipedia.org/wiki/Туризм_в_Италии
Галкина Т.А., Красновская Н.А. Италия. Серия "У карты мира". — М., Мысль,1985.www.initaly.com
[56]https://ru.wikipedia.org/wiki/Италия
Галкина Т.А., Красновская Н.А. Италия. Серия "У карты мира". — М., Мысль,1985.www.initaly.com
[57]Галкина Т.А., Красновская Н.А. Италия. Серия "У карты мира". — М., Мысль,1985.www.initaly.com

bevosita qatnashadilar (o‘rganishadilar). Bu dastur aynan AQSHlik turistlar orasida alohida qiziqish uyg‘otadi”[58].

Italiya davlatining turizm servis xizmatlarini ko‘rsatish tajribasini respublikamizda ham tashkil etish uchun qulay muhit mavjud. Buning uchun, qishloqda mavjud o‘ziga xos jihatlarini tashkil etish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

“So‘nggi 20 yil ichida qishloqlarning urbanizatsiyalanishi natijasida Yaponiya davlatida qishloq aholisining keskin kamayish kuzatilmoqda. Aholining ortishi natijasida ko‘p qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ajratilgan yerlarda zamonaviy turar-joylar qurilmoqda. Eski qishloqlarda zamonaviy ko‘rinishdagi shaharlar, zavod va fabrikalar barpo etilmoqda”[59].

Yaponiya servis xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha va texnik-texnologik jihatdan dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Ammo, shunga qaramay qishloq aholisi zamonaviy ko‘rinishdagi ishlov berishdan ko‘ra, an'anaviy qo‘l va uy hayvonlari mehnatidan foydalanishga harakat qiladi.

“Yaponiyada fermer xo‘jaliklari ikki toifaga bo‘linadi: birinchi toifaga o‘z ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar kirsa, ikkinchi toifaga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish maqsadida yetishtiruvchilar kiradi”[60]. Qishloq xo‘jaligi texnikalari faqatgina katta fermer (sotish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi) xo‘jaliklarida ishlatiladi. Ularning texnika va texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojlari turli konsalting va dillerlik kompaniyalari orqali qoplanadi. Ishdan chiqgan texnika vositalarini ko‘pincha ta'mirlash emas, balki

[58]Галкина Т.А., Красновская Н.А. Италия. Серия "У карты мира". — М., Мысль,1985.www.initaly.com
[59]https://ru.wikipedia.org/Население_Японии
https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономика_Японии
[60]https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономика_Японии

yangisiga almashtirib berishni ma'qul ko‘rishadilar. Mamlakat aholisining o‘sishi natijasida turar-joylarga doimo ehtiyoj yuqori turadi.

Ma'lumki Yaponiya sanoat ishlab chiqarishi bilan yetakchi o‘rinni egallaydi. Ammo, respublikamizda ham qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish yaxshi rivojlanmoqda. Ammo, qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash servis xizmatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ta'mirlash servis xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning yo‘qligi yetishtirayotgan mahsulotlar sifatiga ta'sir ko‘rsatmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida “qishloq aholisi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda katta qishloq xo‘jaligi texnikalaridan ko‘ra arzon va kichik texnikalardan foydalanishni ma'qul ko‘radi. Ularda mahsulotlarni qayta ishlash servis xizmatlari yaxshi rivojlangan va qishloqda yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash uchun barcha servis xizmat turlari mavjud”[61].

“Xitoy Xalq Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sug‘orish, yerga sifatli ishlov berish texnika va texnologiyasi yaxshi rivojlanganligi munosabati bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qiyinchiliklar deyarli mavjud emas. Fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun sug‘orish, avtomobil, elektron savdo, konsalting, yuk tashish kabi servis xizmatlar yahshi rivojlangan”[62].

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, qishloqda servis xizmatidan foydalanishning o‘rni beqiyos. Uning iqtisodiy ahamiyatidan tashqari siyosiy, madaniy va ma'rifiy ahamiyati ham juda katta. Ammo, ularda servis xizmat ko‘rsatish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘plab tashkiliy tadbirlarning qo‘llanilishiga qaramasdan, ularning nazariy va

[61] https://ru.wikipedia.org/wiki/Сельское_хозяйство_Китая
[62] https://ru.wikipedia.org/wiki/Сельское_хозяйство_Китая

amaliy jihatlari to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois, tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqib ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar berildi:

1. Qishloqlarni rivojlantirish uchun hudud imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda samarali rivojlanib kelayotgan servis xizmat ko‘rsatishni tashkillashtirish qishloqlardagi aholining ish bilan bandligini ta'minlashga, sohalarda innovatsion xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga, yangi ish o‘rinlarining ochilishiga xizmat qiladi. Bunda, Yaponiya, Xitoy, AQSH va boshqa Yevropa mamlakatlarining ilg‘or tajribalarini o‘rganib, mamlakatimiz bo‘yicha qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratishga erishish mumkin.

2. Mazkur monografiya mavzusi doirasida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlarida keltirilgan ta'rif hamda fikr-mulohazalarini tanqidiy, ijodiy va atroflicha o‘rganish asosida raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq “xizmat”, “xizmat ko‘rsatish”, “servis” tushunchalarining iqtisodiy mohiyati ochib berildi hamda mualliflik ta'riflari yoritib berildi.

3. Bizning fikrimizcha xizmat ko‘rsatish deganda, maqsadga erishish uchun iste'molchilarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligi. Servis – bu, iste'molchining ehtiyojini qondirishga qaratilgan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan, arzon, sifatli hamda tez bajariladigan harakatlar ketma-ketligidir. Ushbu ta'riflar nazariy hamda uslubiy jihatdan asoslab berildi.

4. Tadqiqotlar jarayonida, servis xizmat ko‘rsatishning turlari, guruhlar kesimida tavsiflanishi va tasniflanishiga ko‘ra bo‘linishi keltirildi.

Jumladan, qishloqda ko‘p talab etilayotgan va qishloq aholisi tomonidan foydalanib kelinayotgan servis xizmatlari aniqlandi.

5. Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish ko‘p jihatdan ko‘rsatkichlar tizimiga bog‘liq bo‘lganligi sababli mazkur ishda qishloqda servis faoliyati samaradorligini baholash uslubiyati va uni ifodalovchi iqtisodiy va ijtimoiy indikatorlar tizimi takomillashtirildi.

6. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishning rivojlanganlik darajasi aholi va korxona yoki tashkilot o‘rtasidagi munosabatlarni izohlaydi. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni sifatli tashkil etish uchun iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, Yevropa va Shimoliy Amerika tadqiqotchilari tomonidan tuzilgan qishloqlarni rivojlantirishning samarali strategiyalaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

II BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

2.1.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va uni rivojlanishining hozirgi holati

Mamlakatimiz aholisining o‘sishi bilan birga servis xizmatlariga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda qishloqdagi aholining servis xizmatlariga bo‘lgan turli xil ehtiyojlarini sifatli qondirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, olib borilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish sharoitida hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini ham yanada rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida belgilab berildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 mayda “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113 son Qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirishda maqsad va vazifa “Xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko‘paytirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammoli masalalarni hal qilish, mazkur yo‘nalishda tadbirkorlik sub'yektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash,

ularning g‘oya va tashabbuslarini rag‘batlantirish”[63]lar keltirildi. Mazkur farmon va qarorlarning qabul qilinishi mamlakatimiz hududlarida xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlanishini ta’minlashga qaratilayotgan e’tibordan dalolat berib, xizmatlar bozo–rida ularning zamonaviy turlarini kengaytirishga yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida respublikamizning hududlarida xizmatlar ko‘rsatish hajmini ortishi ko‘zga tashlandi (2.1-jadval).

Quyidagi 2.1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatining hududlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2021 yilda 18656,7 mlrd. so‘mga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar 2012 yilda 3080,7 mlrd. so‘m bo‘lgan. 10 yil oralig‘ida Samarqand viloyatida ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi 2021 yil 2012 yilga nisbatan 15576,0 mlrd. so‘mga, ya'ni 6,0 marta ko‘paygan. Ammo, ushbu ko‘rsatkichlar pul birligida bo‘lganligi tufayli ular miqdorining ortishiga inflyatsiya darajasining ta'siri ham mavjud. Chunki, 2012 yilda ko‘rsatilgan bir xil turdagi xizmat narxi 2021 yilga nisbatan oshganligi tabiiy holatdir.

Bundan tashqari, 2021 yilda mamlakatimiz hududlarida yangi turdagi servis xizmatlari rivojlanib borganligi ham o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda. Xulosa qilganda, respublikamizda xizmat ko‘rsatish turlarining ko‘payganligi sababli ularning hajmi ham ortganligini kuzatishimiz mumkin.

[63]https://lex.uz/docs/5421233

2.1-jadval

Respublika hududlari bo‘yicha xizmatlar hajmi dinamikasi[64]

(mlrd. so‘m hisobida)

T/r	Hududlar	Yillar										2021 yilda 2012 yilga nisbatan	
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	(+;-)	%
	O‘zbekiston Respublikasi	44386	55872,8	68032,1	78530,4	97050	118811	150889,8	193697,8	219978,5	283301,6	238915,6	6,0 m.
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1350,1	1710,4	2148,1	2550,3	3100,5	3611,3	4600,2	5671,8	6520,3	8307,4	6957,3	6,0 m.
	viloyatlar:												
1.	Andijon	2365,1	3092,2	4009,1	4684,5	5765,9	6627,2	8011,5	9803,8	11413,0	14970,5	12605,4	6,0 m.
2.	Buxoro	1844,6	2407,7	3045,6	3751,2	4756,1	5421,1	6631,6	8413,2	9843,1	12722,2	10877,6	7,0 m.
3.	Jizzax	818,1	1034,8	1324,5	1727,0	2155,3	2530,8	3283,2	4305,1	5024,7	6419,0	5600,9	8,0 m.
4.	Qashqadaryo	2003,6	2642,6	3391,1	4058,9	5137,6	5859,7	7064,1	8800,9	10349,5	13262,4	11258,8	7,0 m.
5.	Navoiy	1138,8	1399,6	1763,1	2067,5	2593,8	3068,4	3925,6	5056,2	5840,5	7442,5	6303,7	6,5 m.
6.	Namangan	1784,5	2292,3	2961,2	3320,6	4408,1	4999,2	6067,7	7747,6	8928,6	11786,8	10002,3	7,0 m.
7.	Samarqand	3080,7	3983,4	5065,9	5832,9	7200,5	8343,2	10043,5	12786,8	14086,1	18656,7	15576,0	6,0 m.
8.	Surxondaryo	1450,8	1918,0	2471,4	3067,8	3845,3	4485,5	6079,6	6981,9	8013,9	10387,2	8936,4	7,0 m.
9.	Sirdaryo	622,5	746,8	915,8	1103,1	1355,6	1603,8	2031,4	2726,8	3303,0	4283,2	3660,7	7,0 m.
10.	Toshkent	3473,3	4428,7	5529,5	6445,7	8112,9	9347,4	11292,9	14568,4	16438,3	21544,5	18071,2	6,0 m.
11.	Farg‘ona	2707,0	3532,0	4472,8	5256,0	6670,7	7602,2	9237,9	11684,1	13694,4	17810,1	15103,1	6,5 m.
12.	Xorazm	1379,7	1788,0	2190,7	2548,6	3119,0	3645,5	4562,8	5763,3	6461,2	8368,6	6988,9	6,0 m.
13.	Toshkent sh.	13381,8	16290,8	19779,7	23108,6	29472,7	38659,9	50176,2	65759,2	79879,3	103909,7	90527,9	8,0 m.

Izox: *M. – marta.*

[64] Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2012-2021 yil axborotnomasi asosida muallif tomonidan tuzildi.

Servis xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini tashkil etish, tabiiyki, ularning servis xizmatlari faoliyatini yo‘lga quyuvchi tuzilma mavjudligi bilan bog‘liq. Bunday tuzilmalarning yaxshi rivojlanganligi servis xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarni yangi servis xizmatlarini tashkil etish uchun qulay bo‘lishi bilan birga servis xizmatlariga iste'molchilarning talabini qondirishda keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib servis xizmatlarini sifatli tashkil etish uchun tuzilmaning asosiylaridan quyidagilarni ajratib olishimiz mumkin:

– elektron tijorat bo‘yicha internet tarmoqlarining sifatli tuzilmasi;

– tadbirkorlik sub'yektlarining elektron platformasi;

– servis xizmatlari bo‘yicha to‘liq ma'lumotlar va mutaxassislarning mavjudligi.

Servis xizmat ko‘rsatish turlarining ortishiga qaramasdan mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmatlarning ulushi yillar davomida passiv o‘sish sur'atlariga ega (2.2-jadval). Shu o‘rinda, xizmatlar sohasining passiv rivojlanishi – bir tomondan ularni rivojlantirishda keng qamrovda ishlarning amalga oshirilmayotganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan yashirin iqtisodiyot tufayli barcha xizmat turlarining milliy hisoblarda keltirilmaganligi sabab bo‘lishi mumkin.

2.2-jadval

Respublika hududlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘sish sur'atlari[65]

(foizda)

T/r	Hududlar	Yillar										2021 yilda 2012 yilga nisbatan o‘zgarish (+;-)
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
	O‘zbekiston Respublikasi	114,7	114,4	114,2	113,4	114,7	110,7	108,9	113,2	103,0	119,2	4,5
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	109,5	114,8	119,6	118,5	113,2	108,3	113,2	112,8	106,1	119,3	9,8
	Viloyatlar:											
1.	Andijon	118,2	123,2	120,7	119,4	115,8	105,3	107,2	110,9	105,6	121,3	3,1
2.	Buxoro	118,3	120,4	119,8	116,4	115,6	104,6	108,6	113,3	106,1	119,4	1,1
3.	Jizzax	120,0	119,4	118,7	119,4	117,0	106,7	114,3	117,5	105,9	118,1	-1,9
4.	Qashqadaryo	121,7	121,6	119,9	117,0	118,1	104,5	106,6	111,1	106,7	118,4	-3,3
5.	Navoiy	115,0	116,1	120,2	117,4	115,8	108,0	111,4	115,2	105,8	118,0	3,0
6.	Namangan	120,3	119,1	121,6	117,8	124,4	103,6	107,6	113,3	103,8	121,4	1,1
7.	Samarqand	121,0	122,1	120,1	115,2	113,9	106,4	107,3	112,4	101,0	121,6	0,6
8.	Surxondaryo	123,2	120,5	123,4	117,7	116,6	105,8	119,2	103,8	104,5	120,1	-3,1
9.	Sirdaryo	118,2	116,4	118,5	118,2	116,7	107,7	112,1	121,5	110,7	121,5	3,3
10.	Toshkent	115,6	118,4	117,2	113,2	116,9	105,1	107,0	113,4	102,0	120,0	4,4
11.	Farg‘ona	118,6	121,5	120,3	118,1	117,7	104,9	108,0	113,0	105,3	120,0	1,4
12.	Xorazm	118,3	121,8	115,9	115,4	115,9	108,2	110,1	113,4	101,5	119,6	1,3
13.	Toshkent sh.	116,6	112,8	116,1	117,3	119,9	118,0	110,9	115,6	108,2	120,4	3,8

[65] Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2012-2021 yil axborotnomasi asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2012 yilda 114,7 foizni tashkil etib, 2021 yilda 119,2 foizga oshgan. 2021 yilda 2012 yilga nisbatan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 4,5 foizga ko‘paygan. Hududlar bo‘yicha 2021 yilda 2012 yilga nisbatan o‘zgarish Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘lib, u 9,8 foizga oshgan. 2021 yilda 2012 yilga nisbatan eng kam o‘zgarish Qashqadaryo viloyatida bo‘lib, u -3,3 foizga kamayganligi kuzatildi. Shu bilan birga, Samarqand viloyatida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2012 yilda 121,0 foizni tashkil etib, 2021 yilda 121,6 foizga yetgan. 2021 yilda 2012 yilga nisbatan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,6 foizga oshgan.

Respublikamiz yalpi ichki mahsuloti va Samarqand viloyatida yalpi hududiy mahsulot tarkibi so‘nggi 5 yildagi ma'lumotlar asosida o‘rganilganda xizmatlar sohasining ulushi quyidagicha bo‘lgan (2.1-rasm).



2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining YAIM va Samarqand viloyatida YAHM tarkibida xizmatlar sohasining o‘zgarish dinamikasi (foizda)[66]

[66]O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2017-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, 2017-2021 yillarda YAIM tarkibida xizmatlar sohasi ulushining kamayishi respublikamizda statistik ma'lumotlarni yuritish, ularni hisoblash va tarkibini kengaytirish ishlari amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Samarqand viloyatida servis xizmatlarini tashkil etish uchun keng imkoniyatlarning mavjudligiga qaramasdan YAHM tarkibida xizmatlarning o‘sish dinamikasi talab darajasida emas. Bu esa, servis xizmatlarining qishloqda yetarli darajada rivojlanmaganligini va aholi ehtiyojlarining qondirilmaganligidan dalolat beradi.

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar soni ortib borishi, yangi turdagi servis xizmat ko‘rsatishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda xizmat ko‘rsatish hajmi va uning so‘nggi 5 yil ichida o‘sish sur'atlari tahlil qilindi (2.3-jadval).

2.3-jadval

Samarqand viloyatining qishloqlarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi o‘zgarishi[67]

(mlrd. so‘mda)

T/r	Tuman	Yillar					2021 yilda 2017 yilga nisbatan	
		2017	2018	2019	2020	2021	(+;-)	%
1.	Bulung‘ur	202,4	232,0	344,0	384,8	502,6	300,2	248,3
2.	Jomboy	213,5	253,1	576,5	667,4	855,0	641,5	400,5
3.	Ishtixon	212,9	253,2	499,8	536,9	676,8	463,9	317,9
4.	Kattaqo‘rg‘on	197,7	231,6	498,8	607,1	764,4	566,7	386,6
5.	Narpay	187,3	222,8	452,6	494,9	628,6	441,3	335,6
6.	Nurobod	188,6	215,0	272,1	289,3	360,4	171,8	191,1
7.	Oqdaryo	200,1	235,0	418,4	506,5	654,3	454,2	327,0
8.	Payariq	254,7	296,7	902,3	904,3	1149,7	895,0	451,4
9.	Pastdarg‘om	254,7	296,7	902,3	904,3	1149,7	895,0	451,4
10.	Paxtachi	161,5	183,2	263,9	330,4	412,8	251,3	255,6
11.	Samarqand	306,7	368,9	862,9	918,8	1172,6	865,9	382,3
12.	Tayloq	219,4	251,9	570,2	631,4	867,7	648,3	395,5
13.	Urgut	245,0	282,6	924,9	924,6	1195,2	950,2	487,8
14.	Qo‘shrobot	161,3	183,4	272,5	295,3	370,8	209,5	229,9
Jami:		**2953,1**	**3442,7**	**7317,5**	**8015,4**	**10288,3**	**7335,2**	**348,4**

[67] Jadval Samarqand viloyati statistika boshqarmasining 2017-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://www.samstat.uz/uz/

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, tumanlar kesimida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha eng ko‘p o‘sish Urgut tumanida bo‘lib 2021 yilda 1195,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu, 2021 yilda 2017 yilga nisbatan olinganda 950,2 mlrd. so‘mga oshib, 4,9 martaga ko‘p o‘sgan. Eng kam ko‘rsatkich Nurobod tumanida bo‘lib 2021 yilda 360,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu, 2021 yilda 2017 yilga nisbatan olinganda 171,8 mlrd. so‘mni, ya'ni 2,0 marta o‘sish kuzatilgan. Jami qishloqda 2021 yilda 2017 yilga nisbatan olinganda 7335,2 mlrd. so‘mlik xizmat ko‘rsatilib, 3,5 barobar o‘sishni tashkil etgan.

Tahlil qilingan 2020-2021 yillar o‘rtasi boshqa yillarga nisbatan o‘sish sur'atlarining yuqori ko‘rsatkichlarini tashkil etilganligi sabablari o‘rganilganda, 2020 yilda mamlakatimizda koronavirus (COVID-19) kasalligining tarqalishi bilan birga servis xizmat ko‘rsatish sub'yektlari tomonidan ko‘rsatilgan servis xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarning ortishi aniqlandi.

Ma'lumki, xizmat ko‘rsatishni servis darajasiga oshirishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularni doimo modernizatsiya qilish va innovatsiyalardan keng foydalanish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, mavjud servis korxonalarini modernizatsiya qilish, bugungi kunda, qaysi servis xizmatlariga ehtiyojlarning o‘sishiga qarab ularni yanada rivojlantirishga alohida yondashish va aksincha, ehtiyojlarning kamayishiga qarab ularning sabablarini o‘rganish hamda ularni tugatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotlarimiz jarayonida servis xizmat ko‘rsatish holatini Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida aynan qaysi xizmatlar sohasiga e'tibor qaratilganligi o‘rganildi. Unga ko‘ra, Samarqand viloyatida ko‘rsatiladigan servis

xizmatlarning asosiy turlariga: – transport xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlar, yashash va ovqatlanishni tashkil etish xizmatlari, kompyuter va maishiy texnika tovarlarini ta'mirlash xizmatlari, shaxsiy xizmatlar, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, ijara va prokat xizmatlari, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar va boshqalar kiradi.

Samarqand viloyatida 11 ta turdagi asosiy servis xizmatlari turlarini rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Ammo, tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, qishloqda servis xizmatlariga bo‘lgan bozor ehtiyoji asosida chuqur o‘rganish taqozo etiladi.

Shunday ekan, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish holatining tahlili natijalariga asosan, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi tahlili dinamikasi aniqlandi (2.4-jadval).

2.4-jadval

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanish holatining tahlili[68]

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2021 yilda 2017 yilga nisbatan	
		2017	2018	2019	2020	2021	(+;-)	%
1	Xizmatlar hajmi (trln. so‘m)	8,3	10,1	12,8	14,1	18,7	10,4	225,3
2	Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming. so‘m)	2263,5	2671,6	3196,9	3659,8	4676,4	2412,9	206,6

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, Samarqand viloyatida xizmatlar hajmi 2021 yilda 18,7 trln. so‘m, ya'ni 2017 yilga nisbatan qariyb 2,3 martaga oshgan. Aholi jon boshiga

[68] Jadval Samarqand viloyati statistika boshqarmasining 2017-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi. https://www.samstat.uz/uz/

ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2021 yilda 4676,4 ming so‘m, ya'ni 2017 yilga nisbatan 2,0 martadan ko‘proq o‘sganligi kuzatilgan. Bunday holatni Samarqand viloyatida servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining ortishi va aholi servis xizmatlaridan foydalanishining ortishi bilan izohlash mumkin.

Samarqand viloyati kesimida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida, qishloqlardagi servis xizmatlarining rivojlanishi 2017-2021 yillarda vizual holatda o‘rganildi. Ushbu davr mobaynida tadbirkorlik sub’yektlarini davlat tomonidan qullab-quvvatlanishi va mamlakatimizda servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarning amalga oshirilayotganligiga qaramasdan hududlar imkoniyatidan samarali foydalanilmayotganligi, aholi jon boshiga to‘g‘ri kelayotgan xizmatlar hajmini pastligi aniqlanildi.

Samarqand viloyatida qishloqdagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmini aniqlash maqsadida 2017-2021 yillarda Samarqand viloyati statistika boshqarmasi va bo‘limlaridan olingan ma'lumotlar asosida tadqiqot olib borildi (2.5-jadval).

2.5-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatilishining rivojlanishi tahlili[69]

T/r	Hududlar	Jami ko‘rsatilgan servis xizmatlari hajmi (aholi jon boshiga nisbatan dinamikasi, ming so‘m)					2021 yilda 2017 yilga nisbatan qishloq aholi jon boshiga servis xizmatlari hajmining o‘zgarishi	
		2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil		
Jami tumanlarda		***5269880,7***	***6371231,7***	***7829847,5***	***9163407,2***	***11916402,5***	***6646521,8***	***226,1***
1.	Oqdaryo	208468,4	251664,7	310738,7	361588,2	473719,3	265250,9	227,2
2.	Bulung‘ur	313947,5	378832,9	465788,3	540186,5	704265,8	390318,3	224,3
3.	Jomboy	285427,4	347040,8	426466,5	498830,7	657501,8	372074,4	230,4
4.	Ishtixon	396112,5	480888,0	582794,9	682918,7	902077,6	505965,1	227,7
5.	Kattaqo‘rg‘on	478503,9	576798,4	708752,7	831506,6	1070428,0	591924,1	223,7
6.	Qo‘shrobot	256454,6	309905,6	383308,3	446861,6	578938,3	322483,7	225,7
7.	Payariq	380947,1	461118,2	564892,2	660959,9	869342,8	488395,7	228,2
8.	Pastdarg‘om	563611,5	681792,3	837907,5	985584,1	1274786,6	711175,1	226,2
9.	Paxtachi	251701,2	303226,6	378513,0	445397,7	557894,5	306193,3	221,6
10.	Samarqand	512909,1	617941,1	762460,7	893723,2	1147588,6	634679,5	223,7
11.	Narpay	322775,1	388985,0	478575,9	561047,3	720633,2	397858,1	223,3
12.	Nurobod	287464,5	347308,0	424548,3	496634,9	647149,0	360684,5	225,5
13.	Tayloq	380720,7	459515,2	560416,6	655836,2	864198,7	483478,0	227,0
14.	Urgut	630837,5	766214,9	944684,0	1102331,8	1446878,2	816040,7	229,4

[69] Jadval Samarqand viloyat statistika boshqarmasining 2017-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi. https://www.samstat.uz/uz/

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, 2021 yilda 2017 yilga nisbatan Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqdagi aholiga ko‘rsatilgan servis xizmatlar hajmi 2,3 marttaga ko‘paygan. Servis xizmatlari sohasining rivojlanishini alohida qishloqlar bo‘yicha tahlil qilganda 2021 yilda 2017 yilga nisbatan eng ko‘p Jomboyda 2,3 martaga oshgan bo‘lsa, 2021 yilda 2017 yilga nisbatan Paxtachi 2,2 eng kam ko‘rsatkichga ega. Bu qishloqdagi aholi soniga nisbatan salbiy o‘zgarish hisoblanadi. Chunki, Jomboy tumanida aholi soni 2017 yilda 126,1 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda 140,6 ming kishiga yetgan. Paxtachi tumanidagi aholi soni 2017 yilda 111,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda 119,3 ming kishiga yetgan. Ushbu holat, qishloqdagi aholi soniga nisbatan xizmatlar sohasining Paxtachi tumanida yaxshi rivojlanishi va aksincha Jomboy tumanida rivojlanishi sust bo‘lganligidan dalolat beradi.

Qishloqda xizmatlardan foydalanish darajasi ortishi servis xizmat ko‘rsatish turlarining ko‘payishidan dalolat beradi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi raqobat muhitini yaratishi bilan birga ularning sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

Ma'lumki, qishloqda asosiy faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholi hisoblanadi. Servis xizmat ko‘rsatuvchilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholi bilan iste'molchilar o‘rtasida asosiy faoliyatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, qishloqda aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan servis xizmat turlari, aholining servis xizmatidan foydalanish uchun qiladigan xarajatlarini aniqlash va ushbu servis xizmatlarining sifatiga baho berish muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar jarayonida, qishloqdagi ko‘rsatilayotgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish servis xizmatlari turlarining taqqoslama tahlili o‘rganildi (2.6-jadval).

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, qishloqda ishlab chiqarish servis xizmatlarining asosan 17 ta turi va noishlab chiqarish servis xizmatlaridan 13 turidan keng foydalanilmoqda. Shu o‘rinda, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish uchun barcha sharoitlarning mavjudligiga qaramasdan keltirilgan servis xizmatlarining barchasi ham sifatli tashkil etilmagan.

2.6-jadval

Qishloqda ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari turlarining taqqoslama tahlili[70]

T/r	Ishlab chiqarish servis xizmatlari	Noishlab chiqarish servis xizmatlari
1.	Urug‘lik yetkazib berish xizmatlari	Elektr-energiya xizmatlari
2.	Mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash xizmatlari	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3.	Biolobaratoriya xizmatlari	Kommunal xizmatlar
4.	Ilmiy-ishlab chiqarish laborotoriya xizmatlari	Yo‘lovchi tashish xizmatlari
5.	Irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari	Tibbiy xizmatlar
6.	Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU)	Ta'lim xizmatlari
7.	Zooveterenariya xizmatlari	Dam olish (sanatoriy, madaniyat markazlari, teatr, park, oromgoxlar va boshqa) xizmatlari
8.	Muqobil traktor parklari (MTP) xizmatlari	Maishiy xizmatlari
9.	Qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash xizmatlari	Qurilish va uylarni ta'mirlash xizmatlari
10.	Elektr-energiya xizmatlari	Yetazib berish xizmatlari

[70]Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzildi.

		2.6-jadval davomi
11.	Yoqilg‘i va moylash materiallari (YOMM) ta'minoti tashkilotlari ko‘rsatadigan xizmatlar	Bank xizmatlari
12.	Transport tizimi va yo‘l xizmatlari	Shaxsiy avtotransport vositalari (ta'mirlash, yuvish) xizmatlari
13.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Restoran xizmatlari
14.	Bank, moliya xizmatlari	
15.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar)	
16.	Mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash xizmatlari	
17.	Konsalting xizmatlari va boshqalar	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini raqamlarda keltirish uchun, aholining jami daromadlarining qancha qismi servis xizmatlariga sarflanishi monografik usulda Samarqand viloyati Ishtixon tuman “Qirqyigit” MFYda o‘rganildi (2.7-jadval).

2.7-jadval

Ishtixon tumani “Qirqyigit” MFYda mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha servis xizmatlari xarajatlari tahlili (2020 yil)[71]

T/r	Ishlab chiqarish servis xizmatlari	Servis xizmatlaridan foydalanayotgan qishloq aholi soni (dona) X	O‘rtacha bir yillik harajatlar (ming so‘m) Y	Servis xizmatlaridan foydalanish uchun qilingan xarajatlar (ming so‘m) X*Y
1.	Urug‘lik yetkazib berish xizmatlari	23	1 500,0	34 500,0
2.	Mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash xizmatlari	16	600,0	9 600,0
3.	Biolobaratoriya xizmatlari	3	89,0	267,0
4.	Ilmiy-ishlab chiqarish laborotoriya xizmatlari	0	0,0	0,0
5.	Irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari	12	257,0	3 084,0
6.	Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU)	55	650,0	35 750,0
7.	Zooveterenariya xizmatlari	19	300,0	5 700,0
8.	Muqobil traktor parklari (MTP) xizmatlari	4	500,0	2 000,0
9.	Qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash xizmatlari	7	2 000,0	14 000,0
10.	Elektr-energiya xizmatlari	55	1500,0	82 500,0
11.	Yoqilg‘i va moylash materiallari (YOMM) ta'minoti tashkilotlari ko‘rsatadigan xizmatlar	7	1250,0	8 750,0
12.	Transport tizimi va yo‘l xizmatlari	55	2300,0	126 500,0
13.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	55	500,0	27 500,0
14.	Bank, moliya xizmatlari	16	5200,0	83 200,0
15.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar)	3	300,0	900,0
16.	Mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash xizmatlari	42	830,0	34 860,0
17.	Konsalting xizmatlari va boshqalar	0	0,0	0,0
Jami olib borilgan kuzatuvlar soni		**372**	**17 776,0**	**469 111,0**

[71]Jadval monografik kuzatuv asosida 2020 yilda muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, keltirilgan 17 turdagi servis xizmatlarning 15 turi Ishtixon tuman “Qirqyigit” MFYda mavjud bo‘lib 372 ta kuzatuv amalga oshirildi. Ushbu 15 turdagi servis xizmatlardan aholi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalanib kelmoqda. Bir yil davomida ishlab chiqarish servis xizmatlari iste'molchisi o‘rtacha 17 776,0 ming so‘m mablag‘ sarflaydi. O‘rtacha bir yillik servis xizmatlari aholi xarajatlari tarkibida eng qimmati bo‘lib bank, moliya xizmatlari 5 200,0 so‘mni tashkil etmoqda. Muqobil traktor parklari (MTP), qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash, biolaboratoriya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar) kabi servis xizmatlarga bo‘lgan bozor ehtiyojlari mavjud, ammo ushbu xizmatlar sifatli tashkil etilmagan. Ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriya va konsalting servis xizmatlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi aniqlandi. Jumladan, aloqa va axborotlashtirish, elektr-energiya, mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash, zooveterinariya, mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash xizmatlarini ko‘rsatishda shartnomada belgilangan shartlar o‘z vaqtida bajarilmasligi yoki sifatsiz bajarilishi kabi kamchiliklar aniqlandi. Ushbu kamchiliklarning sabablarini o‘rganish davomida qishloq aholisiga ko‘rsatilayotgan servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining texnika va texnologiyalarning eskirganligi, servis xizmatlarini rivojlantirish uchun yetarli darajada ma'lumotlar bilan ta'minlanmaganligi aniqlandi.

Ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish oliy ma'lumotli kadrlarni ko‘paytirish va konsalting servis xizmatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, qishloqda aholiga noishlab chiqarish servis xizmatlari ko‘rsatish holati ham o‘rganildi (2.8-jadval).

2.8-jadval

Ishtixon tuman “Qirqyigit” MFYda noishlab chiqarish servis xizmatlari bo‘yicha xarajatlar tahlili (2020 yil)[72]

T/r	Noishlab chiqarish servis xizmatlari	Servis xizmatlaridan foydalanayotgan qishloq aholi soni (dona) X	O‘rtacha bir yillik xarajatlar (ming so‘m) Y	Servis xizmatlaridan foydalanish uchun qilingan xarajatlar (ming so‘m) X*Y
1.	Elektr-energiya xizmatlari	162	700,0	113400,0
2.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	210	480,0	100800,0
3.	Yo‘lovchi tashish xizmatlari	210	1200,0	252000,0
4.	Tibbiy xizmatlar	198	240,0	47520,0
5.	Ta'lim xizmatlari	72	150,0	10800,0
6.	Dam olish (sanatoriy, madaniyat markazlari, teatr, park, oromgoxlar va boshqa) xizmatlari	49	1500,0	73500,0
7.	Maishiy xizmatlari	210	200,0	42000,0
8.	Qurilish va uylarni ta'mirlash xizmatlari	7	1 500,0	10500,0
9.	Yetazib berish xizmatlari	53	100,0	5300,0
10.	Bank xizmatlari	36	2500,0	90000,0
11.	Shaxsiy avtotransport vositalari (ta'mirlash, yuvish) xizmatlari	62	1200,0	74400,0
12.	Restoran xizmatlari	45	12000,0	540000,0
Jami olib borilgan kuzatuvlar soni		**1314**	**21770,0**	**28 605780,0**

[72]Jadval monografik kuzatuv asosida 2020 yilda muallif tomonidan tuzildi.

Unga ko‘ra, noishlab chiqarish servis xizmatlaridan (asosan 12 turi bo‘yicha) qishloqdagi aholi doimiy ravishda foydalanib keladi. Qishloqda ushbu servis xizmat turlariga boshqa servis xizmat turlariga nisbatan talab darajasi yuqoroligi ma’lum bo‘ldi.

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, keltirilgan 12 turdagi servis xizmatlarning 12 turi Ishtixon tuman “Qirqyigit” MFYda mavjud bo‘lib 1314 ta kuzatuv amalga oshirildi. Ushbu 12 turdagi servis xizmatlardan qishloqdagi aholi noishlab chiqarish maqsadida foydalanib keladilar. Bir yil davomida noishlab chiqarish servis xizmatlari iste'molchisi o‘rtacha 21 770,0 ming so‘m mablag‘ sarflaydi. O‘rtacha bir yillik servis xizmatlari aholi xarajatlari tarkibida eng katta xarajat hajmi restoran xizmatlari 12 000,0 ming so‘mni tashkil etmoqda. Elektr-energiya, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sifatsizligi kuzatildi.

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini korxonalar misolida tahlil qilib chiqish maqsadida Ishtixon tumani qishloqlaridagi tanlab olingan ayrim servis xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi aniqlandi (2.9-jadval).

2.9-jadval

Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi ayrim servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda mehnat unumdorligi tahlili (2021 yil)[73]

T/r	Korxonalar	Sof tushum ming so‘m (X)	O‘rtacha xodimlar soni (Y)	Mehnat unumdorligi ming so‘m (M_{unum}=X:Y)
1.	“SURAYYOSAVDO” OK	630 536,3	3	210178,8
2.	“ISHTIXON TRANS SERVIS” MCHJ	1 902 821,0	24	79284,2
3.	“QAYCHILI” VETRINARIYA PUNKTI	117 325,4	5	23465,1
4.	"ORZUBEK SHIFO SERVIS" MCHJ	767 216,9	17	45130,4
5.	“LAYLO GAZ SERVIS” MCHJ	1 863 922,0	13	143378,6
6.	“HUSNIDDIN SAVDO” MCHJ	860 254,2	10	86025,4
7.	“MOHIGUL PARFUM” YATT	567 201,6	2	283600,8
8.	“BOBOQUL MILLIY TAOMLARI” MCHJ	965509,1	13	74269,9

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, 2021 yilda Samarqand viloyat Ishtixon tumanidagi servis xizmat ko‘rsatishning mehnat unumdorligi “SURAYYOSAVDO” oilaviy korxonasida 3 ta ishchiga 210178,8 ming so‘mga, “MOHIGUL PARFUM” yakka tartibdagi tadbirkorda 2 ta ishchiga 283600,8 ming so‘mga, “LAYLO GAZ SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatda 13 ta ishchiga 143378,6 ming so‘mga, “QAYCHILI” vetrinariya punktida 5 ta ishchiga 23465,1 ming so‘mga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, “ISHTIXON TRANS SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyat tuman kesimida aholiga pullik transport servis xizmatlarini ko‘rsatish evaziga 1 902 821,0 ming so‘m,

[73]Servis xizmati korxonalari ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

“LAYLO GAZ SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatda aholiga siqilgan va suyultirilgan gaz qo‘yish evaziga 1 863 922,0 ming so‘m hamda “BOBOQUL MILLIY TAOMLARI” mas'uliyati cheklangan jamiyatda aholiga restoran xizmatlarini ko‘rsatishi evaziga 965509,1 ming so‘m sof tushumga erishishga movoffaq bo‘lgan.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi tahlil natijalaridan foydalangan holda, qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlar faoliyatini samarali tashkil qilish hamda mavjud bozor talabini qondirilishini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, aholi sonining ko‘payishi natijasida ortib borayotgan ehtiyojlarni samarali qondirish yuzasidan doimiy izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Servis xizmatlarini samarali tashkil etishda kasbga yo‘naltiruvchi ta'lim muassasalarini qurish, biznes treninglarni tashkil etish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash qishloqlardagi aholini doimiy ish bilan bandligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlarni beradi. Ushbu masalada davlat va nodavlat tashkilotlarining manfaatdorligini oshirish, yo‘nalishlari doirasida mas'ullarni belgilab berish yoki chet el tajribalaridan foydalangan holda mahalliy boshqaruv organlari ostida raqamli iqtisodiyot sharoitiga mos “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan servis xizmatlarning real holatini aniqlash maqsadida Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqdagi 179 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholi o‘rtasida so‘rov anketasini tuldirish orqali tadqiqotlar o‘tkazildi (2.10-jadval).

2.10-jadval

Qishloqdagi servis xizmatlarga ehtiyoji bo‘lgan aholining qoniqish holati[74] (2019 yil bo‘yicha)

(dona hisobida)

T/r	Servis xizmatlari	Qoniqarsiz	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo darajada	Jami
1.	Urug‘lik yetkazib berish xizmatlari	23	77	61	18	179
2.	Mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash xizmatlari	9	12	139	19	179
3.	Biolaboratoriya xizmatlari	124	16	18	21	179
4.	Ilmiy-ishlab chiqarish laborotoriya xizmatlari	163	7	2	7	179
5.	Irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari	15	57	65	32	169
6.	Suv iste'molchilar uyushmasi (SIU)	19	58	63	29	169
7.	Zooveterenariya xizmatlari	12	82	23	21	138
8.	Muqobil traktor parklari (MTP) xizmatlari	94	34	31	20	179
9.	Qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash xizmatlari	115	36	16	12	179
10.	Elektr-energiya xizmatlari	87	29	24	39	179
11.	Yoqilg‘i va moylash materiallari (YOMM) ta'minoti tashkilotlari ko‘rsatadigan xizmatlar	78	62	21	18	179
12.	Transport tizimi va yo‘l xizmatlari	48	85	18	28	179
13.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	98	19	28	34	179
14.	Bank, moliya xizmatlari	121	6	29	23	179
15.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar)	169	2	5	3	179
16.	Mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash xizmatlari	14	132	16	17	179
17.	Konsalting xizmatlar	159	19	1	0	179

[74] Anket so‘rov natijalari asosida muallif ishlanmasi. 2019 yil.

Qishloqda aholiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ko‘rsatilgan servis xizmatlarning holatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnomadan ko‘rinib turibdiki, 179 ta so‘rovnomadan 163 ta respondent qatnashib “ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriya xizmatlari”dan qoniqmaslikni bildirgan, huddi shuningdek, “biolaboratoriya xizmatlari”dan 124 tasi, “qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta'mirlash xizmatlari”dan 115 tasi, “bank, moliya xizmatlari”dan 121 tasi, “qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar)”dan 169 tasi hamda “konsalting xizmatlari”dan 159 tasida yuqori darajada servis xizmatlariga qoniqarsiz holatlar aniqlangan. Ushbu holatlarning sabablari etib quyidagilar hisoblanishi aniqlandi: – elektr tokini o‘tkazgichlarning yo‘qligi yoki elektr tokining ko‘p marotaba uzilishi, qishloqda aloqa xizmatlarining sifatsizligi, yoqilg‘i va moylash materiallarining vaqtida yetkazib berilmasligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish shahobchalari (Agrobirjalar)ning mavjud emasligi, mavjud bo‘lgan hududlarda esa ular faoliyati qishloqdagi aholini qoniqtirmasligi, ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalari tomonidan ko‘rsatilayotgan servis xizmatlarning o‘z vaqtida tashkil etilmasligi, banklar tomonidan ajratilayotgan kredit foizlarining yuqoriligi yoki kredit shartlarining og‘irligi, agrotexnikalarni sozlash uchun servis xizmatning yo‘qligi, agrotexnikalarni ishlatishda va ularni sozlashda kadrlar mavjud emasligi kabilar bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ehtiyoj asosida tezkor yetishtirish, ayniqsa, sifatga va sof ekologik toza mahsulot sifatida iste'molchi talabini qondirishga e'tibor berish alohida yondashuvni talab etmoqda. O‘z navbatida, bunday yondashuvlar qishloqlardagi aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatishda

zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar moddiy texnika bazalarini modernizatsiyalash, innovatsiyalarni qo‘llash natijasida soha raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport qilishning yangi imkoniyatlarini ochib berishni taqozo etadi. Bu esa, qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sohalarini yagona tizim sifatida rivojlantirish zaruriyatiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sohalarini ilg‘or texnika hamda texnologiyalar bilan ta'minlash uchun xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini yagona maqsad sari tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek, “Qishloq xo‘jaligida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish borasidagi o‘rganish va izlanishlarimiz davom etmoqda. Sohaga ilg‘or texnologiyalar va klaster tizimi joriy etilmoqda”[75]. Bu esa servis xizmat ko‘rsatish sohasi oldiga yangicha yondashuvni va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholini qo‘llab-quvvatlash zarurligini taqozo etadi.

Bugungi kunda, servis xizmat ko‘rsatish, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida mavjud asosiy vositalarni doimiy ravishda yangilab borish hamda innovatsiyalardan foydalanish davr talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”[76] gi PF-4947-son Farmoniga asosan Samarqand viloyatida 2017-2021 yillarda qishloqdagi korxonalarga, shu

[75] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.: Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar №19.

[76] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Prezident Farmoni.

jumladan qishloqdagi aholiga servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar jadal sur'atlar bilan rivojlantirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[77] gi PF-60-son Farmoni qabul qilinib respublikamizda servis xizmatlarini kelgusida rivojlantirish uchun yanada keng qamrovli maqsadli vazifalar belgilab berildi. Ta’kidlash joizki, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun “Taraqqiyot strategiyasi” “Harakatlar strategiyasi” maqsadlarining takomillashtirilgan, keng qamrovli va kelgusida samarali rivojlantirishning yo‘li sifatida tus oldi.

Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib berayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalariga ko‘rsatilayotgan agroservis xizmatlari bo‘yicha holati tahlil etilib, unga ko‘ra viloyatdagi 2017-2021 yillardagi servis xizmat ko‘rsatish jarayoni o‘rganildi (2.11-jadval).

[77] https://lex.uz/docs/5841063

2.11-jadval

Qishloqda agroservis xizmati sub'yektlari faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmi dinamikasi[78]

T/r	Qishloq xo‘jaligi korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar nomi	Yillar					2021 yilda 2017 yilga nisbatan	
		2017	2018	2019	2020	2021	(+;-)	%
1.	MTPlar (mln. so‘m)	746,2	802,4	757,7	702,4	589,7	-156,5	79,0
2.	Suv iste'molchilar uyushmalari (SIU) (mlrd. so‘m)	5,7	5,8	5,9	6,0	6,3	6,0	111,4
3.	Yoqilg‘i moylash materiallari (YOMM) (mlrd. so‘m)	65,3	66,2	66,7	67,0	67,6	2,3	103,5
4.	Mineral o‘g‘itlar sotish shoxobchalari (mlrd. so‘m)	127,9	132,1	132,5	133,5	134,6	6,7	105,3
5.	Minibanklar (mlrd. so‘m)	224,8	227,4	243,4	248,4	251,0	26,2	111,7
6.	Zooveterinariya va sun'iy urug‘lantiish shohobchalari (mln. so‘m)	1768,2	1921,5	1887,3	1906,8	1917,3	149,1	108,4
7.	Biolaboratoriyalar (mln. so‘m)	4965,2	5219,8	5367,7	5439,8	5496,2	531,0	110,7
8.	Agrofirmalari (mlrd. so‘m)	95,9	94,6	97,0	102,3	118,5	22,6	123,5
Jami: (mlrd. so‘m)		527,1	534,0	553,7	565,2	586,1	59,0	111,2

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, viloyatda qishloqdagi aholiga 2021 yil 2017 yilga nisbatan MTPlar tomonidan ko‘rsatilgan servis xizmatlar hajmi 156,5 mln. so‘mga kamaygan bo‘lib, 79,0 foizni, suv iste'molchilari uyushmalari 6,0 mlrd. so‘m, 111,4 foiz, yoqilg‘i moylash materiallari 2,3 mlrd. so‘m, 103,5 foiz, mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari 6,7 mlrd. so‘m, 105,3 foiz, minibank

[78]Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2017-2021 yil ma’lumotlar bazasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

(agrobank minibanklar 15 ta, qishloq qurilish minibanki 1 ta, milliy minibanki 2 ta)lar 26,2 mlrd. so‘m, 111,7 foiz, zooveterinariya va sun'iy urug‘lantirish shahobchalari 149,1 mln. so‘m, 108,4 foiz, biolaboratoriyalar 531,0 mln. so‘m, 110,7 foiz, agrofirmalar 22,6 mlrd. so‘m, 123,5 foizga o‘sgan. Eng ko‘p bajarilmay qolgan shartnomalar hissasi mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari bilan MTP xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatilgan servis xizmatlarga tegishli bo‘lgan. Masalan: faqatgina 2017 yilning o‘zida MTPlarda 3032 tadan 2994 ta, suv iste'molchilari uyushmalarida 10249 tadan 9304 ta, yoqilg‘i moylash materiallari yetkazib berish xizmatlarida 12063 tadan 8874 ta, mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalarida 15453 tadan 11325 ta, biolaboratoriyalarda 5261 tadan 3909 ta va agrofirmalarda 6658 tadan 5483 ta[79] amalda bajarilgan shartnomalar aniqlandi. Shartnomalarning bajarilmay qolishi asosan servis xizmat ko‘rsatish korxonalarida asosiy vositalarning eskirganligi, ish unumdorligining pastligi va mavjud asosiy agrotexnikalarning ulgurmasligi sabab bo‘lmoqda.

2.2.-§.Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish, bandlik, ekologik va milliy iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, qishloq aholisining oshib borishi ularning turmush darajasini o‘zgarishi bilan birga urbanizatsiya jarayoniga,

[79] Samarqand viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlar bazasi. 2017 yil.

shuningdek kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini shakllantirishda muhim belgilovchi omildir.

Bugungi kunda qishloqlardagi aholining hayot sifatini yaxshilash, qishloqdagi ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot miqdorini oshirish, ayniqsa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishga ta'sir etuvchi yuqori sifatli servis xizmatlarini tashkil etish muhim vazifalarimizdan biriga aylanmoqda.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish yoki mahsulotlarni yetishtirish jarayoni o‘z vaqtida va yuqori sifatli servis xizmat ko‘rsatilishini taqozo etadi. Shunday ekan, mamlakat iqtisodiyotini tezkor rivojlanishi sharoitida iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari bilan bir qatorda qishloqda sifatli servis xizmatlarini tashkil etish va eng muhimi ularga turli omillar ta'sirini o‘rganishni taqozo etadi.

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, sohada raqobat muhitini yaratish va omillar ta'sirini o‘rganish uchun bir qator muammoli vaziyatlar mavjudligi aniqlanildi:

Birinchidan, byudjet hisobidan moliyalashtirish siyosatida servis xizmat ko‘rsatishni milliy innovatsiya tizimida rivojlantirishga haqiqiy ustuvorlikning yo‘qligi;

Ikkinchidan, mahalliy boshqaruv organlarining zamonaviy servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini rivojlantirishda izlanishlarni olib bormasliklari. Shu bilan birga qishloqdagi aholi zamonaviy servis xizmatlariga ehtiyoj bildirishni istamasliklari;

Uchinchidan, eskirgan ilmiy-texnik jihozlar va sinov uskunalari servis xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishni va yosh mutaxassislar uchun ilmiy faoliyatning jozibadorligini cheklanganligi;

To‘rtinchidan**,** ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish, servis xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi tafovut saqlanib qolishi natijasida ta'lim sohasida ilmiy muvoffaqiyatlarga erishish qiyinligi va boshqa shu kabilardan iborat.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish uchun servis faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim o‘rinni egallab kelmoqda.

Samarqand viloyatining qishloqlarini o‘rganib chiqish davomida, har bir qishloq o‘ziga xosligi bilan ajralishi ma'lum bo‘ldi. Ayrim qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sohalari yaxshi rivojlangan, ayrimlarida esa aksincha, turli xil omillar ta'siri sababli ular rivojlanishi bo‘yicha orqada. Shuning uchun, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa omil guruhlariga ajratgan holda o‘rganish maqsadga movofiqdir (2.2-rasm).

Yuqorida bayon qilingan rasm natijalaridan ko‘rinib turibdiki, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishda rivojlantiruvchi omillarni ta'siri natijasida servis xizmati rivojlanishiga ega bo‘linsa to‘sqinlik etuvchi omillar bartaraf etilishi oqibatida bu sohada ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan qishloqda servis xizmat ko‘rsatishga ta'sir etuvchi omillar guruhiga asoslanib, ularning qishloqdagi ta'sir doirasini real holatini aniqlash maqsadida so‘rov anketasi usulidan foydalanib tahlillar amalga oshirildi.

Qishloqlardagi aholi (respondentlar)ga servis xizmat ko‘rsatishda va uni rivojlantirishga salbiy ta'sir etuvchi omillar ko‘rsatilgan 200 dona so‘rov anketasi berilib so‘rov o‘tkazildi.



2.2-rasm. Qishloqda servis xizmatlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar[80]

[80] Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

200 ta tarqatilgan so‘rov anketasidan 179 tasi o‘z vaqtida va to‘liq to‘ldirildi. 200 ta tarqatilgan so‘rov anketasidan 21 tasi qisman yoki noto‘g‘ri to‘ldirilganligi sababli olib borilgan hisob-kitoblarda qatnashmadi (2-ilova so‘rov anketasi).

So‘rov anketasida ko‘rsatilgan omillarning har biriga aholi (respondentlar) tomonidan to‘rt xil javobdan: - asosiy, ahamiyatli, ahamiyatsiz, javob berishga qiynalaman, degan javoblardan birini berdilar.

So‘rov anketasini shakllantirishda qishloqlarda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga ta'sir etuvchi guruhlar iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa omillar deb nomlandi. Omillar guruhi tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar va amaliy tajribalar o‘tkazilishi natijasida shakllantirildi.

So‘rov anketasida keltirilgan qishloqda servis xizmatlarning rivojlanishini baholashning bunday sifat baholash shkalasi universal xarakterga ega.

Tahlilni amalga oshirish jarayonida biz 200 ta qishloqdagi respondentlardan so‘rovnomalarni o‘tkazdik va quyidagi natijalarga erishdik (2.12-jadval).

2.12-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik korxonalarda iqtisodiy omillardan “O‘z mablag‘ining servis faoliyatini tashkil etishda yetishmasligi” eng ko‘p to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanmoqda. So‘rov natijalarini tahlil qilishda biz A.Gusev[81] taqdim etgan servis faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik ko‘rsatayotgan omillar darajasidan salmoqlilik koeffitsiyenti bilan ranjirovkalash usulidan

[81]Гусев А.Б. Формирование рейтингов инновационного развития регионов России и выработка рекомендаций по стимулированию инновационной активности субъектов РФ: монография/ А.Б.Гусев. – М.: 2008, с. 88.

foydalandik. Ushbu usul tahlil qilinayotgan ma'lumotlarni baholashda qulayliligi va aniqliligi bilan izohlanadi.

2.12-jadval

Qishloqda servis xizmatlari faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar[82] (2020 yil bo‘yicha)

(dona hisobida)

T/r	Omillar	Servis faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni baholash darajasi				Jami so‘ rovnomada qatnashganlar soni
		Asosiy	Ahamiyatli	Ahamiyatsiz	Javob berishga qiynalaman	
I.	**Iqtisodiy omillar**					
1.1.	O‘z mablag‘ining yetishmasligi	132	13	12	22	179
1.2.	Davlat tomonidan moliyaviy yordamning yetishmasligi	73	41	42	23	179
1.3.	Yangi mahsulotlarga to‘lov iste'molining kamligi	42	49	29	59	179
1.4.	Yangi texnika kiritishda yuqori qiymatlilik	102	30	29	18	179
1.5.	Iqtisodiy xavf-xatar (risk)ning yuqoriligi	85	20	23	51	179
1.6.	Yangilikning uzoq muddatda koplanishi	62	43	37	37	179
II.	**Texnik-texnologik omillar**					
2.1.	Yangi texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi	142	15	10	12	179
2.2.	Tashkilotning past innovatsion faoliyati	68	55	26	30	179
2.3.	Sotish bozori hakidagi axborotning kamligi	132	24	15	8	179
2.4.	Malakali kadrlarning yetishmasligi	80	50	17	32	179
2.5.	Korxonaning yangilikni qabul qilish qiyinligi	107	20	34	18	179
2.6.	Ilmiy tashkilot va boshqa korxonalar bilan aloqaning kamligi	49	60	54	16	179
III.	**Boshqa omillar**					
3.1.	Iste'molchilarning servis xizmatga talabining kamligi	52	52	25	50	179
3.2.	Servis faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi normativ hujjatlar va qonunlarning yetishmasligi	63	60	25	31	179
3.3.	Servis faoliyati muddatining noaniqligi	34	36	37	72	179
3.4.	Servis infratuzilmasining rivojlanmaganligi	32	40	64	43	179
3.5.	Texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi	67	44	34	34	179

Bunda agar omil “asosiy” deb olinsa, unga maksimal salmoqlilik koeffitsiyentini 1 ga teng deb olinadi, “ahamiyatli” deganda 0,6 koeffitsiyent, ya'ni 0,5 dan katta bo‘lib maksimal 1 ga yaqin hisoblanadi.

[82]So‘rov anketasi natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Baholash “ahamiyatsiz” deyilsa, unda 0,2 koeffitsiyenti tenglashtiriladi. Agar “javob berishga qiynalaman” deyilsa, 0 minimal koeffitsiyenti beriladi.

2019-2020 yillarda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi har bir omilni baholash uchun omil to‘sqinlik indeksi hisoblandi. Indeksni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanildi:

$$I = \left[\sum_{i=1}^{n} (X_i \times Y_i) \div \sum_{i=1}^{n} X_i \right] \times 100$$

2.13-jadval

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar indeksini baholash[83]

T/r	Omillar	Yillar		I-o‘rtacha
		2019	2020	
I. Iqtisodiy omillar				
1.1.	O‘z mablag‘ining yetishmasligi	78,88	79,44	79,16
1.2.	Davlat tomonidan moliyaviy yordamning yetishmasligi	59,11	59,22	59,17
1.3.	Yangi mahsulotlarga to‘lov iste'molining kamligi	34,86	43,13	39,00
1.4.	Yangi texnika kiritishda yuqori qiymatlilik	66,59	70,28	68,44
1.5.	Iqtisodiy xavf-xatar (risk)ning yuqoriligi	53,97	56,76	55,37
1.6.	Yangilikning uzoq muddatda koplanishi	55,64	53,18	54,41
II. Texnik-texnologikomillar				
2.1.	Yangi texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi	74,75	85,47	80,11
2.2.	Tashkilotning past innovatsion faoliyati	61,34	59,33	60,34
2.3.	Sotish bozori haqidagi axborotning kamligi	74,75	83,46	79,11
2.4.	Malakali kadrlarning yetishmasligi	61,01	63,35	62,18
2.5.	Korxonaning yangilikni qabul qilish qiyinligi	65,92	70,28	68,10
2.6.	Ilmiy tashkilot va boshqa korxonalar bilan aloqaning kamligi	58,10	53,52	55,81
III. Boshqa omillar				
3.1.	Iste'molchilarning servis xizmatga talabining kamligi	48,04	49,27	48,66
3.2.	Servis faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi normativ hujjatlar va qonunlarning yetishmasligi	56,76	58,10	57,43
3.3.	Servis faoliyati muddatining noaniqligi	44,36	35,20	39,78
3.4.	Servis infratuzilmasining rivojlanmaganligi	47,37	38,44	42,91
3.5.	Texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi	60,00	55,98	57,99

Izoh: so‘rov anketalari 2019, 2020 yillardagi natijalari 2-ilovada keltirilgan.

[83]So‘rov anketasi asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Ushbu formuladan foydalanib 2.13-jadvalda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar indeksi baholandi.

Omillar indeksini baholashdan maqsad – qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa omillar guruhlarining ta'siriga baho berishdan iborat.

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga to‘siq bo‘lgan omillar indeks koeffitsientlari (2.14-jadval).

2.14-jadval

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga to‘siq bo‘lgan omillar indeks koeffitsientlari[84]

Omillar nomi	Yillar		I-o‘rtachasi
	2019	2020	
Iqtisodiy	58,18	60,34	59,26
Texnik-texnologik	65,98	69,24	67,61
Boshqa	51,31	47,40	49,36
Jami indekslar	58,49	58,99	58,74

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-2020 yillarda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga to‘sqinlik etuvchi iqtisodiy guruh omillardan o‘rtacha qarshilik indeksi ($I_{o‘rt}$=79,16)ga teng, ya'ni so‘rovnomada ishtirok etgan 179 ta respondentlardan atigi 20,84 foiz respondent servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga tayyorgarligini bildiradi. Buning mazmuni shundan iboratki jami so‘rovda ishtirok etgan respondentlardan 20,84 foizi qishloqda servis xizmatlarini tashkil etish uchun barcha iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa imkoniyatlarga ega.

Bunda korxonalar zamonaviy texnika vositalarini olib kelishda o‘z mablag‘larining yetishmasligi, davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy yordamning mavjud emasligi, moliyaviy yordam ko‘rsatilayotganlariga esa

[84] Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

pul mablag‘larining kamligini bildiradi. Xizmat ko‘rsatish (texnik-texnologik) guruh omillardan eng ko‘p o‘rtacha qarshilik indeksi yangi texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi ($I_{o‘rt}$=80,11)ni tashkil etib, atigi 19,89 foiz servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida faoliyat olib borishayotganliklaridan dalolat beradi. Boshqa omillar guruhlaridan eng ko‘p o‘rtacha qarshilik indeksini texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi ($I_{o‘rt}$=57,99)ni tashkil etib, atigi 43,01 foiz korxona mamlakatimizda servis xizmat ko‘rsatish korxonalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanganligini ifodalaydi (ma'lumotlar tahlili 2-ilovada keltirildi).

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, aksariyat qishloqdagi korxonalarda yangicha servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini joriy qilish qiyin bo‘lmoqda, bu – o‘z mablag‘larining yetishmasligi, servis faoliyatidan foydalanishda qarz mablag‘larini olishda qiyinchiliklarning mavjudligi, shuningdek davlat tomonidan cheklangan qo‘llab-quvvatlanish bilan izohlanmoqda.

Ma'lumki, qishloqda, ayniqsa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy iqlim sharoiti va ob-havoning o‘zgarishi ta'siri yuqori hisoblanadi. Shu sababli, ushbu muammoli iqtisodiy holatni kamaytirish uchun xorijda sug‘urta kompaniyalari xizmatlaridan keng foydalaniladi. Samarqand viloyatida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra bunday xizmatdan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, qishloq aholisining davlat sug‘urtalariga ishonchini pastligi sababli sug‘urta qilish darajasining yetarli emasligi bilan izohlanadi.

So‘rovnoma o‘tkazilgan Samarqand viloyati Samarqand tuman “XO‘JAMBOBO BIR YUZ BIR” FX, Samarqand tuman “O‘ROQOVA

MAHBIBI UZUMZORLARI” FX, Samarqand tuman “SHUKUROV ULUG’BEK SAXOVATI” FX, Samarqand tuman “KARIMOVA MINGDONA BOG’LARI” FX, Samarqand tuman “MIZROB OLIMOV GAVXARI” FXlarida qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etishga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar aniqlandi: – o‘z mablag‘ining yetishmasligi, yuqori iqtisodiy xavf-xatar; sotuv bozorlari haqidagi axborotning yetishmasligi; texnik-texnologik xavf-xatar omillari, jumladan, yangi texnika texnologiyalar haqidagi axborotning yetishmasligi, yangi servis xizmatlarga talabning va malakali kadrlarning yetishmasligi va boshqalardan iborat.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantiruvchi ko‘rsatkichlarning sifat tahlili o‘tkazildi va uning natijasiga ko‘ra uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: – O‘zbekiston Respublikasi hududlari va qishloqda agrobirja servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholi bilan uzviy bog‘lash; sug‘urta servis xizmat ko‘rsatishda rasmiylashtirishni soddalashtirish va qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati bilan biriktirish; qishloqdagi aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning yagona standart bo‘yicha faoliyatini tashkil etish; qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni texnik-texnologik omillariga: servis xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, servis xizmatlari assortimentini ko‘paytirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash; qishloqda servis xizmatlarini ko‘rsatishda intelektual-madaniy omillari qatoriga: malakali kadrlarni ko‘paytirish kiritildi.

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga imkon beruvchi omillar quyidagilardan iborat: – infratuzilmaning rivojlanganligi (aloqa

xizmatlari, kommunal xizmatlar, yo‘llar, avtotransport, temir yo‘l, havo yo‘llari, kredit-moliya tashkilotlari xizmatlari va boshqalar); aholi daromadlari; doimiy aholi soni; ijtimoiy mehnat salohiyati; tabiiy-iqlim salohiyati; sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining mavjudligi; servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining soni; inflyatsiya darajasi; iqtisodiy faol aholi soni.

Ushbu omillar tahlili natijasida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning quyidagi ilmiy asosi yaratildi: Birinchidan, o‘tkazilgan omilli tahlil natijasida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning omilli tahlil asosidagi xulosalardan kelib chiqqan rivojlantirish yo‘llari va yo‘nalishlari belgilab berildi; Ikkinchidan, omilli tahlil natijasida qishloqda servis xizmatining foydalanilmayotgan ichki resurs imkoniyatlari ochib berildi; Uchinchidan, olib borilgan omilli tahlil natijasida kelgusida qishloqda servis xizmatini rivojlantirishning ilmiy asoslangan kelajak parametrlarini belgilab berish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, omilli tahlil natijasida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari hisoblab chiqish va shu asosda sohaning kelgusidagi rivojlanishi va samaradorligining taraqqiyot mezonlarini belgilab berish imkonini beradi.

Boshqaruv organlari va qishloqdagi servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning innovatsion servis xizmatlarini tashkil etishga qiziqishlarining yetarli darajada emasligi ham asosiy salbiy omillardan biri hisoblanadi.

Aksariyat korxonalarda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish uchun unga kiritilayotgan xarajatlarning kelgusida qoplanmay qolish tahdidi ham mavjud. Bu esa, ko‘rsatilayotgan servis xizmatlarining

rivojlanishiga imkon bermaydi hamda qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining o‘sishiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga va sifatining yaxshilanishiga to‘sqinlik qiladi.

Umuman olganda, servis xizmatlari faoliyatini qishloqda samarali tashkil etish uchun davlat bosh islohotchi hamda nazoratchi sifatida mamlakatimizning barcha qishloqlarida servis xizmatlarini yuqorida bayon qilingan omillar ta'sirini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2.3.-§. Qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatish strategiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Ma'lumki, servis xizmat ko‘rsatishni yuqori sifatli tashkil etish uchun qishloqda texnika va texnologiyalarning holati muhim o‘rinni egallaydi. Bu esa, servis xizmat ko‘rsatish ob'yektlarini modernizatsiyalashni zamonaviy texnologiyalar asosida resurslar tejamkorligini ta'minlab, xarajatlarni pasaytirish imkonini yaratadi.

Servis xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Respublika mustaqillik davrining dastlabki yillaridan boshlab davlat tomonidan ko‘plab qonunlar ishlab chiqarildi hamda qabul qilindi.

Ayniqsa, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek barcha sohalarda, shu jumladan qishloqda servis xizmati sohasida ham “Taraqqiyotning O‘zbek modelini amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o‘z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O‘zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy

o‘zgarishlarni ta'minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi”[85] degan fikrlari yangi strategik imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”[86]gi PF-4947-son Farmoniga muvofiq iqtisodiy tarmoqlarni, jumladan servis xizmat ko‘rsatish sohasini ham modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan strategiyani alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”[87]gi PF-4947 sonli Farmonda respublikamiz tumanlarida, shu jumladan qishloqlarda 46,8 mingta ish o‘rinlarini tashkillashtirish Davlat dasturi sifatida qabul qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini shunday sur'atlarda rivojlantirish uchun innovatsion jarayonlarni amaliyotda qo‘llash zururiyati tug‘iladi. Bunday texnologiyalar asosida qishloqlarda ishlab chiqarish va servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish esa resurslar tejamkorligini ta'minlaydi.

Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyotini asosi bo‘lib xizmat qilganligi bilan belgilanadi (2.3-rasm).

[85] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/9343-taraqiyotning-o-zbek-modeli

[86] https://lex.uz/acts/3107036

[87] https://lex.uz/acts/3107036



2.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi “Harakatlar strategiyasi” asosida qishloqda servis xizmatini rivojlantirish[88]

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha tarmoq va sohalarini tezkor rivojlanishini belgilab bergan “Harakatlar strategiyasi”ning joriy qilinishi, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun o‘ziga xos strategik yo‘nalishlarni asoslab berganligi bilan ajralib turadi. Bunday strategik yo‘nalishlar qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qilib, yuqori sifatli va jahon talablariga mos servis xizmatlarini tashkil etishi bilan ham ajralib turadi. Qishloqda servis xizmatlar ko‘rsatishning “Harakatlar strategiyasi”ga mos rivojlanishining asosiy strategik yo‘nalishlari quyidagilarda o‘z aksini topgan (2.4-rasm).

[88] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947 sonli Farmoni asosida muallif ishlanmasi. https://lex.uz/docs/3107036



2.4-rasm. **Qishloqda “Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirish mexanizmlariga mos rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari**[89]

Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning uzoq yillarga mo‘ljallangan strategiyasini shakllanishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” [90] gi PF-4947 sonli Farmon yurtimizda 2017-2021 yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib amalga oshirilib kelingan Davlat dasturi asosida yangi imkoniyatlar yaratildi. Ushbu Davlat dasturi doirasidan kelib chiqib, qishloqda servis xizmatlarining asosiy rivojlanish yo‘nalishi qishloq aholisining hayot sifatini oshirishga va daromadini ko‘paytirishga yo‘naltirilganligi bilan harakterlanadi. Bu esa, qishloq aholisi uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi servis xizmatlari, ayniqsa davlat xizmatlarini yangicha yondashuv asosida imkoniyatlarini

[89] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”gi PF-4947-son Farmoni asosida muallif ishlanmasi. https://lex.uz/docs/3107036
[90] O‘sha joyda.

ochib beradi. Alohida ta'kidlash zarurki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 dekabrda “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [91] gi PF-5278-son Farmoniga muvofiq qishloqda mutlaqo yangicha servis xizmatlarini aholiga ko‘rsatish imkoniyatlariga ega bo‘linganligi bilan izohlanadi. Qishloqda aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” [92] gi PQ-3430-son Qarori bilan tasdiqlandi me'yoriy huquqiy hujjatlarda ham alohida ustuvorlik beriladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra respublikamizda bugungi kunda, davlat xizmatlari agentliklari tomonidan 162[93] ta turdagi turli xizmatlar tadbirkorlik sub'yektlari va aholi uchun ko‘rsatib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda “Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan strategik vazifalar asosida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ayniqsa qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatishda axborot texnologiyalariga e'tibor kuchaydi. Bunday texnologiyalarni qo‘llash orqali har bir sohada shaffoflikni ta'minlash, axborot almashinuvida tezlikka va aniqlikka erishish imkonining mavjudligi bilan izohlanadi.

Belgilab berilgan “Harakatlar strategiyasi” talablari asosida zamonaviy iqtisodiyotda axborot texnologiyalarining o‘rnini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 5 oktyabrda ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali

[91] https://lex.uz/docs/3454462
[92] https://lex.uz/docs/3454989
[93] https://davxizmat.uz/uz

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[94]gi PF-6079-sonli Farmonning tasdiqlanishidan ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu Farmoga ko‘ra, “...aholi punktlarini sifatli Internet tarmog‘iga ulash, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkaziladi...” haqida maqsadli vazifalar belgilab berilgan edi. Bu “Raqamli iqtisodiyot” davrida qishloqda aholiga sifatli internet xizmatlari orqali masofaviy servis xizmatlaridan foydalanish uchun keng qulayliklar yaratadi.

Ayniqsa, belgilab olingan “Harakatlar strategiyasi” muvoffaqiyatli amalga oshirishda bir qator qishloqda axborotlashtirish tizimi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lgan va ular servis xizmat ko‘rsatishni axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda sifatli telefon va internet tizimini rivojlantirishni muhim o‘ringa qo‘yish lozim. O‘z navbatida axborot texnologiyalarning bunday o‘zgarishi jamiyatimizning texnikalar bilan muomila madaniyatini yanada oshiradi, ayniqsa qishloqda axborot almashuv, axborot tarqatish servis xizmatlarini ko‘rsatishga keng imkoniyatlarni yaratadi.

Shu bilan birga, qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatish (COVID-19) pandemiyasi davrida ham alohida yondashuvni talab etdi va bu jarayon respublikamiz hukumati tashabbusi bilan yuqori ijobiy natijaga erishildi.

Qishloqda servis xizmatlarining aholi hayotidagi o‘rnini mamlakatimizda 2020 yilda (COVID-19) infeksiyasining tarqalishi sababli karantin qoidalarining kirishi bilan ham izohlash mumkin. Ya'ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 22 aprel

[94]https://lex.uz/docs/5030957

kuni bo‘lib o‘tgan videoselektorda “...Hozirgi kunda umumiy ovqatlanish tarmog‘ida 13 ming, savdoda 45 ming, xizmat ko‘rsatishda 19 ming, transportda 7 ming korxona faoliyatini to‘xtatgan yoki tushumlari keskin kamaygan.”[95] deb ta'kidlab o‘tdilar. Aytish joizki, o‘sha davrda aholining servis xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi tabiiy holatdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Harakatlar strategiyasi” talablaridan kelib chiqib qishloqda servis xizmatlarini yangi innovatsion va axborot texnologiyalar asosida amalga oshirish, shuningdek sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan va bu jarayonni mamlakatimizda tizimli tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

Respublikamizda, shu jumladan uning hududlarida servis xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish asosan qishloqda ishlab chiqarish (agrar sohada), ijtimoiy soha tizimidagi xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatish jarayonini o‘rganish maqsadida sohaga qo‘yilgan investitsiyalar samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini o‘rgandik (2.15-jadval).

[95] https://president.uz/uz/lists/view/3515

2.15-jadval

Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloqda servis xizmatiga qo‘yilgan investitsiyalar samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili[96]

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar		2021 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarish sur'ati	
		2020	2021	+;-	%
I. Qishloqda servis xizmati bilan bog‘liq hajm ko‘rsatkichlari					
1.	Servis korxonalari soni (dona) *(X)*	1241	1782	541	143,6
2.	Servis sub'yektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m) *(X_1)*	918,8	1172,6	253,8	127,6
3.	Servis sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m) *(X_2)*	713,2	1423,2	710,0	199,6
4.	Servis sohalari uchun ketgan xarajatlar qiymati (mlrd. so‘m) *(X_3)*	678,2	734,4	56,2	108,3
5.	Servis korxonalaridan olingan foyda (mlrd. so‘m)*($F_1=X_1:X_3$)*	240,6	438,4	197,8	182,2
6.	Servis korxonalari rentabelligi (R=*$F_1:X_1$)*	0,3	0,4	0,1	
II. Natija va omillarni ifodalovchi nisbiy ko‘rsatkichlar					
7.	1 ta servis korxonasiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi (mln. so‘m) *($Q=X_1:X$)*	740,4	658,0	-82,4	88,9
8.	1 ta servis korxonasiga kiritilgan investitsiya qiymati (mln. so‘m) *($Q_1=X_2:X$)*	574,7	798,7	224,0	139,0
9.	1 ta servis korxonasiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar qiymati (mln. so‘m) *($Q_2=X_3:X$)*	546,5	412,1	-134,4	75,4
10.	Bir birlik servis korxonasiga to‘g‘ri keladigan foyda qiymati (mln. so‘m) *($Q_3=F_1:X$)*	193,9	246,0	52,1	126,9

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloqda servis xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 2020 yilda 1241 tani tashkil etgan bo‘lib, 2021 yilda 1782 tani, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 541 ta (143,6 foiz)ga ko‘paygan. Servis sub'yektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2020 yilda 918,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021 yilda 1172,6 mlrd. so‘mga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 253,8 mlrd. so‘m

[96]Jadval Samarqand viloyat Samarqand tuman statistika Bo‘limi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

(127,6 foiz)ga koʻpaygan. Servis sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2020 yilda 713,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021 yilda 1423,2 mlrd. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 710,0 mlrd. soʻm (2,0 marta)ga koʻpaygan. Servis sohalari uchun ketgan xarajatlar qiymati 2020 yilda 678,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021 yilda 734,4 mlrd. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 56,2 mlrd. soʻm (108,3 foiz)ga koʻpaygan. Servis korxonalaridan olingan foyda 2020 yilda 240,6 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2021 yilda 438,4 mlrd. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 197,8 mlrd. soʻm (1,8 marta)ga koʻpaygan. Shu bilan birga, servis korxonalari rentabellik koeffitsienti 2020 yilda 0,3ni tashkil etib, 2021 yilda 0,4ga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 0,1 koeffitsientga oʻsgan.

Natija va omillarni ifodalovchi nisbiy koʻrsatkichlar tahlili boʻyicha 1 ta servis korxonasiga toʻgʻri keladigan xizmatlar hajmi 2020 yilda 740,4 mln. soʻm boʻlib, 2021 yilda 658,0 mln. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan -82,4 mln. soʻm (88,9 foiz)ga kamaygan. 1 ta servis korxonasiga kiritilgan investitsiya qiymati 2020 yilda 574,7 mln. soʻm boʻlib, 2021 yilda 798,7 mln. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 224,0 mln. soʻm (139,0 foiz)ga koʻpaygan. 1 ta servis korxonasiga toʻgʻri keladigan xarajatlar qiymati 2020 yilda 546,5 mln. soʻm boʻlib, 2021 yilda 412,1 mln. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan -134,4 mln. soʻm (75,4 foiz)ga kamaygan. Bir birlik servis korxonasiga toʻgʻri keladigan foyda qiymati 2020 yilda 193,9 mln. soʻm boʻlib, 2021 yilda 246,0 mln. soʻmga, ya'ni 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 52,1 mln. soʻm (126,9 foiz)ga koʻpaygan.

Bugungi kunda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning

Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[97]gi PF-60-son Farmon qabul qilindi. Ushbu strategiya 94[98]ta, shu jumladan qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish bo‘yicha milliy maqsadlarni qamrab olgan bo‘lib, u quyidagi 7 ta ustuvor yo‘nalishlardan tashkil topgan (2.5-rasm).



2.5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi “Taraqqiyot strategiyasi” asosida qishloqda servis xizmatini rivojlantirish[99]

[97]https://lex.uz/docs/5841063
[98]https://parliament.gov.uz/uz/events/other/36810/
[99]https://strategy.uz/index.php?news=1465 sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Respublikamizning kelgusi 2026 yilgacha bo‘lgan taraqqiyotini belgilab beradigan mazkur “Taraqqiyot strategiyasi” qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda qabul qilinayotgan rivojlanish strategiyalari va Davlat dasturlari aholining turmush sharoitini yaxshilashga, sanoat ishlab chiqarish, servis xizmatlari sifatini oshirishga hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkam shakllantirishga xizmat qiladi.

“Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, uning vazifalarini quyidagicha izohlash mumkin: – u, inson qadriga qaratilgan bo‘lib, aholiga ko‘rsatilayotgan ta'lim, tibbiy, kommunal xizmatlar, zamonaviy infratuzilma, sog‘lom ekologik muhit hamda har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitlarini yaratib berishga qaratilgan. Shunday ekan, qishloqda servis xizmatlar ko‘rsatishning “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha (2.6-rasm).

“Taraqqiyot strategiyasi”da inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy servis xizmatlarini bevosita qishloqlarda va mahallalar kesimida ko‘rib chiqish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanib kelayotgan aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tibbiy, ta'lim xizmatlarini tashkil etish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi.



2.6-rasm. Qishloqda “Taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirish mexanizmlariga mos rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari[100]

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning “Taraqqiyot strategiyasi” asosida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning yo‘nalishlari belgilab berilgan. Tadqiqot ishimizda “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos servis xizmatlarini rivojlantirishning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini o‘rgangan holda SWOT tahlili asosida ilmiy asoslanildi (2.16-jadval).

[100] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 26 yanvar 2022 yil.

2.16-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos aholiga servis xizmatlari strategiyasini rivojlantirishning SWOT tahlili[101]

KUCHLI TOMONLAR	ZAIF TOMONLAR
- Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ma'yoriy-huquqiy asoslarning yaratilganligi va moliya-kredit imtiyozlarining mavjudligi; - Qishloqda aholiga servis xizmatlarining o‘z vaqtida ko‘rsatilishi va buning uchun barcha qulayliklarning yaratilganligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishning modernizatsiya va diversifikatsiyalashuvi asosidagi rivojlanish dasturlarining shakllantirilganligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish bozorida raqobatchilarning mavjudligi va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun imkoniyatlarning mavjudligi; - Qishloqdagi bozorlarda servis xizmat ko‘rsatish uchun talab va taklifning mavjudligi.	- Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish korxonalar sonining talab darajasiga to‘g‘ri kelmasligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlarning sifat talablariga javob bermasligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish uchun belgilangan narxlar mijozlar ehtiyojini qondirmasligi; - Qishloqda aholiga sifatli servis xizmat ko‘rsatish uchun moddiy-texnika bazasini yangilab turish majburiyatini yetarli darajada bajaraolmasligi; - Qishloqda aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatishda xavfsizlik va sug‘urtalashning yetarli darajada rivojlanmaganligi; - Qishloqda aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatishni litsenziya va boshqa tegishli hujjatlar bilan muvofiqlashtirilmaganligi.
IMKONIYATLAR	**TAHDIDLAR**
- Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishning qonuniy asoslari mavjudligi va ularga ustuvorlik berilganligi; - Qishloqdagi servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash darajasining yuqoriligi; - Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantiruvchi Davlat dasturi va strategiyasining mavjudligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga imtiyozli soliq va kreditlar asosida moliyalashtirishning imkoniyatlarini mavjudligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish uchun infratuzilmani rivojlanishining ta'minlanganligi.	- Qishloqda servis xizmat ko‘rsatish narxlarining o‘zgarishida nomutanosibliklar; - Qishloqdagi bozorlarda sifatsiz servis xizmatlardan kuriladigan zarar xavfining yuqoriligi; - Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashqi omillar ta'sirida o‘z vaqtida bajarishning kafolatlanmaganligi; - Qishloqda servis xizmatlari ko‘rsatish sohasida qonunchilikda o‘zgarishlar tufayli keladigan xavflarning mavjudligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish uchun kuchli, zaif, imkoniyat hamda tahdidlarini ko‘rsatib beradi. Ushbu SWOT tahlilidan foydalanib,

[101]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mamlakatimiz bo‘yicha qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda mavjud kamchiliklarga e'tibor qaratish uchun zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos rivojlantirish uchun qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlari tahlili natijasida quyidagi ilmiy asoslarga ega bo‘lindi:

Birinchidan, o‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va hukumat qaror, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari tahlili asosidagi xulosalari va eng muhimi O‘zbekiston Respublikasining “Taraqqiyot strategiyasi”da qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda rivojlantirish yo‘llari va yo‘nalishlari belgilab berildi;

Ikkinchidan, belgilab berilgan “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos holda Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning SWOT tahlili asosida qishloqda servis xizmatining kuchli, zaif, imkoniyatlar va tahdidlari ochib berildi.

Uchinchidan, respublikamizda belgilab berilgan “Taraqqiyot strategiyasi” asosida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlili natijasida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari hisoblab chiqish va shu asosda sohaning kelgusidagi rivojlanishi va samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini belgilab beradi.

Qishloqda servis xizmatini tashkil etish, rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Respublikamiz bo‘yicha qishloqlarda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish uchun mazkur monografiyaning 2.1. rejasida keltirilgan qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va uni rivojlantirishning hozirgi holatining ilmiy-amaliy tahlilidan kelib chiqib servis xizmat ko‘rsatish sub'yektlarini qishloqlarda ko‘paytirishga, shu bilan birga ularni boshqarish, ularning huquqlarini himoya qilish, moliyaviy manbalarni belgilab berish mumkin bo‘ladi;

2. Monografiyada keltirilgan sifat ko‘rsatkichlari Respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tayyorlash jarayonida qishloqlarda servis xizmat ko‘rsatish sub'yektlar faoliyatini zamonaviy bozor talablari asosida tashkillashtirishda foydalanish imkonini beradi;

3. Tadqiqotlar natijasida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga ta'sir ko‘rsatuvchi salbiy va ijobiy omillar guruhi ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib, qishloqda servis xizmatga to‘sqinlik qiluvchi omillar guruhi ko‘rsatildi;

4. Mazkur monografiyada keltirilgan so‘rovnoma anketalari hamda monografik kuzatuvlar natijalarini qishloqda servis xizmatlarining hozirgi holatini baholashda va kelgusida bozor talablariga muvofiq rivojlantirishning aniq yo‘nalishlarini belgilab olish maqsadida foydalanish mumkin;

5. Tadqiqot ishining 2.3. rejasida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalarida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarimizning o‘tgan hamda hozirgi zamon taqqoslama nazariy tahlili

qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi;

6. 2.15-jadvalda keltirilgan Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloqda servis xizmatiga qo‘yilgan investitsiyalar samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili natijasida keltirilgan ma'lumotlar respublikamiz, shu jumladan Samarqand viloyatining boshqa hududlarida ham servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda foydalanish imkonini beradi;

7. Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning kuchli, zaif, imkoniyat hamda tahdidlar SWOT tahlili usuli bilan aniqlanib, keltirilgan natijalar asosida bu sohani samarali tashkil etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari keltirildi;

8. Mazkur monografiyaning 2-bobida keltirilgan ilmiy-amaliy izlanishlar respublikamiz, shu jumladan Samarqand viloyatining qishloqdagi aholining hayot sifatini oshirishda servis xizmatlarining ahamiyatini va ustuvor vazifaligini izohlab beradi. Shuningdek, keltirilgan ilmiy-amaliy natijalardan foydalangan holda mamlakatimiz bo‘yicha qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning kelgusi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlarini ishlab chiqishda foydalanish imkonini beradi.

III BOB. QISHLOQDA SERVIS XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni innovatsion va raqamli texnologiyalarga mos rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari

Mamlakatimizda innovatsion va raqamli texnologiyalar rivojlanishi, shuningdek ishlab chiqarish va servis xizmat ko‘rsatishda bunday texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha ustuvor vazifalardan kelib chiqib, qishloqda servisni rivojlantirish bo‘yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti tarkibida servis xizmatlari ulushining ortish sabablaridan biri servis xizmatlari sohasidagi modernizatsiya ishlarining olib borilishidadir. Bunday mamlakatlar har qanday sohani zamon talablariga mos va xos tashkil etish, sohani samarali olib borish imkonini beruvchi mexanizmlarni joriy qilish yoki yangilab turishni ustuvor vazifalar etib belgilab boradi. Shu sababli, bugungi iqtisodiyotni tezkor rivojlanishi sharoitida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish taqozo etiladi.

Bizning fikrimizcha qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishda quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur hisoblanadi: Birinchidan, qishloqda servis xizmatlarini ko‘rsatishning innovatsion va raqamli texnologiyalarga mos tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish; Ikkinchidan, qishloqda aholiga servis xizmatlarini ko‘rsatishni klaster mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

Uchinchidan, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik model parametrlariga asoslangan iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish va takomillashtirish.

Servis xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirishga, mamlakatning yalpi ichki mahsulot tarkibida servis xizmatlari ulushini va rolini oshirish, ko‘rsatilayotgan servis xizmatlarining tarkibini hamda tuzilmasini, asosiy o‘rinda, servis xizmat ko‘rsatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga e'tibor berilganligi, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida servis xizmatlarining alohida o‘rin egallashini izohlaydi. Shu sababli, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish, servis xizmat ko‘rsatish faoliyatini samarali boshqarishda ilmiy-uslubiy asoslarni takomillashtirish maqsadida taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biridir. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar davlat va tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining ajralmas qismidir. Ular faoliyatni samarali tashkil etish, mulkga egalik qilish va boshqa yo‘nalishlarni belgilab berishda xizmat qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar servis xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun davlat tomonidan qabul qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni samarali amalga oshirishda rivojlanish drayveri hisoblanadi.

Bugungi kunda, qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni innovatsion, raqamli texnologiyalar yordamida tashkillashtirish uchun takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish zarur. Qishloqda servis xizmatlarni rivojlantirishning raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularni asosiy yo‘nalishlari (3.1-rasm).



3.1-rasm. Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularni asosiy yo‘nalishlari[102]

Keltirilgan 3.1-rasmda qishloqda servis xizmatlarni rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarining to‘rttadan asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Bugungi kunda ushbu mexanizmlar qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Shunga ko‘ra, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining tarkibi quyidagicha (3.2-rasm).

[102]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3.2-rasm. Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari[103]

Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishda servis xizmat ko‘rsatishning innovatsion texnologiyalariga mos mexanizmlarini shakllantirishga alohida ustuvorlik berilgan.

[103]Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning sifatini oshirish uchun quyidagi qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkiliy innovatsion tuzilmasi taklif etildi (3.3-rasm).

Innovatsion yondashuvni tashkil etishda davlat bosh islohotchi rolida bo‘lib, moliyalashtirish davlat, xususiy sektor, davlat-xususiy sherikchilik asosida tashkil etilishi mumkin bo‘ladi.



3.3-rasm. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkiliy innovatsion tuzilmasi[104]

[104]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Izoh:

Q.X. – Qishloq xo‘jaligi korxonasi;

Q.S.M.T. – Qishloqda servis ma'lumotlari tizimi.

Bunday yondashuvning o‘ziga xosligi shundan iboratki, qishloqdagi aholi servis xizmatlardan foydalanish uchun hozirgi kunda an'anaviy usul bilan cheklanib qolmaydi. Ya'ni, aholi iste'mol tovarlari yoki ularga kerak bo‘lgan servis xizmatlar haqida ma'lumot olishlari elektron (raqamli) texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Ular, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat xizmatlari agentligi, servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonaga murojaat etishlari yoki murojaat etishda muqobil aloqa turi (qurilmasi) orqali aloqa o‘rnatishlari mumkin bo‘ladi. Servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning ma'muriyati o‘z xodimlarining amaliyotda buyurtmachiga servis xizmat ko‘rsatish jarayonini baholash yoki nazorat qilib borish bilan mijozlar ishonchini yanada oshirishga erishishlari imkoni tug‘iladi.

Ushbu yondashuvning yana bir qulayligi shundaki, qishloqdagi aholi va servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlar ko‘rsatilgan servis xizmatlaridan qoniqish darajasi haqida ma'lumot olish imkoniga ega bo‘ladi. Istemolchi hamda ishlab chiqaruvchining vaqti tejaladi, tovar yoki ko‘rsatilayotgan servis xizmatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri servis korxonasining nazoratida bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi aholi yoki mahsulotlarni qayta ishlab chiqaruvchi sotish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolardan ozod bo‘ladi. Taklif etilayotgan tovar yoki servis xizmatlarga buyurtmalarni oldindan berish imkoni mavjud bo‘ladi. Agrotexnik tadbirlar yoki agrotexnikalarga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlar haqida ma'lumot, mavjud bo‘sh texnikalar va ularning bandligi bo‘yicha ma'lumot, eng ko‘p talab qilinayotgan tovar va servis xizmatlar

bo‘yicha ma'lumot ochiq bo‘ladi, qishloqdagi aholiga xom ashyo yetkazib berish va zarur bo‘layotgan ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish uchun ochiq axborot bazasi shakllanadi.

Ulgurji savdo korxonalari, agrobirjalar, chakana savdo korxonalari, qayta ishlab chiqarish korxonalari bilan aniq shartnomalar tuzish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish – mahsulotlar hajmini aniq rejalashtirish orqali isrofgarchilikning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Samarasiz xizmatlar (talab kam bo‘lgan)ni tugatish va yangi tug‘ilayotgan servis ehtiyojlariga qarab servis xizmatlarni tashkil etishga imkon yaratiladi.

Tadqiqotlar jarayonida, qishloqlardagi aholiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish davomida ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari jismoniy yoki ma'naviy eskirgan texnikalar orqali amalga oshirilayotganligi kuzatildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda servis xizmat ko‘rsatish texnikalarini ta'mirlash sub'yektlarning yetishmasligi nosoz texnikalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida taklif etilayotgan qishloqdagi aholiga markazlashtirilgan servis xizmatlari tarkibiga servis xizmat ko‘rsatish texnikalarini mavsumiy ko‘rik o‘tkazish va ishlov berish (terim)ga tayyor holatini nazorat qilish korxonalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qishloq servis xizmatlarini innovatsion asosda rivojlantirish maqsadida muallif tomonidan “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanildi. Ushbu markazning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Maqsadi – markaz qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun xizmat qiladi va aholini doimiy ish bilan bandligini ta'minlash uchun

biznes loyihalar ishlab chiqarish, ushbu loyihalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni belgilangan shartnoma muddatlarida amalga oshiradi;

Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi – qishloqda yashab kelayotgan aholining imkoniyatlarini o‘rganadi, hududlarda bozor ehtiyojlarini o‘rganadi, ularga biznes va tadbirkorlik qilish uchun eng ma'qul taklif va g‘oyalar beradi. Korxona vakili tadbirkorlik, biznesini boshlash istagida bo‘lgan shaxslarga biznes trenerlik vazifasini bajaradi va to‘liq mahalliy organlar bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Korxona vakili tadbirkorlik, biznesni boshlash istagida bo‘lgan, ammo shaxsning o‘z mablag‘lari yetishmaydigan taqdirda, mahalliy (tadbirkorlar, tijorat banklari) va xorijiy investorlar imkoniyatlaridan foydalanish uchun shaxs qabul qilgan biznes loyihani investorlarga taqdim etadi. Shartnomalar bajarilish muddatlari, uch tomonlama foydalar taqsimotini ishlab chiqadi. Yangi yo‘lga qo‘yilgan qishloq servis xizmat loyihalarini doimiy nazoratga oladi va tegishli tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishini nazorat qiladi.

“Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markaz vakillari o‘z daromadlarini quyidagicha oladi: – Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik va biznes korxonalari bilan tuzilgan shartnoma muddatlarida korxona foydaga kirishi bilan o‘z ulushini olib turadi, shu jumladan, mahalliy (tadbirkorlar, tijorat banklari) va xorijiy investorlar ulushining vaqtida to‘lanishini nazorat qiladi. Bu ko‘rinishda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish faoliyatining rivojlanishi evaziga qishloqda servis xizmat ko‘rsatish hajmi, servis xizmat ko‘rsatish korxonalari sonining ortishi va yangi tashkil etilayotgan korxonalarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi bilan ortadi.

Taklif etilayotgan “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazining

tashkiliy tuzilmasi quyidagi sxemadan iborat (3.4-rasm).

Ushbu korxonaning moliyaviy manbalari tadbirkor va biznesmenlarning foydasidan olingan ulushdan shakllantiriladi. Har bir qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlar tomonidan aniqlangan va loyiha taklif etilgan sub'yektning foydasidan belgilangan ulush xodimning oyligiga, tijorat tashkilotiga va servis xizmat ko‘rsatish idorasi o‘rtasida taqsimlanadi. Qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlar tadbirkor, biznesmenning faoliyatini rivojlanishida katta rol o‘ynaydi va uning loyihasi rejalashtirilgan muddatlarda amalga oshgunga qadar yoki shartli ravishda shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lanishi kerak bo‘lgan foyda qismini to‘la qoplab berish evaziga shartnoma bekor qilinadi.

“Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markaz bo‘lim va xodimlarining huquq va majburiyatlari quyidagicha bo‘lishi taklif etilmoqda:

- Qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trener – hudud imkoniyatini, iste'molchilar ehtiyojlari va bozor talabidan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yektlari, biznesni boshlamoqchi bo‘lgan, faoliyatini modernizatsiyalash hoxishi mavjud bo‘lgan fuqarolarni izlab topadi va ularga ma'qul, faoliyatlarini rivojlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqadi. Ushbu biznes loyihasini amalga oshirish uchun barcha hujjatlarni tayyorlaydi, pul manbalarini izlaydi;



3.4-rasm. Qishloqda "Servis xizmat ko'rsatish" innovatsion markazining tashkiliy tuzilmasi sxema[105]

[105]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- Axborot ta'minoti va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan ishlash bo‘limi – korxona direktori, korxona direktor o‘rinbosarlari, biznes loyihasini amalga oshirishda qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlarga korxona bo‘limlarida kerakli ma'lumotlarni, davlat boshqaruv apparati idoralari, statistik axborotlar, soliq inspeksiyasi ma'lumotlari, davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi, savdo sanoat palatasi, mehnat birjalari, bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyat va ma'lumotlarni, sug‘urta kompaniyalari, bojxona xizmatlari hamda ma'lumotlari haqida va boshqa shu kabi idora, xizmatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan aloqalarni ta'minlab beradi, zarur bo‘lgan axborotlarni olib beradi;

- Buxgalteriya – korxona kadrlari oylik maoshlarini taqsimlaydi, korxona inventarlari hisoblarini olib boradi, pul oqimlarini taqsimlaydi, banklar bilan moliyaviy faoliyatda uzviy aloqada bo‘ladi;

- Rejalashtirish bo‘limi – qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni ko‘rib chiqadi, qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlar, investorlar va tadbirkor, biznesmenlar foydasini biznes loyiha amalga oshirilgandan so‘ng foydalarni to‘lov muddatlarini, foydani taqsimlaydi;

- Servis xizmatini tashkil etish bilan ishlash bo‘limi – tadbirkor, biznesmen faoliyatini doimo nazoratga oladi, krizis holatiga tushgan korxonalarni krizis holatidan chiqarish uchun muqobil yo‘llarni taklif etadi. Korxonani rivojlantirish drayver (richag)larini ishlab chiqadi. Chet eldan texnika va texnologiyalar olib kelishda to‘liq ko‘maklashadi, keyin to‘lab berish (lizing) sharti bilan olib keladi;

- Kadrlar bo‘limi – servis xizmat ko‘rsatish korxonasining personali bilan ishlaydi. Kerakli bo‘lgan mutahassislarni, oliy o‘quv yurtlari

bitiruvchilarini ishga taklif etadi hamda malakaviy amaliyot o‘tashlarini ta'minlab beradi. Kadrlarni malaka oshirishga, stajirovka (mahalliy oliy o‘quv yurtlari, IT kurslari, chet elda nufuzli korxonalar tajribasini o‘rganish)ga yuborish loyihasini korxona ma'muriyatiga taklif etadi, yuboradi va nazorat qiladi;

- Majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish bo‘limi – tadbirkor, biznesmenlar bilan imzolangan shartnoma shartlarini bajarilish muddatlari, tartiblarini nazorat qiladi. Shartnomalar shartida keltirilgan ikki, uch va ko‘p tomonlama shartlarni buzilish holatlarini aniqlaydi hamda huquqiy jihatdan shartnoma shartlarini bajarilishining oqibatlarini tushuntiradi aks holda huquqiy jihatdan jazolarni belgilash uchun tegishli huquq idoralariga murojaat qiladi. Buzilgan shartlar bo‘yicha huquq idoralariga hujjatlarni isbotlari bilan tahlaydi va sud qarorlari ijrosini belgilangan tartibda o‘tishini nazorat qiladi (bu yerda huquq idoralari bilan hamkorlikda faoliyat amalga oshiriladi);

- Fuqaro shikoyatlari bo‘limi – korxona xodimlariga berilgan vakolatlarining buzilish holatlari bo‘yicha tushgan arizalar (qonun, qoida buzarlik, firibgarlik va boshqa) bo‘yicha fuqaro (tadbirkor, biznesmen)larning murojaatlarini qabul qiladi, huquqiy masalalar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlariga yoki direktorga shikoyat bo‘yicha tegishli hujjatlarni taqdim etadi. Korxona kadrlari tomonidan aniqlangan noqonuniy harakatlar, ushbu harakatlar tufayli shartnomalar buzilishi natijasida kadrlarga nisbatan intizomiy, moliyaviy jazolanish loyihasini tuzadi va huquqiy masalalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari yoki direktorga topshiradi;

- Shartnomalar bo‘limi – taklif etilgan va rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni rasmiylashtiradi. Tomonlar

huquq va majburiyatlarini O‘zbekiston Respublikasining kodekslariga muvofiq shartnomalarda to‘g‘ri belgilanishini ta'minlaydi. Shartnomalarda kelishilgan muddatlar tugagan taqdirda (agar shartlar bajarilgan bo‘lsa) shartnomalarni keyingi davr uchun qayta rasmiylashtiradi (tomonlar roziligi bilan);

- Moliyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari – bo‘limlar faoliyatini nazorat qiladi. Korxona direktori, markaz hay'ati va ekspertlar kengashi qarorlarini ijrosini ta'minlaydi. Yangi rejalashtirilayotgan loyihalarni markaz direktori, markaz hay'ati va ekspertlar kengashiga taqdim etadi, rejalarni moliyalashtirish manbalari bilan o‘zaro kelishuvlarni rasmiylashtirish uchun hamkorlikda ishlashni taklif etadi. Loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari, mahalliy va xorijiy investorlarni izlaydi, shu jumladan korxonadagi bo‘sh mablag‘larni ham jalb etilishini ta'minlaydi;

- Huquqiy masalalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari – bo‘limlar faoliyatini nazorat qiladi. Bo‘limlar tomonidan yuritilayotgan hujjatlarda huquqiy, konstitutsiyaviy, hatoliklar bo‘lmasligini ta'minlaydi. Huquqiy, konstitutsiyaviy buzilishlar aniqlanganda ularni tegishli huquq idoralariga taqdim etadi;

- Servis xizmat direktori – korxona faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishida to‘liq qatnashadi. Barcha bo‘lim va xodimlar moliyaviy va huquqiy harakatlarini nazorat qiladi. Moliyaviy va huquqiy masalalarda qarorlar qabul qiladi, tuzilgan shartnomalar, loyihalarning bajarilishini nazorat qiladi. Boshqa davlat, nodavlat, chet el korxona va tashkilotlari bilan kelishuvlar imzolaydi hamda ushbu kelishuvlar amalga oshirilishini

ta'minlaydi. Fuqaro, tadbirkor, biznesmenlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘ladi, ular murojaatlarini o‘rganib turadi;

- Markaz hay'ati – taqdim etilayotgan loyihalar (tadbirkorlik, biznes)ni moliyalashtirish uchun tijorat banklari, mahalliy, xorijiy investorlar va boshqa korxona va tashkilotlar tarkibidan shakllanadi. Ularni “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazi taklif berish asosida qiziqtirib jalb etadi;

- Ekspertlar kengashi – Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda mahalliy idoralari, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda mahalliy idoralari, mahalliy boshqaruv organlari va taklif etilayotgan loyiha yo‘nalishidan kelib chiqib shakllanadi. Asosiy vazifa – taklif etilayotgan loyihaning qanchalik to‘g‘riligi va qaysi tartibda amalga oshirilishiga baho berish.

Qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trenerlar hatoligi bilan loyiha amalga oshmagan taqdirda tadbirkor, biznesmen to‘lovni amalga oshirmaslik huquqiga ega bo‘ladi. Iqtisodiy havf-xatar yuqori biznes loyihasi bo‘lganda qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trener tadbirkor, biznesmen mulkini tijorat tashkilotiga garovga qo‘yishni, sug‘urtalashni taklif etadi. Shunda, tadbirkor, biznesmen va qishloq servis xizmati bo‘yicha o‘qituvchi trener tijorat tashkiloti oldida teng javobgar hisoblanadi.

Tijorat tashkilotlari faqat tadbirkorlik sub'yektlarini moliyalashtirish uchun moliyaviy manba sifatida qatnashadi. “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazi, tijorat tashkiloti va tadbirkor, biznesmen o‘rtasida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, qishloqda infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarishni yo‘lga

qo‘yish, qishloq xo‘jaligi va agroservis korxonalarini modernizatsiyalash maqsadida o‘z faoliyatini olib boradi.

Ma'lumki, qishloqda axborot texnologiyalari asosida servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun avvalo aloqa servis xizmatlarini sifatli tashkil etish kerak bo‘ladi. Buning uchun, aloqa operatorlari tomonidan servis xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga ehtiyoj ortadi. Aloqa operatorlarining faoliyatini takomillashtirish bilan qishloqdagi aholining aloqa servis xizmatlarga bo‘lgan talabi ham yaxshilanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi 3.3-rasmda keltirilgan yondashuvni soddalashtirish, ma'lumotlarni ixchamlashtirish va ularga ketadigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida QR kod (Quick Response Code)dan keng foydalanish mumkin. Ya'ni, ushbu kod orqali taklif etilayotgan servis xizmatning to‘liq tavsiloti yoki videoroligi, mavjud servis xizmatlar haqida to‘liq ma'lumotlar bazasini, qadoqlangan tovarlar haqida (ishlab chiqarilgan muddati, qayerda va kim tomonidan ishlab chiqarilganligi, iste'mol qilish muddati, saqlash va tashish bo‘yicha tavsiyalar va h.k.) keng axborot olish mumkin bo‘ladi.

Ma'lumki tadbirkorlar uchun axborot almashinuv vositalarining rivojlanishi, ulardan keng va osonlik bilan foydalanish kabi imkoniyatlar qiziqarlidir. Odatda korxona rahbarlari o‘zlarining 70-80 foiz vaqtlarini axborot to‘plash va yuborish bilan o‘tkazadilar. Bundan tashqari, har bir axborotni iste'molchilarga aniq va ravshan yetkazish uchun ko‘pgina mablag‘ talab etiladi.

Mamlakatimizda axborot va marketing sohalarini isloh etish, ya'ni mamlakatda va xorijiy davlatlarda ma'lumotni xavfsiz, tez va sifatli ravishda tarqalishini ta'minlash maqsadida QR kod (Quick Response Code – tez

xabar) texnologiyasini marketing sohasida qo‘llash orqali erishishimiz mumkin.

Ma'lumki, qishloqlarni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun turli xil texnika vositalari zarur bo‘ladi. Qishloqlarning real sektoriga raqamli texnologiyalar orqali servis xizmat ko‘rsatish bilan birga shaffoflikga, axborot almashinuvini tez va ravshan tashkil etishga hamda servis xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakllarini yaratishga erishish mumkin. Ayniqsa, mamlakatimizda bunday innovatsion texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi aholi faoliyatida qo‘llash yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 23 oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[106]gi PF-5853-sonli Farmoni “... qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish”[107] ga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni ochib beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turli xil gadjet (planshet, kompyuter, smart watch, chip)larni servis xizmat ko‘rsatishda va ishlab chiqarishda yangicha tashkil etish uslubiyoti, raqamli texnologiyalarni talab etadi.

Raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda esa, aloqa servis xizmatlarining sifatini oshirish hamda respublikamiz qishloqlarida sifatli, tez internet tarmoqlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda,

[106]https://lex.uz/docs/4567334

[107] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-230 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni.

aloqa operatorlari o‘rtasida raqobat muhitini yanada rivojlantirish va chet el operatorlarini respublikamiz hududida faoliyatini tashkil etish zaruriyati tug‘iladi.

Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, mamlakatimizda aloqa xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud muammolarni hal etishga jiddiy yondashish talab qilinadi. Chunki, inson hayotining bir qismiga aylanib kelayotgan aloqa texnika (Gadjet)larning servis xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida benihoyat dolzarb bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib kelayotgan aholi, axborot almashinuvi va axborotni markazlashtirilgan ko‘rinishda ma'lum bir joy (sayt)larda joylashtirish imkoniga ega bo‘lish mumkin. Misol uchun, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib kelayotgan aholi o‘ziga kerak bo‘lgan sifatli servis xizmatlaridan foydalanishi uchun aniq va tushunarli, ularning muddati va qanday texnologiya bilan servis xizmat ko‘rsatilishini bilib olishi uchun maxsus shakllantirilgan saytlar orqali servis xizmatlari to‘g‘risida batafsil axborotni olishi mumkin bo‘ladi. Huddi shunday, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanib kelayotgan aholi o‘z mahsulotlarini sotish uchun dehqon bozorlari yoki ulgurji savdo korxonalari bilan savdo jarayonini olib borishlaridan tashqari, o‘z mahsulotlarini internet tarmoqlarida yaratilgan reklama saytlari orqali shakllantirishlari mumkin bo‘ladi. Buni kengroq izohlash maqsadida quyidagicha yoritib berishni maqsadga muvofiq deb topdik:

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirgan aholi yoki qishloqdagi servis xizmat ko‘rsatuvchi korxona mamlakatimizda tashkil etilgan aloqa xizmatlaridan foydalanib, ya'ni “uztelecom” operatori yoki boshqa operatorlardan eng arzon bo‘lgan reklama uchun “domen” va “xosting”ni

ijaraga oladi. Ijaraga olingan domen va xostingda o‘z ma'lumotlarini “Reklamasini” joylaydi, ya'ni aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini terib olingan muddati, navi va shu kabi xislatlarini to‘liq yozma ravishda izohlab uning rasmini joylaydi. Natijada, aholi yetishtirgan mahsulotlar iste'molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, vositachilar (savdo korxonalari) aralashuvisiz sotish imkoni tug‘iladi. O‘z mahsulotini hozirgi dehqon bozorlarida, magazinlarda sotilayotgan narxlardan arzonroq sotishga ega bo‘ladi. Bunday yo‘l bilan nafaqat aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda, balki qishloqda aholiga zarur bo‘lgan boshqa yo‘nalishdagi servis xizmatlarini ham taklif etish mumkin.

Biz taklif etayot tizimda raqamli texnologiyalar orqali qishloq aholisi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni iste'molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish yoki ularga sotish (savdo) servis xizmatlarini tashkil etish imkoni bo‘ladi (3.5-rasm).

Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib, bunday savdo servisini tashkil etish orqali iste'molchilarga tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish, qishloqda aloqa servis xizmatlarining sifatini yaxshilash, korxonalarga ushbu tizim bo‘yicha faoliyat yuritishlari uchun sharoit yaratib berishda yangi ish o‘rinlarini va servis xizmat turlarini tashkil etish, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining yil davomida bandligini ta'minlash, tayyor mahsulotlarni saqlash, tashish va iste'molchilarga yetkazib berish kabi yutuqlarga erishish mumkin bo‘ladi.



3.5-rasm. Qishloqda raqamli texnologiyalar asosida servis xizmatlarini rivojlantirish[108]

Hozirgi kunda, qishloqda aholi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari va servis xizmatlardan foydalanish maqsadida o‘zlarining vaqtlarini izlanish uchun ko‘p sarflamoqda. Internet orqali ularni axborotlashtirish va ularga servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining rivojlanmaganligi tufayli ishlab chiqarish korxonalarida asosiy faoliyatdan chetlanishlar ko‘p uchramoqda. Bunday muammolar banklardan kredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni to‘plashga ko‘p vaqtning sarflanishida, korxonaga kerakli texnikalarni xarid qilish uchun ishlab chiqaruvchining yoniga borishda, ilmiy ishlab chiqarish laboratoriya, yangi agrotexnika, zooveterinariya, urug‘lik yetkazib berish shahobchalari kabi boshqa servis xizmatlari haqida ma'lumotlarga ega emaslik holatlari ham uchramoqda.

Bunday tizimni qishloqda aholi uchun tashkil etishdan tashqari, markazlashtirilgan holda ham yuritish imkoni mavjud. Ya'ni, respublikamizning hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib, agrotexnik tadbirlarini o‘tkazishni yoki boshqa servis xizmatiga buyurtma berishda raqamli texnologiyalar orqali elektron shartnomalarni tuzishni, MTPda

[108]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mavjud texnikalar haqida axborotni olish va ulardan foydalanish uchun texnikalarni masofadan turib band qilish, tashish va saqlash servis xizmatlari haqida axborotni olish hamda ulardan foydalanish, qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini raqamli texnologiyalarga mos rivojlantirishda “Elektron xizmat” elektron portalini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, respublikamizda, jumladan, Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining markazlashgan “Elektron xizmat”ni yaratish tizimi taklif etildi. Bunda, qishloqda aholi va servis xizmat ko‘rsatuvchilar uchun o‘ziga xos elektron bozor sifatida namoyon bo‘ladi.

3.2.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni klaster asosida rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki agrar sohani keyingi taraqqiyoti klasterlash asosida agroservisni rivojlantirish bilan bevosita bog‘langan. Ma'lumki sohada klaster usulidan foydalanishni joriy etish agroservis korxonalarining uyg‘unligini ta'minlab mutlaqo yangi sharoitda ishlashini va iqtisodiy samaradorligini bir necha barobar oshirishga imkon beradi. Klasterlashning qulayliklari qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan asosiy ishlab chiqaruvchi, yetishtirib beruvchi va servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning birlashib faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

Klaster (*ingl. Cluster – birikma, bog‘lam, to‘da*) degan ma'noni berib, ushbu tushuncha kimyo fanlarida ishlatilgan[109]. Kengroq qilib aytganda – bu, ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida ko‘rib chiqilishi

[109] https://ru.wikipedia.org/wiki/

mumkin bo‘lgan bir nechta bir hil elementlarning kombinatsiyasidir.

Umuman, iqtisodiy klaster – bu, iqtisodiyotni ma'lum bir yo‘nalishda hududiy bir biriga yaqin bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmat, shu jumladan servis xizmatini ko‘rsatishning o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar majmuasi asosida natijaviylikka, foydaga erishishdir.

Klasterlar orqali servis xizmat ko‘rsatuvchilar bilan ishlab chiqaruvchi korxonalarning faoliyatini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish, qishloqdagi aholi uchun aniq servis xizmatlarni taqdim etish, oldindan bilish orqali, arzon servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish hamda unga asosan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etgan holda kerakli axborotlarga ega bo‘lish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Iqtisodiy klaster”ga nisbatan quyidagi ta'rifni “iqtisodiy klaster – bu, ma'lum bir hududda to‘plangan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar (kompaniyalar, korporatsiyalar, universitetlar, banklar va boshqalar), muhsulotlarni butlovchi qismlar va ixtisoslashtirilgan xizmatlarni yetkazib beruvchilar, infratuzilma ob'yektlari, kompaniyalar va umuman raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan boshqa tashkilotlar majmuasining pirovard iqtisodiy natijalarga erishishidan iborat”[110] berganlar.

Jahon tajribasidan ma'lum bo‘lishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni globallashuvi davomida klasterlarning ahamiyati sezilarli darajada o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda. Bu, korxonalarni turli xil operatsiyalarini qayerda amalga oshirish mumkinlik imkoniyatlarini kengaytirishga va ularga aniq vazifalarni amalga oshirish orqali biznes muhitidan ko‘proq foyda olish imkonini yaratadi. “Klaster strategiyasini

[110] Мирзаев Қ.Д., Рахимов З.К. Агросервисни кластерлаш. Иқтисод ва молия илмий-амалий журнал № 3 (135), 2020. 35-44 б.

faol qo‘llagan mamlakatlar YAIM o‘sishini 75 foizdan 90 foizgacha oshirishga muvaffaq bo‘lishgan” [111] . Bozorlar tobora globallashib borayotgan sari, ko‘proq resurslar jozibador mintaqalarga kirib, mintaqaviy ixtisoslashuv omillari sifatida klasterlarning servis xizmatlarini taqdim etishdagi rolini yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, klasterlarning o‘zi ixtisoslashib, boshqa klasterlar bilan o‘zaro bog‘liqlikni ta'minlagan holda ular faoliyatini servis xizmatini ko‘rsatish orqali bir-birini to‘ldirishini ta'minlashga erishadilar.

Klasterlar tufayli Yevropaning ko‘plab mintaqalari ma'lum sohalarda raqobatbardosh ustunliklarini rivojlantira olishdi, jumladan: – “Londondagi moliya markazi, Antverpendagi neft-kimyo klasteri”[112], “Gollandiyadagi gulchilik klasteri, Daniya va Shvetsiya chegarasidagi biofarmatsevtik klaster. Muvaffaqiyatli klasterlar ixtisoslashuvning asosiy maqsadi qilib olgan mutaxassislar, klasterlarga investitsiya va yangi texnologiyalarni kiritishga, yirik bozorlarda mintaqaviy kooperatsiyalarni tashkil etish orqali global qiymat zanjirlarini yaratishga erishdilar. Shu bilan birga, klasterlardagi iqtisodiy faoliyat ixtisoslashuv sohalarida konsentratsiya darajasini oshirishga intiladi”[113] deb izohlangan.

Mohiyatiga ko‘ra klasterlarni chet el manbalarida “ishlab chiqaruvchilar, servis xizmat ko‘rsatish vakillari, ilmiy va tadqiqot tashkilotlari, moliya institutlari va boshqa xususiy va davlat tuzilmalarining har xil aloqalari bilan birgalikda joylashishi sifatida tavsiflanadi. Klasterlar rivojlanish bosqichiga va hayot tsikliga qarab farqlanadi: – ba'zilari kichik

[111]Иоффе О. Кластерный подход // Губернский деловой журнал. –2009. №11. С. 19.
[112] Первушина А.С. Зарубежный опыт развития нефтехимических кластеров // Вестн. Самарского государственного экономического университета. –2015. №1 (123). –с.42-47.
[113]http://dspace.bsu.edu.ru/bitstream/123456789/29989/1/Kalugin_Investitsii.pdf

va o‘rta biznes tarmoqlari, boshqalari yirik korxonalar atrofida, boshqalari esa universitetlar atrofida to‘planadi”[114] deb ta'kidlashgan.

“…izlanish davomida ko‘pgina Yevropa klasterlari biznes vakillari tashabbusi bilan tuzilganligi aniqlandi, keyinchalik mintaqaviy darajada sezilarli ijobiy ta'sir natijasida hududiy ma'muriyat klaster jarayonini rag‘batlantirish bo‘yicha keyingi choralarni ko‘rdi. Bu yo‘l bilan, Daniya, Norvegiya va Shvetsiya sanoatlari to‘liq klasterlar bilan qamrab olingan”[115].

Yevropa Komissiyasi klaster siyosatini shakllantirish va klasterlar evolyusiyasini o‘rganishga alohida e'tibor beradi, chunki klasterlar mintaqaviy rivojlanishga hissa qo‘shadi va iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etadi. Shunday qilib, 2007 yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtirilgan Yevropa Klaster Observatoriyasi o‘z faoliyatini boshladi, u mavjud klasterlar, rejalashtirilgan klaster tashabbuslari va 32 ta Yevropa mamlakatlarida klaster siyosati yo‘nalishlari to‘g‘risida ma'lumot beradi.

Respublikamizda ko‘p hollarda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi aholiga zarur bo‘lgan xom ash'yolarni yetkazishda servis xizmatlarini ko‘rsatuvchining mavjud emasligi sabab bo‘lib chiqmoqda. Klasterlar asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, servis xizmatlarini joriy etish, bozorlarda xom ash'yo bazalarini yaratish va ular orqali servis xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zaruriyatining oshib borishi, o‘z navbatida, bunday klasterlar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun servis xizmatlariga bozorda talab bo‘lishi zarur. Buning uchun, mamlakatimizda klaster faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va xom ash'yo bozorlarida servis

[114] Innovation Clusters in Europe: A statistical analysis and overview of current policy support. European Commission. Available from: http://www.central2013.eu/fileadmin/user_upload/Downloads/Tools_Resources/Cluster.pdf.

[115] Королев В.И. Инновационные территориальные кластеры: зарубежный опыт и Российские условия // Российский внешнеэкономический вестн. –2013. №11. С. 22.

xizmatlarining turli xil turlarini davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida, Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda servis xizmat ko‘rsatish klasterlarining mavjud emasligi aniqlandi. Davlat tomonidan servis xizmat ko‘rsatish klasterlarini tashkil etish uchun moliya-kredit servis xizmatlarini tashkillashtirish, yangi klaster bo‘lib servis xizmat ko‘rsatish korxonalariga so‘nggi texnologiyalarni kiritish jarayonida ko‘maklashish, ta'lim berishda servis xizmat ko‘rsatishni, ilmiy laboratoriya, oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida klasterlar haqida jahon tajribasini keng tushuntirib berish, klaster asosida ishlayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishni qo‘llash bilan servis xizmati klasteri faoliyatini tashkil etishga erishish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda qishloqda hududiy servis xizmat ko‘rsatish klasterlarni tashkil etish uchun quyidagi (3.6-rasm).

Samarqand hududiy “Qishloqxizmat” klasteri qishloqdagi aholi va tadbirkorlar faoliyatini qullab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. O‘zaro uzviy faoliyatlar klaster asosida tashkil etilganligi servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning ishchi xodimlarini doimiy ish bilan bandligini ta'minlash orqali mehnat unumdorligini oshirishga muvofaq bo‘ladi. Qishloqdagi aholi uchun esa servis xizmatlari bozor talablari asosida shakllanib, doimiy ravishda modernizatsiyalangan holda taklif etiladi. Bu esa, qishloqda aholining turmush sharoiti yaxshilanishi bilan urbanizatsiyalanish darajasiga ijobiy ta'sir ham ko‘rsatadi. “Qishloqxizmat” klasterlari servis xizmat ko‘rsatish uchun moddiy texnika bazalari uchun ishlab chiqaruvchilarni qiziqtirib qolishlari va klaster joylariga yaqin hududlarda kichik, o‘rta sanoat ishlab chiqarish korxonalarining ochilishi hamda qulay iqtisodiy muhit yaratilishi uchun xizmat qiladi.



3.6-rasm. Samarqand hududiy “Qishloqxizmat” klasteri tuzilmasi[116]

[116]Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qishloqda servis xizmatlarini yanada kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash va aholi bilim darajasini yanada oshirish maqsadida, statistik ma'lumotlarda koʻrsatib kelinayotgan rivojlanishi past boʻlgan viloyat, shahar va tumanlarda davlat, xususiy, xususiy-davlat sherikchiligi, chet el hamkorligida oʻrta maxsus yoki oliy ta'lim muassasalarini ochish mumkin.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalariga kirishni ishlab chiqarish, servis xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalarida 5, 10, 15 yildan buyon band boʻlib kelayotgan kadrlarni korxona tavsiyasi va toʻliq kontrakt shartnomalarini servis xizmat koʻrsatuvchi korxona tomonidan moliyalashtirish evaziga tashkil etishni yoʻlga qoʻyish mumkin. Oʻqish davomida, korxona tomonidan tavsiya bilan ta'lim olayotgan kadrning oʻzlashtirish koʻrsatkichi elektron tarzda toʻgʻridan-toʻgʻri buyurtmachi korxonaga hisobot tarzda yuborilib turiladi. Korxonalar kelgusida ushbu kadrni ishga olish sharti, kamida yangi tayyorlangan kadrni 5-10 yil davomida ishlatishni va ular faoliyatida servis xizmatini tashkil etishiga yordamlashishni oʻz zimmasiga olishini kafolatlaydi. Ushbu jarayonda ta'lim berishni ta'minlash orqali, oliy oʻquv yurtlarida tayyorlanayotgan yangi kadrlarni ish bilan bandligini ta'minlash muammosi kamayadi. Oliy oʻquv yurtlarida tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga talab kuchayadi. Xususiy, davlat, xususiy-davlat sherikchiligi, chet el ta'lim muassasalari oʻrtasida raqobat kuchayadi. Ta'lim muassasalarini turli hududlarda ochilishini ta'minlash orqali, infratuzilma ob'yektlarini rivojlantirish va qishloqda servis xizmatlarini rivojlanishimkonini yanada oshirishga erishish mumkin boʻladi.

Qishloqda aholiga servis xizmat koʻrsatish sub'ektlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun iqtisodiy koʻrsatkichlarning holati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, Samarqand viloyati boʻyicha qishloqda aholiga servis xizmat koʻrsatuvchi sub'ektlar faoliyatiga ta'sir etuvchi 6 ta asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlarning soʻnggi 10 yil ichida oʻzgarishini tahlili (3.1-jadval).

3.1-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatuvchi sub'yektlar faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi[117]

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar										2012-2021 yillarda o‘rtacha o‘sish sur'ati
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
1.	Aholi soni ming kishi	2068,2	2120,8	2177,7	2228,6	2278,9	2329,3	2384,2	2439,1	2489,0	2548,2	2306,4
2.	Aholining o‘rtacha bir yillik daromadlari ming so‘m	6973,6	8061,1	9483,8	11177,1	12434,5	13237,2	15840,5	21619,9	25238,8	29351,4	15341,8
3.	Xizmat ko‘rsatish korxonalari soni birlikda	10808	11432	11727	12463	12819	13582	16304	20719	26015	33114	16898,3
4.	Inflyatsiya darajasi %	7	6,8	6,1	5,6	5,7	14,4	14,3	15,2	11,1	10,9	9,7
5.	Iqtisodiy faol aholi soni ming kishi	1133,9	1159,8	1185,1	1206,6	1225,5	1244,6	1261,7	1270,9	1350	1599,7	1263,8
6.	Investitsiya mlrd. so‘m	799,9	994,3	1233,0	1486,2	1940,1	2158,5	4407,7	5966,0	8006,2	9234,6	3622,7

[117]Samarqand viloyat statistika boshqarmasining 2012-2021 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Yuqorida ko‘rsatilgan jadval ma'lumotlari tahlili shundan iboratki, Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda 2012-2021 yillarda o‘rtacha aholi soni 2306,4 ming kishi, aholining o‘rtacha bir yillik daromadlari 15341,8 ming so‘mga, xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 16898,3 taga, inflyatsiya darajasi 9,7 foiz, iqtisodiy faol aholi soni 1263,8 ming kishi, xizmatlar sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3622,7 mlrd. so‘mga o‘sgan. Shundan kelib chiqib, qishloqda aholining o‘sishi bilan mamlakatimizda xizmatlar sohasiga, shu jumladan servis xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan bozor talablari ortishi va bu sohani bozor talablari asosida rivojlantirish uchun mamlakatimizda so‘nggi o‘n yil ichida ulkan o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rishimiz mumkin.

Aytish joizki, keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning barqarorligining ta'minlanganligi qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni samarali rivojlantirishni tashkil etishga ta'sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qishloqdagi aholining yashash sharoiti va u joylarda servis xizmat ko‘rsatishning rivojlanish darajasini ifodalaydi.

3.3.-§. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni ekonometrik model asosida prognozlashtirish

Rivojlangan mamlakatlarda qishloqdagi aholini doimiy ish bilan bandligini ta'minlash hamda u joylarda aholi uchun servis xizmat ko‘rsatish maqsadida yangi tashkil etilayotgan korxonalarga davlat hamda nodavlat tashkilotlari tomonidan turli servis xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish mexanizmlarini aniqroq yoritish uchun servis xizmat ko‘rsatishda bir necha muammoli vaziyatlarni ochish maqsadga muvofiq.

Servis xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil etish uchun qulay infratuzilma mavjud emas. Bu, tadbirkorlar uchun servis xizmat ko‘rsatish korxonasini yuritishda ma'lum xizmatlar yetishmasligi yoki sifatli xizmatning mavjud emasligi tufayli ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, masalan:

- aloqa sifatida – qishloqda iste'molchi uchun xizmatlar tasnifini yetkazish, masofaviy servis xizmatlarni ko‘rsatish uchun sifatli internet tarmoqlarining mavjud emasligi va ko‘p hollarda tuman markazlaridan yiroq qishloqlarda uyali aloqa operatorlarining xizmatidagi uzilishlar;

- moliyaviy manbalarning kamligi tufayli mahalliy servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining modernizatsiyalanmay qolishi;

- servis xizmat ko‘rsatish korxonasida malakali kadrlar (ishbilarmonlar)ning yetishmasligi;

- biznes trener xizmatlarining mavjud emasligi;

- qishloqda aholining turmush darajasini doimiy o‘rganib boruvchi va turmush darajasini yaxshilash maqsadida strategik takliflarni ishlab chiqaruvchi idoralarning mavjud emasligi;

- servis xizmat ko‘rsatish korxonalariga ilmiy takliflar ishlab chiqaruvchi, ularga konsalting xizmati, rivojlanish istiqbollarini ishlab chiquvchi, xizmat ko‘rsatishni chet el tajribasini o‘rganib servisga aylantirishni ilmiy-amaliy jihat tavsiyalarni ishlab chiquvchi biron-bir markazlashtirilgan aniq vazifasi belgilangan idoraning mavjud emasligi;

- agroservis korxonalarida moddiy-texnika bazasining yetishmasligi yoki mavjud texnikalarning eskirganligi va shu kabilar.

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda o‘tkazilgan izlanishlar davomida, qishloqda avtomobil yo‘llarining yaroqsizligi, kommunal

xizmatlarning mavjud emasligi, maishiy servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining modernizatsiyalanmaganligi, dam olish joylari (oromgox, pavelion, istirohat bog‘lari va boshqalar)ning yo‘qligi yoki servis talabiga mos emasligi, yo‘lovchi tashish marshrut avtobuslarining mavjud emasligi, qishloq xo‘jaligi texnikalariga transport ta'mirlash shahobchalarining mavjud emasligi servis xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga ta'siri ham muhim hisoblanmoqda.

Samarqand viloyatida mavjud servis xizmat ko‘rsatish korxonalaridagi muammolarni aniqlash va ularni yechish yo‘llarini topish maqsadida 2012-2021 yillar davomida qishloqda ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmining o‘sish sur'atlarini tahlil qildik. 2012 yilda servis xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlar soni 10808 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 711560,0 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 65,8 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2013 yilda korxona va tashkilotlar soni 11432 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1045321,4 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 91,4 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2014 yilda korxona va tashkilotlar soni 11727 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1273139,3 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 108,6 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2015 yilda korxona va tashkilotlar soni 12463 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1289595,9 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 103,5 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2016 yilda korxona va tashkilotlar soni 12819 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1658597,8 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 129,4 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2017 yilda korxona va tashkilotlar soni 13582 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2303804,3 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga

169,6 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2018 yilda korxona va tashkilotlar soni 16304 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2692375,7 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 165,1 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2019 yilda korxona va tashkilotlar soni 20719 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 5652377,0 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 272,8 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2020 yilda korxona va tashkilotlar soni 26015 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 6146009,8 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 236,2 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2021 yilda korxona va tashkilotlar soni 33114 tani tashkil etgan, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 6914113,4 ming so‘mni tashkil etib, har bir korxonaga 208,8 ming so‘m to‘g‘ri kelgan. 2012-2021 yillarda yangi tashkil etilayotgan va faoliyati turli xil sabab (majburiy to‘lovlarni amalga oshira olmaslik, texnik nosozlik, modernizatsiya ishlari, huquqiy, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarning yo‘qligi va boshqa)larga ko‘ra vaqtincha to‘xtatilgan yoki tugatilgan korxonalar ham mavjud. Ularning soni 2012 yil 1076 ta, 2013 yil 1027 ta, 2014 yil 1345 ta, 2015 yil 958 ta, 2016 yil 1002 ta, 2017 yil 1001 ta, 2018 yil 788 ta, 2019 yil 1424 ta, 2020 yil 1548 ta, 2021 yil 1908 tani[118] tashkil etmoqda.

Ma'lumki, qishloqda yashab kelayotgan aholi sonining tug‘ilishlar sababli keskin ko‘payishi mavjud. Aholi sonining ko‘payishi bilan birga xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortishi tabiiy. Bu esa, yangi servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining rivojlanishiga olib kelishi, servis xizmat ko‘rsatish hajmining o‘sishi, ushbu sohada korxonalar ko‘payishi o‘rniga faoliyati tugatilgan va to‘xtatilgan korxonalar ham mavjud. Ko‘rsatilgan servis xizmatlar ulushining har bir korxona va tashkilotlar soniga nisbati

[118] Tahlil Samarqand viloyat statistika boshqarmasi va tuman bo‘limlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. 28.03.2021 yil. https://samstat.uz/

muntazam o‘sish tendensiyasiga ega emasligi tufayli, ushbu ko‘rsatkichlarni chuqur ekonometrik model asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘tkazilgan izlanishlar davomida qishloqda xizmat ko‘rsatish hajmining o‘zgarish dinamikasiga iqtisodiy omillar ta'sir doirasi o‘rganildi. Bunda, korrelyasiya-regressiya usullaridan foydalanib 2012-2021 yillarda qishloqlarda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi ming so‘mda (*Y*), ta'sir ko‘rsatuvchi omillar (X) korrelyasion-regression tahlil o‘tkazildi. Dastlabki tahlil jarayonida ta'sir qiluvchi deb taxmin qilingan 6 ta omil ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqildi, ya'ni qishloq aholi soni (X_1), qishloq aholisining o‘rtacha bir yillik daromadlari (X_2), xizmat ko‘rsatish korxonalari soni (X_3), inflyasiya darajasi (X_4), iqtisodiy faol aholi soni (X_5), kiritilgan investitsiyalar hajmi (X_6). Ushbu omil (X)larning qishloqda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (*Y*) bilan bog‘liqligini korrelyasiya koeffitsienti orqali ifodalash mumkin (3.2-jadval).

3.2-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda 2012-2021 yillarda ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog‘liqligini ifodalovchi korrelyasiya matritsasi[119]

	Y	***X1***	***X2***	***X3***	***X4***	***X5***	***X6***
Y	1						
X1	0,89	1					
X2	0,98	0,95	1				
X3	0,97	0,86	0,97	1			
X4	0,67	0,70	0,65	0,60	1		
X5	0,90	0,96	0,96	0,92	0,63	1	
X6	0,96	0,91	0,97	0,97	0,71	0,93	1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Samarqand viloyat boshqarmasi va Samarqand tuman statistika bo‘limlari 2012-2021 yilgi ma'lumotlariga asoslanib hisoblandi.

Bu erda:

- Y – qishloq joylarda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘mda);

[119]Muallif tomonidan Gretl dasturi yordamida hisoblandi.

- X1 – qishloq aholi soni (ming kishi);
- X2 – qishloq aholisining o‘rtacha bir yillik daromadlari (so‘m);
- X3 – xizmat ko‘rsatish korxonalari soni (birlikda);
- X4 – inflyatsiya darajasi (foizda);
- X5 – iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi);
- X6 – kiritilgan investitsiyalar hajmi (ming so‘mda).

Jadvalda keltirilgan korrelyasiya koeffitsientlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloqda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (*Y)* bilan tanlab olingan omillarning bog‘lanish koeffitsientlari yuqori (3-ilova).

Bu holatni Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘sish sur'atlariga, ya'ni qishloq aholi sonini, qishloq aholisining o‘rtacha bir yillik daromadlarini, xizmat ko‘rsatish korxonalari sonini, inflyatsiya darajasini, iqtisodiy faol aholi sonini hamda kiritilgan investitsiyalar hajmining o‘sishi bilan izohlash mumkin.

Tahlil qilinayotgan o‘zgaruvchi (X1, X2, X3, X4, X5, X6)lar o‘rtasida yuqori korrelyatsiya tufayli multikollinearlik muammosi mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu esa, o‘z navbatida regressiya koeffitsientlarining ahamiyatsiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu sabab bilan ma'lumotlarda multikollinearlik muammosi (bir birini ta'sirini to‘sib qo‘yish)ni oldini olish uchun biz korrelyasiyasi 0,7 dan past bo‘lgan omillarni tanladik.

Tahlil qilinayotgan omillar ta'sirining Yga nisbatan foizda o‘zgarishi (elastikligi)ni tekshirish maqsadida ular lagorifmlandi. Lagorifmlash orqali omillar ta'sirini aniqroq ko‘rsatish imkoniga ega bo‘linadi.

Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun Gretl [120] dasturining ekonometrik tahlillar paketidan foydalanildi (3.3-jadval).

3.3-jadval

Regression tahlil natijalari[121]

	R kvadrat	**Koeffitsient**	**Standart hatolik**	**t-statistika**	**P-ahamiyatlilik**
lnY	0,98	-11,0978	1,560698	-7,111	0,0002
lnX2		1,55112	0,100268	15,47	0,0001
X4		0,0228181	0,011996	1,902	0,0989

Endi regressiya tenglamasi ko‘rsatkichlari natijalarini ko‘rib chiqamiz: – bu yerda ko‘rinib turibdiki, qishloq aholisining o‘rtacha bir yillik daromadlari bilan inflyatsiya darajasining standart xatolik koeffitsientlari 0,1 va 0,01ni tashkil qildi. Bu, o‘z navbatida bashorat qilingan qiymatlarning kichik diapazonini ko‘rsatadi (4-ilova).

3.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni quyidagi ko‘p omilli regressiya tenglamasi orqali ifodalash mumkin:

$$lnY = 0{,}02 * X_4 + 1{,}55 * lnX_2 - 11{,}1 \qquad (3.1.)^{122}$$

Ushbu modelga ko‘ra inflyatsiya darajasining 1 foiz birlikga oshishi qishloqda xizmatlar hajmini 2 foizga oshiradi, qishloq aholisining o‘rtacha bir yillik daromadlarining 1 foiz o‘sishi Y erksiz o‘zgaruvchini 1.55 foizga oshishi bilan kuzatiladi. R kvadratning qiymati 98 foiz ekanligi, X_4 va X_2 omillar Y erksiz o‘zgaruvchi qiymatlarining o‘sishi va kamayishiining 98 foizini tushuntirib bera olar ekan.

[120] http://gretl.sourceforge.net/ru.html
[121] Muallif tomonidan Excel dasturi yordamida hisoblangan
[122] Muallif tomonidan Gretl dasturi yordamida hisoblandi.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, biz qishloqda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (Y)ning o‘sishini 2022-2026 yillarga eksponensial trend asosida prognoz qilishni maqsadga muvofiq deb topdik (3.7-rasm).



3.7-rasm. Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda 2022-2026 yillarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining eksponensial trend bo‘ylab o‘sish prognoz parametrlari[123]

Bu yerda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi eksponensial trend bo‘ylab o‘sadi. Bunga asos sifatida servis xizmat ko‘rsatish korxonalari soni, ularga kiritilgan investitsiyalar hajmi ham yuqori sur'atlarda o‘sishi kutilmoqda. Ushbu prognozni quyidagicha keltirish mumkin (3.4-jadval):

(3.2.)

$$Y = e^{0.259X - 508.04}$$

[123] Muallif tomonidan Gretl dasturi yordamida hisoblandi.

3.4-jadval

Prognoz qilinayotgan ma'lumotlarning regression tahlili[124]

	R kvadrat	Koeffitsient	Standart hatolik	t-statistika	P-ahamiyatlilik
Y - kesisish	0,968	-508.0411	37.295	-13.62	8.11e-07 ***
Yillar		0.2592	0.0185	14.01	6.54e-07 ***

Prognoz qilinayotgan ma'lumotlarning regression tahlili natijalariga ko‘ra R2=0,968ni tashkil etdi, ya'ni 1 ga yaqin. Bu prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlilik darajasini ifodalaydi.

Yuqoridagi tenglamadan foydalanib 2022-2026 yillarda qishloqda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini quyidagicha prognoz qilamiz (3.5-jadval).

3.5-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan xizmatlar hajmining o‘sish prognoz parametrlari[125]

Yillar	Mln. so‘m
2022	9350,2
2023	12116,9
2024	15702,2
2025	20348,3
2026	26369,2

O‘tkazilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, qishloqda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini 2022 yil 9350,2 mln. so‘m, 2023 yil 12116,9 mln. so‘m, 2024 yil 15702,2 mln. so‘m, 2025 yil 20348,3 mln. so‘m, 2026 yil 26369,2 mln. so‘m bo‘ladi deb prognoz qilishimiz mumkin.

3.5-jadvalda keltirilgan prognozning o‘sishini quyidagi 3.8-rasmda keltirildi.

[124] Muallif tomonidan Gretl dasturi yordamida hisoblandi.
[125] Muallif tomonidan Gretl dasturi yordamida hisoblandi.



3.8-rasm. Samarqand viloyati bo‘yicha qishloqda 2022-2026 yillarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘sish dinamikasi[126]

Olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- qishloqda aholining daromadlarini oshirish. Buning uchun, qishloqda mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rgangan holda aholi o‘z-o‘zini band qilishni tashkillashtirish, bu orqali qishloqda boshlang‘ich kapitalni kam talab etadigan tadbirkorlik yoki biznesni shakllantirishga yo‘naltirish;

- qishloqda mavjud ishlab chiqarish korxonalariga servis xizmat ko‘rsatishni sifatli qilib tashkil etish;

- servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining faoliyatini tashkil etishda investorlar manfaatdorligini oshirish;

- qishloqdagi aholiga ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib yangi biznes loyihalarni ishlab chiqib, uni amalga oshirishda tuzilgan strategik harakatlarni bosib o‘tishda ko‘maklashish;

[126] Muallif tomonidan tuzildi.

- qishloqda ishlab chiqarish, servis xizmat koʻrsatish korxonalariga moddiy-texnika bazasini yangilashda koʻmaklashish.

Qishloqda aholiga servis xizmat koʻrsatishni tashkil etish va rivojlantirishning raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha quyidagi xulosalarga kelindi hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiyotimizning rivojlanishi bilan birga mamlakatimiz aholisining servis xizmatlariga boʻlgan talablari ham ortib bormoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish orqali qishloqda resurslardan samarali foydalanish, arzon va sifatli servis xizmatlarini tashkil etish orqali YAIM, YAHM tarkibida xizmatlar koʻrsatish ulushini oshirishga erishish mumkin. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, qishloqda servis xizmatlarini tashkil etishda innovatsion tuzilmalardan foydalangan holda “feedback” usullarini joriy qilish;

Ikkinchidan, QR kod (Quick Response Code) orqali qishloqda aholiga taklif etilayotgan servis xizmatlari haqida ma'lumot tarqatish;

Uchinchidan, qishloqda aholiga servis xizmat koʻrsatishni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish orqali iste'molchi va servis xizmat koʻrsatish sub'yektlarining oʻzaro iqtisodiy munosabatlarining imkoniyatlarini kengaytirish;

Toʻrtinchidan, qishloqda aholini oʻzini-oʻzi band qilishi maqsadida servis xizmat koʻrsatishni tashkil etishga qiziqishini uygʻotish, ushbu sohani rivojlantirishda “Servis xizmat koʻrsatish” innovatsion markazidan keng foydalanish ahamiyatlidir.

2. Qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatishning raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari asoslanildi. Ushbu mexanizmlar qishloqda servis xizmat ko‘rsatish sub'yektlari faoliyatini samarali rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

3. Mamlakatimiz tomonidan iqtisodiy klasterlarga bo‘lgan e'tibor ortib bormoqda. Iqtisodiy klasterlarni tashkil etish orqali soha va tarmoqlarni samarali rivojlantirish mumkin. Qishloqda aholining servis xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarining ortishi, servis xizmat ko‘rsatish korxonalarining ko‘payishi bilan birga ular faoliyatini “Qishloqxizmat” klasterlari asosida tashkil etishda ustuvor vazifalar asoslanildi.

4. Mazkur monografiya ishida – qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish orqali xizmatlar hajmini oshirishga ta'sir etish imkoniyatlari keltirilgan. Qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni bozor talablari asosida sifatli tashkil etishga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili o‘tkazilib kelgusida xizmatlar sohasi rivojlanishining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Keltirilgan prognoz parametrlardan kelgusida Samarqand viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda qishloqda aholiga servis xizmat ko‘rsatishni sifatli va samarali tashkil etish maqsadida foydalanish mumkin.

XULOSA

Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish asosida qishloq va shahar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga doir masalalar ochib berilgan. Shu bilan birga, qishloqda servis xizmatlari muammolariga doir xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar chuqur tahlil qilinib, muhim iqtisodiy terminlar, ya'ni “xizmat”, “xizmat ko‘rsatish” va “servis” tushunchalarining mazmun-mohiyati ilmiy asoslanilgan va mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

2. Qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ularning ko‘rsatkichlarni ifodalashda bir qator tamoyillar asosida, jumladan nomenklatura va miqdor, sifatli servis xizmat ko‘rsatish, belgilangan (normativ) huquqiy hujjatlarga muvofiqlik, narx talabiga mosligi, xizmat ko‘rsatish ishonchliligini hamda qishloqda servis xizmat ko‘rsatish natijalarini baholash uslubiyotini takomillashtirishni hisobga olgan holda qishloqda servis xizmatlarini iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va uni aniqlash uslubiyati ishlab chiqilgan.

3. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat (AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Yaponiya va boshqa)larda qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, shu jumladan qishloqda mavjud resurslardan samarali foydalanish yo‘llari tadqiq etildi. Ular tajribasi asosida respublika bo‘yicha qishloqda servis xizmatlarining yangi ko‘rinishlarini joriy qilish, ish o‘rinlarini yaratish,

sifatli servis xizmatlarini tashkil etish hamda servis xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub'yektlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy asoslanilgan.

4. Tadqiqot ishida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishga ta'sir etuvchi omillar guruhlanib, ular iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa omillar sifatida turkumlandi. Shu bilan birga, muallif tomonidan qishloqda servis xizmatlari holati ushbu omillar ta'siri natijasiga asoslanib anketa so‘rovnomasi o‘tkazilishi asosida ularning ta'sir natijasi aniqlanildi. Mazkur ilmiy xulosalar natijasi qishloqda aholini servis xizmatlariga qoniqish darajasini va yangi servis xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash imkonini beradi.

5. Tadqiqot ishida qishloqda servis xizmat ko‘rsatishni “Harakatlar strategiyasi” hamda “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos rivojlanishining asosiy strategik yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Mazkur strategiyalarga ko‘ra qishloq aholisining hayot sharoitini yaxshilash, qishloqda tibbiy xizmatni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan xizmatlar hamda aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, agrar soha va qishloq aholisi uchun zaruriy mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, yetkazib berish masalalari ustuvor vazifa sifatida ilmiy asoslanilgan.

6. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish ilmiy asoslanilgan. Jumladan, ishda qishloqda servis xizmatlarini ko‘rsatishning innovatsion va raqamli texnologiyalarga mos tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Shunga mos monografiyada qishloqda “Servis xizmat ko‘rsatish” innovatsion markazining tashkiliy tuzilmasi taklif etilgan.

7. Tadqiqot ishida qishloqda servis xizmatlarni hududlarda samarali rivojlanish imkoniyatini yaratuvchi hududiy “Qishloqxizmat” klasterining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi taklif etilgan. Mazkur klaster qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha hududdagi barcha resurs va salohiyatni ishga solish oqibatida agrar sohaning ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tizimli olib borish, hududning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib agrar sohaning barcha tarmoq va sohalarida innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish imkoniyati hamda agrar sohada ishlab chiqarish, fan-ta'lim zanjirini tizimli ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

8. Qishloqda xizmatlarni rivojlantirishning ekonometrik model parametrlariga asoslangan iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy natijalarga ko‘ra qishloqda xizmat ko‘rsatish faoliyatini kelgusi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Buning natijasida 2026 yilga borib qishloqda xizmat ko‘rsatish darajasi 2021 yilga nisbatan 3,8 martaga oshib yoki 26369,2 mln. so‘mni tashkil qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 80 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019 yil 30 dekabr. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 10 may. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

4. 5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 18 iyul. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 24 iyul. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-706-sonli “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021 yil 9 avgust. – T.: 2021. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-707-sonli “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021 yil 11 avgust. – T.: 2021. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

